

**A.R.Jo‘rayev, A.M.Shoyimov, I.Sh.Sadullayev,
N.Sh.Shadiyeva, S.U.Shodiyeva, G.N.Davronova**

TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlarining Pedagogika ta'lim sohasining barcha bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

**“KAMOLOT” nashriyoti
Buxoro – 2022**

UO‘K: 004.92

KBK: 74.263.2

Jo‘rayev Akmal Razzoqovich, Shoyimov Anvar Mamarizayevich, Sadullayev Ibrat Shuxratovich, Shadiyeva Nigora Sharipovna, Shodiyeva Sitara Ulug‘bek qizi, Davranova Gulbaxor Numondjonovna. Ta‘limda axborot texnologiyalari [Matn] : Darslik / A.R. Jo‘rayev, A.M. Shoyimov, I.Sh. Sadullayev, N.Sh.Shadiyeva, S.U.Shodiyeva, G.N.Davronova - Buxoro.: “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022-284 b.

Mazkur darslik – pedagogika ta‘lim sohasining barcha bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun “Ta‘limda axborot texnologiyalari” fanining amaldagi fan dasturi asosida ishlab chiqilgan. Fanning predmeti va vazifalari, tarixi, rivojlanishi, operatsion tizimlar va ularning turlari, elektron jadval muharrirlari, MS Excel dasturi, multi-medianing asosiy tushunchalari, audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari, dreamweaver dasturida web-sahifa yaratish, axbo-rotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalari, elektron tijorat tizimlari va elektron raqamli imzo haqida batafsil ma‘lumot berilgan. Darslik – barcha pedagogika sohasidagi ta‘lim yo‘nalishi talabalari va professor-o‘qituvchilar foydalanishlari uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Sh.Sh. Olimov *Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.*

O.I. Jalolov *Buxoro davlat universiteti “Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari” kafedrasi mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

ISBN: 978-9943-8799-8-0



*Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil 13 maydagi
166-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan*

KIRISH

Ma'lumki, insoniyat axborotlashtirish sohasida haqiqiy inqilobiy o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Buning natijasida esa umumjahon axborotlashgan hamjamiyati shakllanmoqda. Shu sababli ham axborot texnologiyalari jadal suratlar bilan rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, hamda iqtisodiy islohotlarning bosh yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqda olib borilayotgan iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari mamlakatimizda axborotlashtirish sohasidagi muammolarning hal etilishiga ham bogliqdir.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni taminlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha korilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali mutaxassislar bilan taminlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining integrassiyalashgan kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Axborot texnologiyalarining o'qitilishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mehnat bozorining malakali mutaxassislarga bo'lgan talabini qoniqtirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturlari belgilab berilgan.

Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish, hamda ulardan foydalanish. Shuningdek, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab va ehti-

yojlarini yanada to'liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish, hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan, kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va ularning zamonaviy tizimlarini joriy etish birinchi galdagi eng muhim vazifalar sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ko'p jihatdan uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

Yangicha fikrlaydigan, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yurita oladigan malakali, chuqur bilimli mutaxassislar, ayniqsa, axborot texnologiyalaridan keng foydalana oladigan malakali kadrlarni tayyorlash davr talabi bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini amalga oshirishda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, ta'limda axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Ta'lim sohasidagi tub islohatlarning asosiy maqsadi jahon andozalari asosida bilimlar berish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Shuning uchun oliy ta'lim tizimidagi ta'lim sohasi 110000 – Pedagogika, ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanining mazkur darsligi, bo'lajak pedagoglarning axborot texnologiyalaridan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini o'z ichiga olgan bo'lib, axborot texnologiyalarining asoslari, operatsion tizimlar va ularning turlari, elektron jadval muharrirlari, MS Excel dasturi, multimedyaning asosiy tushunchalari, audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari, dreamweaver dasturida web-sahifa yaratish, axborotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalari, elektron tijorat tizimlari va elektron raqamli imzo haqida batafsil ma'lumotlar shakllantirilgan.

1-MAVZU: TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

Ta'limda axborot texnologiyalari (AT) fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Axborot tushunchasi, axborotning xususiyati, axborotning asosiy tavsifi, axborotning sintaktik, semantik va pragmatik o'lchovlari. Ma'lumotlarni kodlash, kompyuterning ishlash prinsiplari.

Tayanch so'z va iboralar: kompyuter, ta'lim, axborot, axborot texnologiyalari, o'qitish metodikasi, jarayonlar, kod, kodlash.

1. Ta'limda axborot texnologiyalari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Informatikaning asosiy tushunchalaridan biri – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyasidir. **Axborot nima?** Biz barcha sezgi organlarimiz orqali qabul qila oladigan ma'lumotlar majmuini va ularning o'zaro bog'lanish darajasini tushunamiz. **Texnologiya** grek tilidan (techne) tarjima qilganda san'at, mahorat, bilish ma'nolarini anglatadi, bular esa o'z navbatida jarayonlardir.

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni texnologiyani) boshqarishning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Jarayonlar - bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum harakatlar majmuasidir.

Ayni paytda axborot texnologiyasi haqida fikr yuritganda

“yangi”, „kommunikatsion“ yoki „zamonaviy“ soʻzlarini qoʻshib ishlatiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyasi (AKT)- bu zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsion vositalaridan foydalanadigan, foydalanuvchi ishlashi uchun «doʻstona» interfeysga ega boʻlgan axborot texnologiya demakdir.

Taʼlimda AT vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir.

Hozirgi kunda **kompyuterlar** taʼlim tizimida asosan toʻrt yoʻnalishda:

- oʻrganish obyekti sifatida;
- oʻqitishning texnik vositalari sifatida;
- taʼlimni boshqarishda;
- ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

Oʻquv jarayonida kompyuterlar asosan quyidagicha foydalanilmoqda:

- *passiv qoʻllash* – kompyuter oddiy hisoblagich kabi;
- *faol muloqot* – kompyuter oʻquvchiga yoʻl – yoʻriq berish va imtihon olishda;
- *interfaol muloqot* – kompyuter sunʼiy intellekt sifatida, yaʼni oʻquvchi bilan muloqot qilishda foydalaniladi.

Taʼlimda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalarini axborotlashtirishni;
- oʻquv faoliyatini intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- taʼlim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik taʼlim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy oʻquv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;
- pedagoglar oʻrtasida vazifalarning taqsimlanishini;
- taʼlim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taʼlim jarayonlariga

joriy etilishi:

- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fansohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga tinglovchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiyalashtirishga;
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali tinglovchining o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o'quvchilarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - zamonaviy axborot texnologiyalari asoslari, zamonaviy shaxsiy kompyuterlar va ularning atrof qurilmalari, sistemali dasturiy ta'minoti, amaliy dasturiy vositalar, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar, Web-dizayn asoslari, dasturlash, Microsoft Office ning dasturiy vositalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Fanning vazifasi:

- ta'limda ATlari haqida bir butun tasavvur hosil qilish;
- ta'limda ATlarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidagi rolini ochib berish;
- ta'limda ATning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va imkoniyatlarining ochib berish;
- axborot tizimlari va texnologiyalarini nima maqsadida va qanday kodlash haqida tushuncha hosil qilishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari kompyuter tarmoqlari, axborot tizimlari va ularning turli sohalarda qo'llanilishi, axborot xavfsizligi va axborotlarni himoyalash, elektron tijoratga doir bilimga;
- axborotning sintaktik, semantik va pragmatik o'lchovlari, axborot jarayonlarining apparat va dasturiy ta'minoti, operatsion

tizimlar, algoritmash va dasturlash, vizual dasturlash texnologiyalari, amaliy dasturlar bilan ishlash texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari va ularning turlari, tarmoq resurslari, axborot tizimlari, ularning mohiyati, qo'llanilishi va vazifalari, elektron hujjat aylanishi tizimi, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, zamonaviy multimedia tizimlari, axborot xavfsizligining tashkiliy va huquqiy asoslari, axborotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalaridan, elektron tijoratlardan foydalanish ko'nikmasiga;

- axborotlarga ishlov berish qurilmalari, axborot jarayonlarining dasturiy ta'minoti, operatsion tizimlar, xizmat ko'rsatuvchi dasturlar va utilitalar bilan ishlash, dasturlash tillari va vizual dasturlash orqali dastur tuzish, amaliy dasturlar bilan ishlash (matnli, elektron jadval, taqdimotlar, grafik, ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari), kompyuter tarmoqlaridan foydalanish, turli web sahifalar yaratish dasturlari bilan ishlash, elektron hujjat aylanishi tizimi, zamonaviy multimedia tizimlari imkoniyatlaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televideniya) dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

1. O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

2. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyiha-langandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish asosiy yo'nalishlaridan biri va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir. Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining asosini quyidagi uchta texnika yutug'i tashkil etadi:

1. Axborotning mashina o'qiydigan tushunchalarda jamlash muhitining paydo bo'lishi (magnit, lentalar, kinofilmlar, magnit disklar v. h.);

2. Axborotni yer sharining istalgan nuqtasiga vaqt va masofa bo'yicha muhim cheklashlarsiz yetkazishini ta'minlovchi aloqa vositalarining rivojlanishi, aholining aloqa vositalari bilan keng qamrab olinishi (radio eshittirish, televideniya, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, yo'ldosh aloqa, telefon tarmog'i v. h.);

3. Axborotni kompyuterlar yordamida berilgan algoritm bo'yicha avtomatlashtirilgan ishlab chiqish imkonini (saralash, tasniflash, kerakli shaklda ifodalash, yaratish v. h.) oshirish.

Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulyatsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- har bir odamga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan o'quvchi va talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamolotga yetkazishga intilishni shakllantirish;

- voqea va hodisalarni kompleks o'rganishni, aniq, tabiiy-ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash;

- o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy tarzda va dinamik ravishda yangilash.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. Texnik muammolar – bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron-hisoblash va mikroprotssessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, ularni amalda qo'llash xususiyatlarini belgilaydi;

2. Dastur muammolari – bular ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi;

3. Tayyorgarlik muammolari – bular o'qituvchi va o'quvchi, pedagog va talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, hisoblash texnikasidan ham foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

Ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular ko'p turli xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan bog'liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- Ta'limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va kommunikatsiya vositalari;

- Ta'lim jarayonini tashkil etish uchun unga mos tizimli va amaliy dastur ta'minoti;

- Ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv-texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar.

O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchi-talabaning emas, u eng avvalo, o'qituvchi(pedagog)ning texnologiyasidir. O'quvchi-talaba zamonaviy axborot texnologiyasini o'rganmaydi, balki uning mahsulotidan o'qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. O'qituvchi (pedagog) zamonaviy texnologiyalarni qo'llab darsga tayyorlanadi, darsni tashkil qiladi, o'quvchi-talabalar bilimni nazorat qiladi va uning vazifasi ta'lim mazmunini takomillashtirish uchun kompyuterlashtirishning eng yuqori darajasidagi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo'ladi.

Ta'limning kompyuterli (yangi axborot) texnologiyalari – bu axborotni tayyorlash va uni ta'lim oluvchiga uzatish jarayoni bo'lib, uning amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya'ni:

- o'quvchi-talabalarda axborot bilan ishlash mahoratini shakllantirish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- «axborotli jamiyat» shaxsini tayyorlash;
- Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkoni darajasidagi va yetarli miqdorda axborot bilan ta'minlash;
- o'quvchi-talabalarda tadqiqotchilik mahoratini, optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Kompyuterli texnologiya mazmuni bir qancha shakllantirilgan modelni qo'llashga asoslangan bo'lib, bu model kompyuter xotirasiga yozib qo'yilgan pedagogik dasturli vositalar va telekommunikatsiya tarmog'ining imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalish bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, hatto «multimedia» tushunchasi paydo bo'ldiki, u o'qitishda ko'pchilik texnik vositalardan kompleks foydalanishni bildiradi. Multimediani qo'llagan holda eng muhim narsa o'quvchi-talabalarni kerakli axborotni tanlab olishga o'rgatishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi (pedagog)ning vazifasi axborotni berishdan iborat emas, balki uni topishda yordam berishdan iborat bo'ladi, o'qituvchi (pedagog) bilimlar sohasida yo'l ko'rsatuvchi hamdir. Bu kabi o'qitish vositalari kompleksidan foydalanilgan holda o'quvchi-talabaga ta'sir ko'rsatish birgina axborot kanallari (ko'rish, eshitish va h.k.) orqali amalga

oshiriladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o'qituvchi (pedagog) vazifasining o'zgarishiga sabab bo'ladi, ya'ni pedagog ta'lim-tarbiya berishdan ko'ra ko'proq tadqiqotchi, tashkilotchi, maslahatchi va dasturlovchiga aylana boradi.

Ma'lumki, o'qituvchi (pedagog)larning an'anaviy o'qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishiga ko'p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o'quvchi- talabanning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq bunday mashg'ulotlar to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi – laboratoriya jihozlari yetarli darajada emasligi hamda ko'pgina laboratoriya va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan jihozlanmaganligi, mavjudlarining ham aksariyati ma'naviy eskirib qolganligi va bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmasligidadir. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o'quv yilida takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun esa qo'shimcha sarfxarajatlar qilish kerak. Boshqa yana bir muhim omil shundaki, ba'zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish yoki jarayonlarning sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta'lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o'tkazishga qiynalishadi, holbuki, ma'lum bir sohada yetarlicha ish ko'nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg'ulotlarni qayta-qayta takrorlash zarur. Afsuski, an'anaviy ish olib borish sharoitida laboratoriya moddiy ashyolari hamda moslamalarining tez-tez buzilishi va shu bilan bog'liq ashyolarga qo'shimcha sarflar qilinishi bois har doim ham bunday qilinavermaydi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'ildi, deb ayta olamiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishmoq lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman butun o'qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar

xususida o'ziga-o'zi baho berish imkonini ta'minlamog'i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi.

Bugungi kunga kelib, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida virtual stendlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Xo'sh, virtual stend deganda nimani tushunamiz? Virtual stend – o'quv amaliy stendi yoki o'quv-malaka ustaxonasi bo'lib, o'quvchi-talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Virtual stendlar har bir o'quvchi-talaba uchun texnikaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o'tkazish, uni zarur tartibda tushunish v.h. bilan bog'liq vaqtdan yo'qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi. Bunda, ayniqsa, zamonaviy jihozlar va apparatlarni xarid qilish, ularni barcha ta'lim muassasalarida taqsimlash bilan bog'liq ulkan moliya zaxiralarini tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy axborot texnologiyasi bo'lgan oddiy kompakt diskka o'nlab, ba'zan esa, yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi esa bir dona shunday virtual laboratoriya stendi necha marta arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga ta'lim muassasalarini yalpi ta'minlash mumkin. Agar ularda Internetga ulangan kompyuter tarmog'i bo'lsa, undan ham yaxshi bo'ladi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, virtual stendlar ko'proq qo'llansa, shundaysarflarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta'lim jarayonini, o'quvchi-talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o'zlashtirish sur'atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko'proq individual ravishda yordam berish;

- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o'z- o'zini takomillashtirish, ta'lim va kasbga qiziqishlari hamda intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;


- ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o'rganish;

- ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;
- barcha ta'lim muassasalarida o'qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;
- ta'lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo'li bilan takomillashtirish.

2. Axborot tushunchasi, axborotning xususiyati, axborotning asosiy tavsifi, axborotning sintaktik, semantik va pragmatik o'lchovlari

AXBOROT HAQIDA TUSHUNCHA

Inson yashaydigan dunyo turli moddiy va nomoddiy obyektlar, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro aloqa va o'zaro ta'sirlardan, ya'ni jarayonlardan tashkil topgan.



1- rasm. Ma'lumot hamda axborotning o'zaro aloqasi.

Sezish a'zolari, turli asboblari va hokazolar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari ma'lumotlar deb ataladi. Ma'lumotlar aniq vazifalarni hal etishda zarur va foydali deb topilsa — axborotga aylanadi. Demak, ma'lumotlarga u yoki bu sabablarga ko'ra foydalanilmayotgan yoki texnik vositalarda qayta ishlanilayotgan, saqlanayotgan, uzatilayotgan belgilar yoki yozib olingan kuzatuvlar sifatida qarash mumkin. Agar bu ma'lumotlardan biror narsa to'g'risidagi mavxumlikni kamaytirish uchun foydalanish imkoniyati tug'ilsa, ma'lumotlar axborotga aylanadi. Demak, amaliyotda foydali deb topilgan, ya'ni foydalanuvchining bilimlarini oshirgan ma'lumotlarnigina axborot deb atasa bo'ladi.


Inson o'z hayotida tug'ilgan kundan (ta'bir joiz bo'lsa, hatto ona qornida dastlabki paydo bo'lgan kundan) boshlab doimo ma'lumotlar bilan ish ko'radi. Ularni o'zining sezgi a'zolari orqali

qabul qiladi.

Kundalik turmushimizda biz axborot deganda atrof- muxitdan (tabiatdan yoki jamiyatdan), sezgi a'zolarimiz orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma'lumotni tushunamiz. Tabiatni kuzata turib, insonlar bilan muloqotda bo'lib, kitob va gazetalar o'qib, televizion ko'rsatuvlar ko'rib, biz axborot olamiz. Matematik olim axborotni yanada kengroq tushunadi. U axborot qatoriga fikr yuritish orqali xulosa chiqarish natijasida hosil bo'lgan bilimlarni ham kiritadi. Boshqa soha hodimlari ham axborotni o'zlaricha talqin etadilar. Shunday qilib, turli sohalarda axborot turlicha tushunilar ekan. Lekin axborotlarning umumiy tomonlari ham borki, u ham bo'lsa beshta muhim hossaga ega bo'lishligidir. Bular axborotni yaratish, qabul qilish, saqlash, ishlov berish va uzatish xossalaridir.

- 1-eshitish
- 2-ko'rish
- 3-sezish
- 4-hid bilish
- 5-ta'm bilish

2-rasm.
Axborotni sezgi
a'zolari orqali
qabul qilish.



Axborotdan foydalanish imkoniyati va samaradorligi uning representativligi, mazmundorligi, yetarliligi, aktualligi, o'z vaqtidaligi, aniqligi, ishonarliligi, barqarorligi kabi asosiy iste'mol sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir:

a) **AXBOROTNING REPREZENTATIVLIGI** — obyekt xususiyatini adekvat ifoda etish maqsadlarida uni to'g'ri tanlash va shakllantirish bilan bog'liqdir.

b) **AXBOROTNING MAZMUNDORLIGI** — semantik (mazmuniy) hajmini ifoda etadi.

v) **AXBOROTNING YETARLILIGI** (to'laligi) — qaror qabul qilish uchun minimal, lekin yetarli tarkibga (ko'rsatkichlar jamlamasiga) ega ekanligini bildiradi. To'g'ri qaror qabul qilish uchun to'liq bo'lmagan, ya'ni yetarli bo'lmagan, xuddi shuningdek, ortiqcha bo'lgan axborot ham foydalanuvchining qabul qilgan qarorlari

samaradorligini kamaytiradi.

g) **AXBOROTNING AKTUALLIGI** (dolzarbligi) — axborotdan foydalanish vaqtida uning boshqarish uchun qimmatliligi saqlanib qolishi bilan belgilanadi va uning xususiyatlari o'zgarishi dinamikasi hamda ushbu axborot paydo bo'lgan vaqtdan buyon o'tgan vaqt oralig'iga bog'liq bo'ladi.

d) **AXBOROTNING O'Z VAQTIDALIGI** — uning avvaldan belgilab qo'yilgan vazifani hal etish vaqti bilan kelishilgan vaqtdan kechikmasdan olinganligini bildiradi.

e) **AXBOROTNING ANIQLIGI** — olinayotgan axborotning obyekt, jarayon, hodisa va hokazolarning real holatiga yaqinligi darajasi bilan belgilanadi.

j) **AXBOROTNING ISHONARLILIGI** — axborotning real mavjud obyektlarni zarur aniqlik bilan ifoda etish xususiyati bilan belgilanadi.

z) **AXBOROTNING BARQARORLIGI** — axborotning asos qilib olingan ma'lumotlar aniqligini buzmasdan o'zgarishlarga ta'sir qilishga qodirligini aks ettiradi.

Axborotlashgan jamiyat haqida tushuncha

Axborotlashgan jamiyat haqida olimlar turlicha fikr yuritadilar. Masalan, yapon olimlarining hisoblashicha, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbaidan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Jamiyatni rivojlantirishda esa harakatlantiruvchi kuch moddiy mahsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo'lmog'i lozim.

Axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o'zgaradi. Barcha harakatlar tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol etishga yo'naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqariladi va iste'mol etiladiki, bu hol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladi, bilimlarga ehtiyoj oshadi.



3-rasm. Axborot xossalari.

Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi.

Axborotlashgan jamiyat — jamiyatning ko‘pchilik a‘zolari axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo‘lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyatdir.

Axborotlashgan jamiyatga o‘tishda kompyuter va telekommunikatsiya axborot texnologiyalari negizida yangi axborotni qayta ishlash sanoati yuzaga keladi.

Hozirgi paytda shu narsa ravshan bo‘lib qolmoqdaki, u yoki bu mamlakat XXI asrda munosib o‘rin egallashi va boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy musobaqada teng qatnashishi uchun o‘z iqtisodiy tuzilishi, ustuvorliklari, boyliklari, institutlarini qayta ko‘rishi va sanoatini axborot tizimlari talablariga moslashtirishi lozim.


Axborotni turli - tuman ko‘rinishlari bo‘lib, ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- raqamli axborot,

- matnli axborot;
- grafikli axborot;
- tovushli axborot;
- video - lavhali axborot.

Insonning imkoniyatlari ma'lum ma'noda cheklangan, katta miqdordagi axborotlarni bir vaqtda qabul qilish, jamlash, ularni qayta ishlash, saqlash va zaruriyat tug'ilganda uzatishga qodir emas. Bunday hollarda inson texnika vositalaridan, ya'ni axborot - kommunikatsiya texnologiyalari, aloqa vositalari, ommaviy axborot vositalaridan foydalanib axborotli jarayonni amalga oshirishga intiladi.

Axborotli jarayonni amalga oshirishning umumiy sxemasini taxminan quyidagicha ifodalash mumkin:



Axborot o'lchovlari. Axborotni o'lchash uchun o'ziga xos axborot miqdoriga va qiymatlar hajmiga ega bo'lgan ikki ko'rsatkich kiritilgan: axborot miqdori I va qiymatlar hajmi V .

Axborotning sintaktik o'lchovi. Qiymatlar hajmi V xabarda belgilar (razryad) soni bilan o'lchanadi. Turli sanoq tizimlarida bir razryad turlicha uzunlikka ega bo'lganligi sababli ularning qiymat o'lchov birliklari ham o'zgaradi:

- ikkilik sanoq tizimida o'lchov birligi - bit (ikki razryad) (axborotni o'lchov birligi sifatida, ya'ni 8 bitdan iborat bo'lgan "bayt" o'lchov birligi ishlatiladi);
- o'nlik sanoq tizimida o'lchov birligi - dit (o'nlik razryad).

Axborot miqdori I ni tizim holatining noaniqlik tushunchasi (tizim entropiyasi)ni ko'rib chiqmasdan aniqlab bo'lmaydi. Xabarning ixchamlik koeffitsienti (darajasi) Y quyidagi ifoda bilan ko'rsatiladi:

$$Y = I/V, \text{ bu yerda } 0 < Y < 1.$$

Axborotning semantik o'lchovi. Axborot ma'nosining mazmuni yoki axborotning miqdorini semantik darajada o'lchash uchun tezaurus o'lchovidan foydalaniladi. Bu o'lchov axborotning semantik xususiyatlarini foydalanuvchining kelgan xabarni qabul qilish qobiliyati bilan bog'laydi. Buning uchun foydalanuvchi tezaurus tushunchasi ishlatiladi.

Tezaurus - foydalanuvchi yoki tizim ega bo'lgan xabarlar to'plamidir.

Axborotning pragmatik o'lchovi. Bu o'lchov birlik foydalanuvchi qo'ygan maqsadni egallash uchun kerak bo'lgan axborotning yaroqliligi bilan ifodalanadi. Pragmatik o'lchov ham nisbiy bo'lib, u axborotni qaysi tizimda ishlatishga bog'liqdir.

Kompyuter ishlov beradigan barcha ma'lumotlar elementlar "G'ishtchalar", ya'ni 0 va 1 raqamlardan (bitlardan) tuziladi. Shundan so'ng quyidagi zanjir hosil bo'ladi:

bit-bayt-fayl-katalog-mantiqiy disk

Bit-axborotning eng kichik o'lchov birligi bo'lib, (ingliz tilida-binary digit so'zlaridan olingan va "ikkilik raqami" degan ma'noni anglatadi) 0 yoki 1 raqami beradigan axborotni bildiradi. Bitning qiymatini o'chirilgan - yoqilgan, yo'q - ha, yolg'on - rost kabi talqin etish mumkin.

Kompyuter aniq bitlar bilan alohida juda kam hollarda ish ko'radi. Odatda kompyuter 8 bitdan iborat 0 va 1 raqamlari kombinatsiyasi bilan ishlaydi. Bu kombinatsiyalar bayt deb ataladi, ya'ni 1 bayt=8 bit.

Kompyuterning barcha ishlari - bu, baytlar to'plamini boshqarishdir. Baytlar kompyuterga klaviatura yoki disklardan (yoki alohida liniyalar orqali) kelib tushadi. Shundan so'ng dasturning buyruqlari (operatorlari) bo'yicha baytlarga ishlov beriladi. Ular vaqtincha saqlab turiladi yoki doimiy saqlash uchun yozib qo'yiladi. Zarur bo'lsa displey ekraniga yoki chop etish qurilmasidagi qog'ozga chiqariladi.

3. Ma'lumotlarni kodlash, kompyuterning ishlash prinsiplari

Analog axborot bilan raqamli axborotning asosiy farqi shundaki, analog axborot uzluksiz, raqamli axborot esa uzlukli (diskret) dir.

Inson tomonidan yaratilgan qurilmalar ichida analog axborotlar bilan ishlaydiganlari ham raqamli axborotlar bilan ishlaydiganlari ham mavjud.

Analog qurilmalarga televizor, telefon, raqamli qurilmalarga shaxsiy kompyuterni misol qilish mumkin. Hozirda raqamli televizor va raqamli telefonlar hayotimizdan keng o'rin olmoqda.

Biz axborotlarni turli-tuman signallar holatida qabul qilamiz. Signallarning turli-tumanligi axborotlarni qayta ishlash jarayonini

murakkablashtiradi. Shuning uchun ham axborotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlashni osonlashtirish maqsadida ular bir xil shaklga keltiriladi, ya'ni qayta ishlash uchun qulay bo'lgan belgilar bilan almashtiriladi. Bu jarayon **axborotlarni kodlash** deyiladi. Hayotda axborotni kodlashning ko'pdan ko'p usullari mavjud. Ularga Morze va harflarni raqamlash usullarini kiritish mumkin (quyida kengroq yoritilgan).

Kompyuter raqamlarning o'zini emas, balki shu raqamlarni ifodalovchi signallarni farqlaydi. Bunda raqamlar signalning ikki qiymati bilan (magnitlangan yoki magnitlanmagan; ulangan yoki ulanmagan; xa yoki yo'q va h.k.) ifodalanadi. Bu holatning birinchisini 0 raqami bilan, ikkinchisini esa 1 raqami bilan belgilash qabul qilingan bo'lib, axborotni ikkita belgi yordamida kodlash nomini olgan. Bu usul qisqacha qilib, **ikkilik kodlash** deb ham ataladi.

Bunda har bir raqam, alifbodagi harflar va belgilar jahon andozalaridagi kodlash jadvali - ASCII (American Standard Code for Information Interchange) jadvali yordamida ikkilik belgilar ketma-ketligida ifodalanadi.

Kodlash usullari ikkita - tekis va notekis turda bo'lishi mumkin. Tekis usullarda bir xil hajmdagi belgilardan foydalanilsa, notekis usulda belgilar turli hajmdagi belgilarni o'z ichiga oladi. Kodlashning notekis usuliga Morze alifbosi misol bo'la oladi, chunki unda har bir harf va raqamga uzun va qisqa signallarning ikkilik ketma-ketligi mos keladi. Masalan, E harfiga birgina nuqta mos kelsa, O harfi uchun uchta tire mos keladi. Bunday usul bilan axborotlarni uzatish mumkin bo'lsada, ularni qayta ishlash katta muammoli vazifadir. Shuning uchun ham axborotlarni qayta ishlash vositasi hisoblanmish kompyuterda kodlash usullaridan foydalaniladi.

Kompyuter ishlov beradigan barcha ma'lumotlar elementlari «g'ishtchalar», ya'ni 0 va 1 raqamlardan (bitlar) dan tuziladi. Shundan so'ng quyidagi zanjir hosil bo'ladi:

BIT-BAYT-FAYL-KATALOG- MANTIQUIY DISK

BIT — axborotning eng kichik o'lchov birligi bo'lib, 0 yoki 1 raqami beradigan axborotni bildiradi. Bitning qiymatini o'chirilgan-yoqilgan, yo'q-ha, yolg'on- rost alternativlari kabi talqin etish mumkin.

Kompyuter konkret bitlar bilan alohida juda kam hollarda ish ko'radi. Odatda kompyuter sakkiz bitdan iborat 0 va 1 raqamlari

kombinatsiyasi bilan ishlaydi. Bu kombinatsiyalar **bayt** deb ataladi.

Kompyuterning barcha ishlari — bu, baytlar to‘plamini boshqarishdir. Baytlar kompyuterga klaviatura yoki disklardan (yoki alohida liniyalar orqali) kelib tushadi. Shundan so‘ng dasturning buyrug‘i (operatorlari) bo‘yicha baytlarga ishlov beriladi. Ular vaqtincha saqlab turiladi yoki doimiy saqlash uchun yozib qo‘yiladi. Zarur bo‘lsa displey ekraniga yoki chop etish qurilmasidagi qog‘ozga chiqariladi.

Baytlarning katta to‘plamlari uchun kattaroq o‘lchov birliklari ishlatiladi.

1 Kbayt (kilobayt) = 1024 bayt

1 Mbayt (megabayt) = 1024 Kbayt = 1048576 bayt

1 Gbayt (gigabayt) = 1024 Mbayt

Ko‘p tarqalgan kengaytmalar quyidagilardir:

a) BAT — buyruqli fayl.

b) BAK — faylning sug‘urta nusxasi.

v) BAS — beysik tilidagi dastur matni.

g) PAS — paskal tilidagi dastur matni.

d) DBF — ma’lumotlar bazasining operativ fayli.

Kataloglar, fayllarning to‘la ro‘yxati o‘zak katalogning mundarijasi deyiladi va shu katalogda birinchi darajali kataloglar va alohida fayllar qayd etiladi.

Kompyuter bu insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. Bu kashfiyot insoniyat taraqqiyotida keskin ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Hozirgi kunda kompyuter jamiyatning barcha sohalarida qo‘llanilmoqda. O‘quvchilar, talabalar, turli mutaxassislar, tadbirkorlar, olimlar, ijodkorlar kundalik faoliyatida kompyuterlardan foydalanmoqda. Bugun kompyuterda hisoblash, yozish, o‘qish, o‘rganish, gapirish, saqlash, chizish, qayta ishlash, saralash, musiqa yozish, axborot topish va o‘qish, tahrirlash, maketlar tayyorlash, audio va video yaratish, o‘ynash mumkin. Shuning uchun kompyuter insonning ishda, o‘qishda, uyda va hatto dam olishda eng ishonchli do‘stiga aylandi.

Kompyuter ochiq arxitekturaga ega va u modullardan tashkil etadi. Foydalanuvchi mustaqil ravishda kompyuterning blokli tartibini o‘zgartirish imkoniyatiga ega. Blokli modullar protsessorning maxsus qabul qilish va yuborish moslamasi —shina yordamida bog‘lanadi. Shina yordamida sistema boshqariladi, ma’lumotlar almashinadi va shuning uchun ham u–sistema shinasi deb nomlanadi. Kompyuter

bloklarini o'zaro ulash uchun maxsus birlashtirish tirqishlari (raz'yomlar) mavjud. Ularda sistemali shina ning signallari mavjud va shuning uchun ham ular –sistemali ajratgich deb nomlanadi. Ular sistemaning asosiy elementi –sistemali platada joylashgan.

Keling ARM dagi kompyuter tuzilishi bilan tanishaylik. Kompyuter quyidagilardan tashkil topadi:

- Protssessor
- Monitor
- Klaviatura



4-rasm. Shaxsiy kompyuter.

Protssessor – sistemali blok bo'lib, u kompyuter ishini ta'minlaydi va boshqaradi, shuning uchun odatda uni «kompyuter» deb ham atashadi. Unda ichki qurilmalar mavjud bo'lib, tarkibiga quyidagi qismlar kiradi: asosiy qurilma bu sistemali plata, unga barcha platalar ulanadi, operativ xotira, qattiq disk ya'ni vinchester, disk yurituvchi, DVD-ROM, tarmoq adapteri. Ushbu majmua ro'yxati kompyuter konfiguratsiyasini aniqlaydi. Har bir qism o'ziga xos ishchi xarakteristikasiga va parametrlariga ega.

Nazorat savollari:

1. Axborot nima?
2. Axborotni o'rganish bilan bog'lik masalalar noosferaning qaysi bo'limining paydo bo'lishiga olib keldi?
3. Inson axborotni qaysi a'zolari orqali qabul qiladi?
4. Axborot qanday muhim xossalarga ega?
5. Ma'lumot va axborot orasidagi farq nimadan iborat?
6. Analogli va raqamli axborotlarning farqini misolda tushuntirib bering.
7. Hisoblash texnikasi qanday axborotlar bilan ishlaydi?
8. Axborotning qanday sifat ko'rsatkichlari mavjud?
9. Informatika nimani o'rganadi?
10. Qanday jarayonlar axboriy jarayonlar deyiladi?
11. Axboriy jarayonlarga misollar toping va ularni tushuntirib bering.

2-MAVZU: OPERATSION TIZIMLAR VA ULARNING TURLARI

Reja:

1. Zamonaviy kompyuterlarning dasturiy ta'minoti.
2. Dasturiy ta'minot turlari.
3. Operatsion tizimlar. Platformalar.

Tayanch so'z va iboralar: apparat ta'minot (hardware), dasturiy ta'minot (software), interfeys, dasturiy interfeys, apparat — dasturiy interfeys, foydalanuvchi interfeysi, amaliy dasturiy ta'minot; dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalar, sistemaviy dasturiy ta'minot (sistem software).

1. ZAMONAVIY KOMPYUTERLARNING DASTURIY TA'MINOTI

Shaxsiy kompyuter ikkita tashkiliy qismlardan iborat. Bular apparat ta'minot (hardware) va dasturiy ta'minot (software)lardir.

Apparat ta'minoti — bu, birinchi navbatda kompyuterning asosiy texnik qismlari va qo'shimcha (atrof) qurilmalaridir.

Dasturiy ta'minot kompyuterning ikkinchi muhim qismi bo'lib, u ma'lumotlarga ishlov beruvchi dasturlar majmuasini va kompyuterni ishlatish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni o'z ichiga oladi. Dasturiy ta'minotsiz har qanday kompyuter bamisoli bir parcha temirga aylanib qoladi.

Kompyuterning apparat va dasturiy ta'minoti orasida bog'lanish qanday amalga oshiriladi? Avvalo ular orasidagi bog'lanish **INTERFEYS** deb atalishini bilib olishimiz lozim. Kompyuterning turli texnik qismlari orasidagi o'zaro bog'lanish — bu, apparat interfeysi, dasturlar orasidagi o'zaro bog'lanish esa — **DASTURIY INTERFEYS**, apparat qismlari va dasturlar orasidagi o'zaro bog'lanish — **APPARAT — DASTURIY INTERFEYS** deyiladi.

Shaxsiy kompyuterlar haqida gap ketganda kompyuter tizimi bilan ishlashda uchinchi ishtirokchini, ya'ni insonni (foydalanuvchini) ham nazarda tutish lozim. Inson kompyuterning ham apparat, ham dasturiy vositalari bilan muloqotda bo'ladi. Insonning dastur bilan va dasturni inson bilan o'zaro muloqoti — **FOYDALANUVCHI INTERFEYSI** deyiladi.

Endi kompyuterning dasturiy ta'minoti bilan tanishib chiqaylik.

Barcha dasturiy ta'minotlarni uchta kategoriya bo'yicha tasniflash mumkin:

— **SISTEMAVIY DASTURIY TA'MINOT;**

— **AMALIY DASTURIY TA'MINOT;**

— **DASTURLASH TEXNOLOGIYASINING USKUNAVIY VOSITALARI.**

SISTEMAVIY DASTURIY TA'MINOT (SYSTEM SOFTWARE) -kompyuterning va kompyuter tarmoqlarining ishini ta'minlovchi dasturlar majmuasidir.

AMALIY DASTURIY TA'MINOT (APPLICATION PROGRAM PACKAGE) - bu aniq bir predmet sohasi bo'yicha ma'lum bir masalalar sinfini yechishga mo'ljallangan dasturlar majmuasidir.

DASTURLASH TEXNOLOGIYASINING USKUNAVIY VOSITALARI -yangi dasturlarni ishlab chiqish jarayonida qo'llaniladigan maxsus dasturlar majmuasidan iborat vositalardir. Bu vositalar dasturchining uskunaviy vositalari bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ular dasturlarni ishlab chiqish (shu jumladan, avtomatik ravishda ham), saqlash va joriy etishga mo'ljallangan.

DASTURIY TA'MINOT TURLARI

Sistemaviy dasturiy ta'minot. Sistemaviy dasturiy ta'minot (SDT) quyidagilarni bajarishga qaratilgan:

— kompyuterning va kompyuterlar tarmog'ining ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash;

— kompyuter va kompyuterlar tarmog'i apparat qismining ishini tashkil qilish va profilaktika ishlarini bajarish.

Sistemaviy dasturiy ta'minot ikkita tarkibiy qismdan — **asosiy (bazaviy) dasturiy ta'minot va yordamchi** (xizmat ko'rsatuvchi) dasturiy ta'minotdan iborat. Asosiy dasturiy ta'minot kompyuter bilan birgalikda yetkazib berilsa, xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minot alohida, qo'shimcha tarzda olinishi mumkin.


ASOSIY DASTURIY TA'MINOT (BAZE SOFTWARE) - bu, kompyuter ishini ta'minlovchi dasturlarining minimal to'plamidan iborat. Ularga quyidagilar kiradi:

— **OPERATSION TIZIM (OT);**

— **TARMOQ OPERATSION TIZIMI.**

— **YORDAMCHI (XIZMAT KO'RSATUVCHI) DASTURIY TA'MINOT** asosiy dasturiy ta'minot imkoniyatlarini kengaytiruvchi

va foydalanuvchining ish muhitini (interfeysni) qulayroq tashkil etuvchi dasturlar kiradi. Bular tashxis qiluvchi, kompyuterning ishchanligini oshiruvchi, antivirus, tarmoq ishini ta'minlovchi va boshqa dasturlardir. Shunday qilib, sistemaviy dasturiy ta'minotni sxematik ravishda quyidagicha tasvirlash mumkin.



5-rasm. Sistemaviy dasturiy ta'minotning sxematik ko'rinishi.

OPERATSION TIZIMLAR. PLATFORMALAR

Operatsion tizim (OT). Kompyuterning yoqilishi bilan ishga tushuvchi ushbu dastur kompyuterni va uning resurslarini (tezkor xotira, diskdagi o'rinlar va hokazo) boshqaradi, foydalanuvchi bilan muloqotni tashkil etadi, bajarish uchun boshqa dasturlarni (amaliy dasturlarni) ishga tushiradi.

OT foydalanuvchi va amaliy dasturlar uchun kompyuter qurilmalari bilan qulay muloqotni (interfeysni) ta'minlaydi.

DRAYVERLAR. Ular OT imkoniyatlarini kengaytiradi. Jumladan, kompyuterning kiritish — chiqarish qurilmalari (klaviatura, sichqoncha, printerlar va boshqalar)ni boshqarishda yordam beradi. Drayverlar yordamida kompyuterga yangi qurilmalarni ulash yoki mavjud qurilmalardan nostandart ravishda foydalanish mumkin.

Hozirgi davrda ko'plab OTlar mavjud:

— **UNIX;**

- **MS DOS;**
- **OS/2;**
- **WINDOWS;**
- va h/k

Birinchi shaxsiy kompyuterlar OT ga ega emas edilar. Kompyuter tarmoqqa ulanishi bilan protsessor doimiy xotiraga murojaat etar edi. Ularda murakkab bo'lmagan dasturlash tili, masalan, beysik yoki shunga o'xshash tilni qo'llovchi, ya'ni uni tushunib, unda yozilgan dastur bilan ishlay oluvchi maxsus dastur yozilgan bo'lar edi. Ushbu til buyruqlarini o'rganish uchun bir necha soat kifoya qilar, so'ngra kompyuterga uncha murakkab bo'lmagan dasturlarni kiritish va ular bilan ishlash mumkin bo'lar edi. Kompyuterga magnitofon ulangach, chet dasturni ham yuklash imkoniyati yaratildi. Buning uchun bitta, **LOAD** buyrug'i kifoya edi, xolos. Kompyuterga disk yurituvchilar ulanishi bilan **OT**ga bo'lgan zaruriyat paydo bo'ladi. Disk yurituvchi magnitofondan shunisi bilan farq qiladiki, bu qurilmaga erkin murojaat etish mumkin. Diskdagi dasturlarni faqat nomi orqali yuklash imkonini beruvchi operatsion tizim ishlab chiqildi va u **DISK OPERATSION TIZIMI (DOT)** deb nom oldi.

DOT nafaqat diskdagi fayllarni yuklash, balki xotiradagi fayllarni diskka yozish, ikkita faylni bitta sektorga tushishining oldini olish, kerak bo'lgan paytda fayllarni o'chirib tashlash, fayllarni bir diskdan ikkinchisiga ko'chirish (nusxa olish) kabi ishlarni ham bajara oladi. Umuman olganda, **DOT** foydalanuvchini alohida qog'ozlarda ko'plab yozuvlarni saqlashdan xalos etdi, disk yurituvchilar bilan ishlashni soddalashtirdi va xatolar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.

OTlarning keyingi rivojlanishi apparat ta'minotining rivojlanishi bilan parallel bordi. Egiluvchan disklar uchun yangi disk yurituvchilar paydo bo'lishi bilan **OT**lar ham o'zgardi. Qattiq disklarning yaratilishi bilan, ularda o'nlab emas, balki yuzlab, xatto minglab fayllarni saqlash imkoniyati yaratildi. Shu sababli fayllar nomida ham anglashilmovchiliklar paydo bo'la boshladi. Ana shunda **DOT**lar ham ancha murakkablashdi. Ularga disklarni kataloglarga bo'luvchi va ushbu kataloglarga xizmat ko'rsatuvchi vositalar (kataloglar orasida fayllarni ko'chirish va nusxa olish, fayllarni saralash va boshqalar) kiritildi. Shunday qilib, disklarda faylli struktura paydo bo'ldi. Uni

tashkil etish va unga xizmat ko'rsatish vazifasi esa **OT**ga yuklanadi. Qattiq disklar yanada katta o'lchamlarga ega bo'lishi bilan **OT** ularni bir nechta mantiqiy diskarga bo'lishni ham «o'rganib» oldi.

Har bir yangi paydo bo'layotgan **OT** kompyuterning tezkor xotirasidan yanada yaxshi, unumliroq foydalana oladi va yanada quvvatli protsessorlar bilan ishlay oladi. 1981 yildan 1995 yilgacha **IBM PC** kompyuterlarni asosiy operatsion tizimi **MS DOS** edi. Shu yillar ichida u **MS DOS 22** versiyasigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi.


MS DOS foydalanuvchi bilan kompyuterning apparat ta'minoti o'rtasidagi «vositachi» bo'lib xizmat qildi. Shuning bilan birga u insonga qaraganda kompyuterga yaqinroqdir. Kompyuterni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'pgina ishlar ham **MS DOS** da bajarilar edi.

WINDOWS 95, WINDOWS 98, WINDOWS XP2 lar grafik interfeysli **OT**lar hisoblanadi, chunki ular foydalanuvchi bilan grafik tasvirlar (yorliqlar, belgilar) yordamida muloqot qilish imkonini beradilar. **TARMOQ OT**. Tarmoqqa ulangan kompyuterlarni yakka hol va birgalikda ishlashini ta'minlovchi maxsus dasturlar majmuasidan iborat. **OT—TARMOQ OPERATSION TIZIMI** deb ataladi. Ushbu **OT**, jumladan, tarmoq ichra ma'lumotlarni ayirboshlash, saqlash, qayta ishlash, uzatish kabi xizmatlarni ko'rsatadi.

Asosiy dasturiy ta'minotni qo'shimcha ravishda o'rnatiladigan xizmat ko'rsatuvchi dasturlar to'plami to'ldirib turadi. Bunday dasturlarni ko'pincha utilitlar deb atashadi.

UTILITLAR — bu, ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'shimcha operatsiyalarni bajarishga yoki kompyuterga xizmat ko'rsatishga (tashxis, apparat va dasturiy vositalarni testlash, diskdan foydalanishni optimallashtirish va boshqalar) mo'ljallangan dasturlardir.

Axborotlarni muhofaza qilishning dasturiy vositalari axborotlar xavfsizligini ta‘minlashga mo‘ljallangan va kompyuter vositalarining dasturiy ta‘minoti tarkibiga kiritilgan maxsus dasturlardir. Kompyuter viruslaridan va boshqa dasturlar tasiridan va o‘zgartirishlardan himoyalash, kompyuter tizimlarida axborotlarni qayta ishlash jarayonini himoyalashning mustaqil yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu xavfga yetarlicha baho bermaslik foydalanuvchilarning axborotlar uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tarmoqning xavfsizligi undagi barcha kompyuterlarning va tarmoq qurilmalarning xavfsizligi bilan aniqlanadi. Buzg‘unchi

tarmoqning biror-bir tashkil etuvchisining ishini buzish orqali butun tarmoqni obro'sizlantirishi mumkin.

Hamma foydalanayotgan tarmoqdan kelib chiqayotgan tahdidlarni blokirovkalash uchun «tarmoqlararo ekran» (Firewall) deb nomlanuvchi dasturiy va apparat-dasturiy vositalardan foydalaniladi.

2. FOYDALANISH HUQUQINI CHEKLASHNING USULLARI VA VOSITALARI

Axborotlarni himoyalashning apparat vositalariga, kompyuterning texnik vositalariga taalluqli bo'lsa, axborot xavfsizligini taminlashning ayrim funksiyalarini mustaqil ravishda yoki dasturiy vositalar bilan bir majmua tarkibida bajaradigan elektron va elektron-mexanik moslamalar kiritiladi. Bunday qurilmalarni ma'lumotlarni himoyalashning injener-texnik vositalariga emas, balki apparat vositalariga kiritishning asosiy sharti, ularni kompyuterning texnik vositalari tarkibida kiritilishi bilan belgilanadi.

Axborotlarni muhofaza qilishning asosiy apparat vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- foydalanuvchini identifikatsiyalovchi ma'lumotlarni kiritish qurilmalari (magnit va plastik kartalar, barmoq izlari va boshqalar); - ma'lumotlarni shifrllovchi qurilmalar;

- ish stansiyalari va serverlarga noqonuniy ulanib olishga xalaqit beruvchi qurilmalar (elektron qulflar va blokirlatorlar).

Ma'lumotlarni muhofaza qilishning yordamchi apparat vositalariga quyidagilar misol bo'la oladi:

- magnitli tashuvchilardagi ma'lumotlarni yo'q qiluvchi qurilmalar;
- kompyuter vositalaridan foydalanuvchilarining noqonuniy harakatlari bo'yicha xabardor qiluvchi (signalizatsiya beruvchi) qurilmalar va boshqalar.

Axborotlarni muhofaza qilishning dasturiy vositalari deganda, faqatgina axborotlar xavfsizligini taminlashga mo'ljallangan va kompyuter vositalarining dasturiy ta'minoti tarkibiga kiritilgan maxsus dasturlar tushuniladi.

Axborotlarni muhofaza qilishning asosiy dasturiy vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kompyuter tizimlarida foydalanuvchilarni identifikatsiyalovchi va autentifikatsiyalovchi dasturlar;

- kompyuter tizimlari resurslaridan foydalanuvchilarning huquqlarini cheklovchi dasturlar; - axborotlarni shifrllovchi dasturlar;

- axborot resurslarini (tizimli va amaliy dasturiy ta'minotni, ma'lumotlar bazalarini, ta'limning kompyuter tizimlarini va hokazo) noqonuniy o'zgartirishlardan foydalanishlardan va ko'paytirishlardan himoyalovchi dasturlar.

Kompyuter tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashga taalluqli manoda identifikatsiyalash atamasi kompyuter tizimlari subyektining unikal nomini bir qiymatli tanib olishini bildiradi. Autentifikatsiyalash esa taqdim etilgan nomni ushbu subyektga mosligini tasdiqlashni anglatadi.

Axborotlarni muhofaza qilishning yordamchi dasturiy vositalariga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

- qoldiq axborotlarni (tezkor xotira blokidagi, vaqtinchalik fayllardagi va hokazo) yo'q qiluvchi dasturlar;
- kompyuter tizimlarining xavfsizligi tizimlariga bog'liq bo'lgan turli voqea va hodisalarni tiklash hamda shunday voqea va hodisalar ro'y berganini isbotlash uchun foydalaniladigan audit dasturlari;
- qoidabuzar bilan ishlashni imitatsiyalovchi dasturlar;
- kompyuter tizimlarining himoyalanganligini sinovdan o'tkazuvchi nazorat dasturlar va boshqalar.

Axborotlarni muhofaza qilishning dasturiy vositalarining afzalliklariga quyidagilar kiradi: - ko'paytirishning osonligi;

- moslanuvchanlik;
- qo'llashning qulayligi - bir xil dasturlar, masalan, shifrllovchi dasturlar "shaffof"

(foydalanuvchiga ko'rinmaydigan) rejimda ishlaydi. boshqalari foydalanuvchidan hech qanday qo'shimcha yangi ko'nikmalar talab qilmaydi;

- ularni axborot xavfsizligiga yangi tahdidlar hisobini yuritish uchun o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan takomillashuvining amaldagi chekchegarasiz imkoniyatlari mavjudligi.

Axborotlarni muhofaza qilishning dasturiy vositalarining kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

- himoyalovchi dasturlarning faoliyati kompyuter tizimlari resurslaridan foydalanish hisobiga bo'lgani uchun bu tizimlar samaradorligining susayishi;
- juda past unumdorlik (xuddi shunday vazifani bajarayotgan apparat vositalar bilan taqqoslaganda, masalan shifrllovchi qurilma);
- axborotlarni himoyalovchi ko'pgina dasturiy vositalarning kompyuter dasturiy ta'minotiga bevosita o'rnatilmagani, bu holat

qoidabuzarning ushbu dasturlarni chetlab o'tishiga prinsipial imkoniyatlar yaratadi;

- kompyuter tizimlaridan foydalanish jarayonida axborotlarni himoyalashning dasturiy vositalarini qasddan o'zgartirish imkoniyati.

Kompyuter tizimlaridan foydalanish huquqini cheklashning usul va vositalari. Axborot xavfsizligini ta'inlashning asosiy konsepsiyasini turli aloqa va xavfsizlikni ta'minlash tizimlari, umumiy texnik vositalar, aloqa kanallari, dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalariga ega yagona tizimga integrasiyasiga asoslangan kompleks yondashuv tashkil etadi.

Obyektning axborot xavfsizligini ta'minlash tizimining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompyuter tizimlari uchun ushbu samaradorlikni, hisoblash tizimida qo'llanilayotgan apparat-dasturiy vositalarini tanlanganligi bilan baholash mumkin.

Foydalanuvchilar, operatorlar, administratorlarga qurilmadan foydalanishga ruxsat berishni tashkil etishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- ruxsat olayotgan sub'yektni identifikatsiyalash va autentifikatsiyalash;
- qurilmani blokirovkadan chiqarish;
- ruxsat berilgan subyektning harakatlarini hisobga olish jurnalini yuritish.

Ruxsat etilgan sub'yektni identifikatsiyalash uchun kompyuter tizimlarida ko'p hollarda atributivli identifikatorlardan foydalaniladi. Biometrik identifikatsiyalashning oson yo'li - klaviaturada ishlash ritmi orqali aniqlashdir. Atributivli indentifikatorlar ichidan, odatda, quyidagilardan foydalaniladi:

- parollar;
- yechib olinadigan axborot tashuvchilar;
- elektron jetonlar;
- plastik kartochkalar; - mexanik kalitlar.

Konfedensial ma'lumotlar bilan ishlaydigan deyarli barcha kompyuterlarda foydalanuvchilarni autentifikatsiyalash parollar yordamida amalga oshiriladi.

Parol - bu simvollar (harflar, raqamlar, maxsus belgilar) kombinationsiyasi bo'lib, uni faqat parol egasi bilishi kerak. Ayrim hollarda xavfsizlik tizimi ma'muriga ham malum bo'ladi.

Kompyuterning zamonaviy operatsion tizimlarida paroldan foydalanish o'rnatilgan. Parol xeshlangan holatda kompyuterning qattiq diskida saqlanadi.

Kompyuter tizimlari qurilmalaridan foydalanishga ruxsatni masofadan turib boshqarish mumkin. Masalan: lokal tarmoqlarda ishchi stansiyaning tarmoqqa ulanishini administrator ish joyidan turib blokirovka qilishi mumkin. Qurilmalardan foydalanishga ruxsat etishni tok manbaini uzib qo'yish orqali ham samarali boshqarish mumkin. Bunda ishdan boshqa vaqtlarda, tok manbai qo'riqlash xizmati tomonidan nazorat qilinadigan kommutatsiyali qurilmalar yordamida uzib qo'yiladi.

3. DASTURLARNI O'ZGARTIRISHLARDAN HIMOYALASH VA BUTUNLIKNING NAZORATI

Kompyuter viruslari va boshqa dasturlari tasiridan va o'zgartirishlardan himoyalash, kompyuter tizimlarida axborotlarni qayta ishlash jarayonini himoyalashning mustaqil yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Ushbu xavfga yetarlicha baho bermaslik foydalanuvchilarning axborotlari uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Viruslarning ta'sir mexanizmlarini, ularga qarshi kurash usullari va vositalarini bilish viruslanishga qarshi harakatlarni samarali tashkil etish, ularning ta'siridan zararlanish ehtimolligini va talofatlarni minimumga keltirish imkonini beradi.

Kompyuter viruslari - bu KTda tarqalish va o'zini o'zi ishlab chiqish xususiyatiga ega bo'lgan kichik hajmdagi bajariluvchi dasturlar. Viruslar KTda saqlanayotgan dasturiy vositalar yoki ma'lumotlarni yo'q qilishi yoki o'chirib yuborishi mumkin. Tarqalish jarayonida viruslar o'zini modifikatsiyalashi mumkin.

Viruslarning ommaviy tarqalib ketishi va ularning KT resurslariga ta'siri oqibatlarining jiddiyligi, maxsus antivirus vositalarini va ularni qo'llash usullarini yaratish va foydalanish zaruriyatini keltirib chiqardi. Antivirus vositalari quyidagi masalalarni hal etish uchun qo'llaniladi: - KTda viruslarni topish:

- virus dasturlar ishini blokirovka qilish;
- viruslar ta'sirining oqibatlarini bartaraf qilish.

Viruslarni topishni, ularni joylashib olish bosqichida yoki hech bo'lmaganda virusning buzg'unchilik funksiyalarini boshlagunga qadar amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shuni takidlash joizki,

barcha turdagi viruslarni topishni kafolatlovchi antivirus vositalar mavjud emas.

4. MA'LUMOTLARNI UZATISH TARMOG'IDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING APPARAT-DASTURIY VOSITALARI

Tarmoq texnologiyasining keng ko'lamda qo'llanilishi natijasida umumiy resurslardan foydalanish imkonini beruvchi lokal tarmoqqa kompyuterlar birlashtirildi. Kliyent-server texnologiyasining tatbiq etilishi esa bu tarmoqni taqsimlangan hisoblash muhitiga aylantirdi. Tarmoqning xavfsizligi undagi barcha kompyuterlarning va tarmoq qurilmalarining xavfsizligi bilan aniqlanadi. Buzg'unchi tarmoqning biror-bir tashkil etuvchisining ishini buzish orqali butun tarmoqni obro'sizlantirishi mumkin.

Zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalari lokal tarmoqlarni global tarmoqqa - Internetga ulash imkonini berdi. Internetning rivojlanishi xavfsizlikni taminlashni dolzarb masalaga aylantirdi va Internetga ulangan tarmoq va tizimlarda qanday ma'lumotlarga ishlov berilishidan qat'iy nazar, xavfsizlik vositalari bo'lishini taqozo etadi. Chunki, Internetning imkoniyatlaridan foydalanib, buzg'unchi xavfsizlikni buzishni global masshtabda olib borishi mumkin. Internetga ulangan kompyuter tajovuz obyekti bo'lsa, hujumni amalga oshirayotgan shaxsga uning qayerda joylashgani katta ahamiyatga ega emas.

Hamma foydalanayotgan tarmoqdan kelib chiqayotgan tahdidlarni blokirovkalash uchun «tarmoqlararo ekran» (Firewall) deb nomlanuvchi dasturiy va apparat-dasturiy vositalardan foydalaniladi. Odatda, alohida ajratilgan va himoyalangan KT «tarmoqlararo ekran» orqali hamma foydalanadigan tarmoqqa ulanadi.

Tarmoqlararo ekran himoyalangan KTga kelib tushayotgan va undan chiqib ketayotgan axborotlarni nazorat qilish uchun qo'llaniladi.

Tarmoqlararo ekran quyidagi to'rtta funksiyani bajaradi:

- ma'lumotlarni filtrlash;
- ekranlovchi agentlardan foydalanish; – manzillarni translatsiyalash;
- hodisalarni qayd qilish.

Tarmoqlararo ekranning asosiy vazifasi trafikni filtrlashdan iborat. Korporativ tarmoqning humoyalanganlik darajasiga qarab filtrlashning turli qoidalari o'rnatilishi mumkin. Filtrlash qoidalari filtrlar ketma-ketligini tanlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu filtrlar

o'zidan keyingi filtrga yoki protokol sathiga ma'lumotlarni uzatilishiga ruxsat beradi yoki taqiqlaydi.

Tarmoqlararo ekran filtrlashni kanallar, tarmoqlar, transport va amaliy sathlarda amalga oshiradi. Ekran qancha ko'p sathni o'z ichiga olsa, shuncha takomillashgan hisoblanadi.

Tarmoqlararo ekranda, dasturiy vositachi vazifani bajaruvchi va sub'yekt va ob'yekt orasida ulanishni taminlovchi, so'ngra axborotni qayd qilish va nazoratini amalga oshirib jo'natuvchi, ekranlovchi agentlardan foydalaniladi. Ekranlovchi agentlarning qo'shimcha vazifasi foydalanishga ruxsat berilgan subyektdan haqiqiy obyektni yashirishdan iborat. Ekranlovchi agentlarning o'zaro aloqa ishtirokchilariga ta'siri yo'q.

Tarmoqlararo ekranning manzillarini translatsiyalash funksiyasi haqiqiy ichki manzillarni tashqi abonentlardan yashirish uchun mo'ljallangan. Bu tarmoq topologiyasini yashirish va agar himoyalangan tarmoq uchun yetarli miqdorda manzillar ajratilmagan bo'lsa, yanada ko'proq sondagi manzillardan foydalanishga imkon yaratadi.

Tarmoqlararo ekran maxsus jurnallarda hodisalarni qayd qilib boradi. Biror aniq talab bo'yicha ekranni sozlash orqali jurnallarni yuritish imkoniyati nazarda tutilgan. Yozuvlar tahlili o'rnatilgan qoidalarni buzishga bo'lgan buzg'unchilarning urinishlarini qayd qilish va ularni aniqlash imkonini beradi.

Ekran simmetrik emas. U «tashqi» va «ichki» tushunchalarini farqlay oladi. Ekran ichki sohani nazoratsiz va adovatli bo'lgan tashqi muhitdan himoyasini ta'minlab beradi. Shu bilan birga ekran himoyalangan tarmoq sub'yektlari tomonidan ommaviy tarmoq ob'yektlaridan foydalanishni cheklashni ham taminlaydi. Foydalanishga ruxsat berilgan sub'yektning vakolatlari buzilgan holatda uning ish faoliyati blokirovka qilinadi va barcha kerakli ma'lumotlar jurnalga yozib qo'yiladi.

Tarmoqlararo ekranlarga quyidagi zamonaviy talablar qo'yiladi:

1. Asosiy talablar - bu ichki tarmoqning xavfsizlikni taminlash va tashqaridan ulanishlar hamda aloqa seanslarini to'liq nazorat qilish.
2. Ekranlovchi tizim tashkilotning xavfsizlik siyosatini oddiy va to'liq yuritish uchun quvvatli va moslanuvchan boshqarish vositalariga ega bo'lmog'i darkor.

3. Tarmoqlararo ekran lokal tarmoq foydalanuvchilariga sezdirmasdan ishlashi va ular tomonidan ruxsat etilgan amallarni bajarishlariga xalaqit bermasligi lozim.
4. Tarmoqlararo ekran ko'p miqdordagi murojaatlar bilan blokirovka qilib qo'yishni va ishdan chiqishining oldini olish uchun, uning protsessori tez ishlay olish, pik rejimlarida kiruvchi va chiquvchi oqimlarni yetarli darajada samarali qayta ishlay olishga ulgurishi lozim.
5. Xavfizlikni ta'minlash tizimlari har qanday tashqi noqonuniy ta'sirlardan himoyalangan bo'lishi lozim, chunki bu ta'sirlar tashkilotning konfedensial ma'lumotlarini ochish kaliti bo'lishi mumkin.
6. Ekranni boshqaruv tizimi olisdagi filiallar uchun ham yagona xavfsizlik siyosatini yuritishni markazlashgan holda ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.
7. Tarmoqlararo ekran foydalanuvchilarning tashqi ulanishlari orqali foydalanishga ruxsat berishning mualliflashtirish vositalariga ega bo'lmog'i kerak. Bu tashkilot xodimlarini xizmat safarida ham tarmoqdan foydalanishlariga imkon yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Axborotlarni muhofaza qilishning texnik vositalari qanday vositalarini bilasiz?
2. Kompyuter texnik vositalari deganda nimani tushunasiz?
3. Texnik vositalarni tavsiflab bering?
4. Hisoblash texnika vositalariga misollar keltiring.
5. Demaskirovka nima?
6. Axborotlarni muhofaza qilishning asosiy apparat vositalariga nimalar kiradi?
7. Axborot resurslari nima?
8. Atributivli indentifikatorlarga misol keltiring.

7-MAVZU: ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARI VA ELEKTRON RAQAMLI IMZO

Reja:

- 1. Ma'lumotlarni xavfsiz uzatishni ta'minlovchi aloqa seansi protokollari.**
- 2. CyberPlat tizimi.**
- 3. Naqd elektron pullardan foydalanadigan to'lov tizimlari.**
- 4. Elektron raqamli imzo.**

***Tayanch so'z va iboralar:** To'lov tizimi, elektron tijorat, elektron raqamli imzo, internet, izernet, kiberplat, assist, webmoney, Instant to'lov tizimi xususiyatlari.*

1. MA'LUMOTLARNI XAVFSIZ UZATISHNI TA'MINLOVCHI ALOQA SEANSI PROTOKOLLARI

Internet muhitida to'lovlarni amalga oshiruvchi tizimlar elektron tijoratning eng ko'p tarqalgan avtomatlashtirilgan universal tizimlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kundagi mavjud to'lov tizimlarining soni bir necha o'ntadan oshib ketadi. Xilma-xilligiga qaramay ularni shartli ravishda to'rtta asosiy guruhga bo'lib qarash mumkin:

- ma'lumotlarni xavfsiz uzatishni ta'minlovchi aloqa seansi protokollari asosidagi to'lov tizimlari;
- plastik kartochkalar asosidagi to'lov tizimlari;
- smart-kartochkalar asosidagi to'lov tizimlari;
- elektron naqd pullar.

To'lovlarni kredit kartochkalar asosida amalga oshiruvchi tizimlar mavjud to'lov tizimlari orasida yetakchi o'rinda turadi. Internetda hisob-kitoblar uchun plastik kartochkalarni qo'llash muvaffaqiyatining asosiy sababi uning ko'p tomonlari real dunyoda olib boriladigan to'lovlarga o'xshash bo'lsa, ikkinchidan, bunday ko'rinishdagi to'lovlarni olib borish jozibadorligi bilan bog'liq bo'lib, hozirgi kunda internetdagi ko'plab transaktsiyalar to'lovning aynan shu ko'rinishi bilan amalga oshiriladi.

Elektron imzoni yo'qligi uchun kartochkadan aynan o'z egasi foydalanganligini isbotlab berish amaliy jihatdan mumkin emas. Bu kamchiliklarni bartaraf qiluvchi yangi texnologiya SET (Secure Electronik Transaction specification) protokoli deb nomlanib, kredit xarid qilingan mahsulotlarga kartochkalardan foydalanish asosida olib

boriladigan to'lovlarni xavfsiz amalga oshirish muammosida eng samarali yechimliligi SETning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu texnologiyaga asosan tarmoqda uzatilayotgan kartochka raqami mijozni elektron imzosidan foydalanish orqali shifrlanadi. Deshifrovkani, ya'ni, shifrnı ochishni esa faqat kartochka bo'yicha transaksiyalarga ishlov berishni amalga oshiruvchi kompaniya va vakolatlangan banklar amalga oshira oladi. Plastik kartochkalardan foydalanishdagi cheklanishlardan biri amalga oshirilayotgan xaridlarga 5 AQSh dollaridan iborat quyi chegarani qo'yilishidir. Kartochka emitenti har bir tranzaksiya umumiy summasidan 1,5-3%, biroq 20 tsentdan kam bo'lmagan, xizmat haqi olar ekan, tizim uchun mahsulotlarga quyi baho diapazonida to'lovlarni amalga oshirish foydasiz bo'lib qo'ladi. Zamonaviy smart-kartochkalar o'zida protsessorli, xotirali dasturiy ta'minot va axborotlarni kiritish-chiqarish tizimlariga ega bo'lgan miniatyura kompyuterlarni ifoda qiladi. Asosida plastik kartochkalar bo'lgan har qanday to'lov tizimlarini eng muhim xususiyatlaridan biri - unda xavfsizlik tizimining mavjudligidir. Smart-kartochkaning yana bir ustunligi - ularni ko'p funksionalligidir, ya'ni, bitta kartochkadan turli moliyaviy ilovalar va turli kommunikatsiya infratuzilmalarda foydalana olishlik imkoniyatidir. Smart- kartochkalar asosidagi raqamli naqd pullar nafaqat konfideitsiallik va anonimlik zaruriy darajasini ta'minlash imkonini beribgina qolmay, shu bilan birga, to'lovlarni amalga oshirilganligini tasdiqlashda markaz bilan aloqani ham talab qilmaydi.

Internetda hisob-kitoblarni olib borishning yangi ko'rinishi raqamli naqd pullar hisoblanadi. «Raqamli naqd pullar» atamasi real dunyoda foydalaniladigan naqd pullar ustuvorligini internet dunyosiga o'tkazishga harakat qilayotgan elektron to'lov tizimlari toifasini aniqlab beradi.

Raqamli naqd pullar o'zida pul belgilari vazifalarini bajaruvchi juda katta sonlar yoki fayllarni ifoda qiladi. To'lov tizimlarining boshqa turlaridan farqli ravishda bu fayllar pul mablag'lari haqidagi ma'lumotlar bo'lib qolmay, balki aynan pulning o'zini ifoda qiladi.

Yevropa ittifoqi davlatlarida kredit muassasalari maqomiga ega bo'lmagan shaxs yoki korxonalarga elektron pul emissiyasi jarayonlarini olib borish ta'qiqlanadi. Evropa qonun chiqaruvchilarining elektron pul emissiyasiga bunday taqiqlarni kiritishi

elektron pul sohasiga ham bank faoliyatiga o'xshash yetarlicha qat'iy tartibga solishlarni kiritishga intilayotganliklaridan dalolat beradi.

Uchinchi shaxslarga elektron pulning to'lov vositasi sifatida tan olish mexanizmi aniqlab berilgan bo'lib, bunday tan olish kupyura va tangalar ko'rinishidagi to'lov vositalaridagi kabi qonun kuchi bilan emas, balki emitent bilan turli usullar bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Shunday ekan, elektron pullar o'zida emitentga qo'yiladigan talablarni ham ifoda qiladi.

2. CYBERPLAT TIZIMI

CyberPlat – debet tizimdir. Elektron raqamli imzo bilan imzolangan raqamli chek orqali to'lov amalga oshiriladi. U “Platina” banki va “Inist” firmasi mutaxassislari tomonidan 1997 yilda ishlab chiqilgan. Tarixiy birinchi Rossiya davlatining to'lov tizimi hisoblanadi.

Birinchi on-line rejimidagi to'lov o'tkazmasini 1998 yil 18 martda “Garant- park” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan. Hozirgi paytda CyberPlat® (KiberPlat) elektron to'lov bozorida 12 yil mobaynida ishlab kelmoqda, Rossiya va MDH davlatlarini ichida eng ishonchli va yo'lga koyilgan elektron to'lov tizimi bo'lib kelmoqda.

CyberPlat tizimi Internet muhiti va real vaqt rejimida hisob-kitob qilish uchun mo'ljallangan integratsiyalashgan tizimdir. U Internet orqali amalga oshiriladigan hisob-kitobning ikki modelini qamrab oladi:

1. Biznes – xaridor (Business to Consumer) modeli – ASSIST avtorizatsiyalashgan serveri – chakana elektron xarid, jumladan, mikroto'lovni ta'minlash.
2. Biznes – biznes modeli (Business to Business) – himoyalangan moliyaviy hujjatlashtirish texnologiyasi - ulgurji savdo va korporativ strukturalar orasidagi hisob-kitoblar.

Yuqorida keltirilgan hisoblashishlar modellari mohiyatan to'lovlar hajmlari va buning natijasi olaroq, mumkin bo'lgan sanksiya qoyilmagan kirish ehtimolidan himoyalalanish darajasiga qo'yiladigan talablarga ko'ra farqlanadi. CyberPlat tizimining texnologik qurilishi uni har ikki modelda ham muvaffaqiyatli qo'llash imkonini beradi. Bunda ASSIST avtorizatsiyalashgan serverining mavjud bo'lishi mijozlarga biznes-xaridor sxemasi bo'yicha xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini muhim darajada kengaytiradi.

CyberPlat to'lov tizimga qisqacha tavsif berib o'tamiz. Tizim ishtirokchilari CyberPlat to'lov tizimida hisob-kitoblar uch asosiy ishtirokchilar orasida olib boriladi: xaridor, elektron magazin va bank.

Xaridorlar uchun qulayliklar:

Tizimda ro'yxatga olingan xaridor magazinga xarid qilish va ular uchun real vaqt rejimida yoki bankdan o'z hisob raqamidan yoki o'zining bank kredit kartochkasi orqali to'lash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Magazin uchun qulayliklar:

– Elektron magazin tizimida ro'yxatga olingan xaridorlar uchun qilingan xaridlar uchun to'lash kafolatlanadi hamda shartnomalar hujjatlashtirilishi tufayli to'lashni asossiz ravishda rad etish ehtimoli yo'qoladi. Tizim ishtirokchilari orasida yalpi axborot almashinuvi Internet tarmog'i orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tizim ishtirokchilariga hisob raqam –kassa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ananaviy bank xizmatlari taqdim etiladi.

ASSIST to'lov serveri orqali kredit kartali yordamida to'lash tartibi: ASSIST to'lov serveri Cyber Plat tizimining back-office bilan o'zaro aloqa qiladi. Server «Reksoft» (Sankt-Peterburg) hamda «Platina» banki mutaxassislari tomonidan yaratilgan. ASSIST to'lov serveriga ulangan elektron magazinlar to'lov uchun O'zbekiston va xorijiy banklar tomonidan chiqarilgan VISA, EuroCard, Master Card, JCB, Diners Club, American Express plastik kartochkalarini qabul qilishi mumkin, bunda mazkur kartochkalar egalarini tizimda royxatga olmagan holda hamda qo'shimcha dasturiy ta'minotni ishga tushirmagan holda yuqoridagi operatsiya amalga oshiriladi. Elektron Magazinning ASSIST to'lov serveriga ulanishi mazkur serverning saytida ro'yxatdan o'tish orqali amalga oshiriladi. Ruxsatsiz kirishdan himoya qilishning mohiyati. Uzatilayotgan axborotlar tizim ishtirokchilari tomonidan raqamli imzolar bilan imzolanadi. Bu esa hujjatlar mazmuniga qalloblik bilan o'zgartirishlar kiritilish imkoniyatini bartaraf etadi yoki muhim darajada cheklaydi. 512 Bit uzunlikdagi kalitni ochiq taqsimlash bilan birgalikda, kriptografik o'zgartirishning assimetrik (notekis) algoritmi qo'llaniladi. Bunday uzunlikdagi kalit uchun imzoni qalbakilashtirish umuman mumkin emas, chunki begona shaxslar tomonidan rasshifrovka qilish, yani shifr bilan yozilganlarni o'qish uchun katta hisoblash resurslarini jalb qilish talab etiladi.

To'lov topshiriqnomalarini rasmiylashtirish tartibi.

Cyber Plat tizimi mijozlari bevosita Internet orqali to'lov topshiriqnomalarini to'ldirishlari mumkin, bu esa bank o'tkazmalarini O'zbekistonning istalgan bankidagi istalgan hisobraqamiga bank o'tkazmalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Cyber Plat serveridan (<http://www.cyberplat.uz>, <http://www.cyberplat.ru>) foydalanuvchi mijozlar oldindan ro'yxatdan o'tishlari lozim. Mijozlarni ro'yxatga olish, shuningdek, mijoz joyida (bepul taqdim etiladigan) maxsus dasturiy ta'minotni ishlatishi to'lovlarning yuqori darajadagi xavfsizligini taminlaydi.

Cyber Plat "Platina" bankida ochilgan hisobraqam bilan birga, plastik kartochka orqali to'lovlar amalga oshirish imkonini beradi. Bunda mijoz Xalqaro to'lov tizimlari a'zosi bo'lgan har qanday bank tomonidan berilgan kartochkadan foydalanishi mumkin. O'z mohiyatiga ko'ra, Cyber Plat ko'rinishidagi to'lov tizimini aks ettirib, unda ishtirokchilar o'rtasida ishonchli va xavfsiz pul o'tkazishlar samarali amalga oshirishi mumkin. Uning bu xususiyati to'lovlar miqdori juda katta bolgan korporativ o'zaro to'lovlar uchun juda qol keladi (biznes-biznes modeli).

Hozirgi kunda Cyber Plat tizimida tovar va xizmatlar:

- 1) "Platina" bankida xaridor uchun ochilgan hisobraqamdan;
- 2) Har bir bank-emitentning bank kredit kartochkasidan to'lovlar ko'zda tutiladi

Cyber Plat tizimidagi to'lov xaridorning "Platina" bankidagi hisobraqamidagi qoldiq yoki bank emitentining karta hisobraqamidagi summadan oshib ketmasa, operatsiya amalga oshiriladi. Xaridor "Platina" bankidagi hisobraqamini quyidagicha to'ldiradi:

1. Qo'shimcha ofis kassasi orqali, badal ko'rinishidagi naqd pul bilan;
2. Har qanday biznes banki orqali naqd pulsiz o'tkazmalar bilan.

Biznes banki orqali otkazilgan mablag' to'g'risidagi xabarnomani xaridor tomonidan shartli ravishda "Dasturiy ta'minot" deyiluvchi vosita orqali chop qilish mumkin. Xabarnomada bank va xaridorning barcha zaruriy rekvizitlari aks etadi. Xaridor faqat o'tkazma summasini kiritadi xolos.

Bank plastik kartochkalaridan foydalaniladigan to'lovlarda mablag'lar bank-emitentdagi karta hisob raqamidan olinadi. Bu hisob raqamni to'ldirish tegishli to'lov karta tizimi qoidalariga ko'ra amalga

oshiriladi. Kartochka operatsiyalarida mumkin bo'lgan qallobliklardan himoyalash maqsadida, tizimga qo'shimcha cheklashlar kiritilgan.

Xaridor Bankda, o'z hisob-raqamidagi yoki joriy to'lov limitidagi mablag'larni nazorat qilishi mumkin va bunda u "Platina" bankidan hisob raqam holati boyicha yoki bank kredit kartochkasidan foydalanish davomida amalga oshirilgan tranzaksiyalar haqida ko'chirma olishi mumkin.

"Platina" bankida hisob raqam ochishdagi CyberPlat to'lov tizimining ishlash texnologiyasi:

1. To'lovning va xaridning onlaynda amalga oshirilishi.
2. Xaridor Internet orqali magazinning veb serveriga ulanadi, tovarlar toplamini shakllantiradi va hisobraqamdan olish togrisida magazinga so'rovnoma jo'natadi.
3. Magazin xaridorning so'rovnomasiga ko'ra o'nga tovar (xizmat) nomi, narxi, magazin kodi, operatsiya sodir bo'lgan vaqt va kuni ko'rsatilgan elektron raqamli imzo(ERI) bilan imzolangan hisob jo'natadi. Fuqarolik-huquqiy nuqtai nazaridan bu hisob shartnoma tuzish uchun taklif hisoblanadi(oferta). Dunyoda Elektron raqamli imzo(ERI) haqida qonun qabul qilgan birinchi mamlakat Germaniya bo'lib, 1997 Evropa davlatlari qonunchiligi asosida "Elektron raqamli imzo" to'g'risidagi qonun imzolangan. AQShda 2000 yil 1 oktyabrda "Global va milliy biznesda elektron imzo" to'g'risidagi Qonun imzolangan.
4. Xaridor unga kelgan hisobni o'z ERI si bilan imzolab, qabulni amalga oshirgan holda uni magazinga qaytarib jo'natadi. Shartnoma xaridor imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi. Tizimda xaridor tomonidan imzolangan hisob chekka aylanadi.
5. Ikki tomonlama ERI bilan imzolangan chek (yani magazin va xaridor tomonidan) Magazin tomonidan, kuchga kiritish uchun Bankka jo'natiladi.
6. Bank imzolangan chekni qayta ishlaydi: Magazin va xaridorning tizimlarida uning mavjudligini tekshiradi, ikkala tomonning ERI larini tekshiradi, ularning hisobraqamlaridagi qoldiq va limitlarni tekshirib chiqadi. Tekshiruv natijasida to'lovni o'tkazish yoki o'tkazmaslik haqidagi qaror shakllanadi.
7. To'lovga ruxsat olinganda bank pul mablag'larni Xaridorning hisob raqamidan Magazin hisob raqamiga o'tkazish bilan birga

Magazinga xizmat ko'rsatishga (tovar berishga) ruxsat beradi, Magazin esa ushbu xizmatni ko'rsatadi (tovar beradi).

8. To'lov taqiqlangan holda bank Magazinga to'lovni qaytarish haqida xabar beradi, Xaridorga esa to'lovning qaytarilishi asoslanadi. Xaridor xarid qilish jarayonini to'la-to'kis nazorat qiladi. Amalga oshirilgan kelishuvni tasdiqlovchi hujjat sifatida har bir tomonda yuridik kuchga ega bo'lgan elektron-raqam usulida imzolangan cheklar qoladi.

Hisob raqamidan ko'chirma

Xaridor o'z hisob raqamidagi mablag'lar haqidagi ko'chirmani o'ziga tegishli bo'lgan elektron-raqam usulida imzolangan so'rovnoma orqali oladi. Bank Xaridorning kodi va elektron-raqam imzosini (ERI) tekshiradi. Tekshiruvning ijobiy natijalari olingan holda Bank Xaridorga ERI yordamida imzolangan va kriptografik tarzda o'zgartirilgan tekstni o'z ichiga olgan so'rovnomani yo'llaydi.

Xaridor, xabarni olgach, Bank imzosi va ko'chirmaning aksincha o'zgartirilganligini tekshiradi. Xaridor ko'chirmani o'z kompyuterining xotirasida saqlab qoladi.

Xaridorning to'lovlari magazindan o'tganligi haqidagi so'rovnoma

Xaridor CyberPlat tizimidagi o'z kodini ko'rsatgan holda mazkur Magazinda amalga oshirilgan to'lovlari haqida ma'lumotlarni rasmiy ravishda so'rab oladi va olingan kod asosida Magazin mazkur Xaridor to'lovlari haqida axborotni taqdim etadi.

CyberPlat tizimining bank plastik kartochkalari egalariga xizmat ko'rsatish texnologiyasi. Plastik kartochka egasini ro'yxatga olish.

1. VISA, Eurocard, Mastercard, Diners Clud, JSB (bundan buyon – Xaridor) bank plastik kartochkalari egalari CyberPlat to'lov tizimida ro'yxatga olinadi.

2. Ro'yxatga olinish vaqtida Xaridor quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi: o'ziga tegishli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar (ismi-sharifi, otasining ismi, elektron pochta manzili, pochta manzili, telefon), o'z kartochkasining parametrlarini (kartochkaning qaysi to'lov tizimga tegishliligi, kartochkaning raqami, uning amal qilish muddati, kartochka egasining kartochkada ko'rsatilgan transkripsiyadagi ismi-sharifi). Kartochkadagi ma'lumotlar himoyalangan tarzda Xaridorni ro'yxatga olish uchun faqatgina Bankka beriladi, ushbu ma'lumotlar

Magazinga Xaridor bilan operatsiyalarni amalga oshirishda taqdim etilmaydi.

Onlayn shaklidagi xarid va to'lovni o'tkazish

Magazinlarda tovarni xarid qilish CyberPlat tizimi texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

1. Xaridor Internet orqali Magazinga tegishli bo'lgan web-serverga ulanib, tovar savatini shakllantirib, Magazinga jami qilingan xarajatlar miqdori haqida so'rovnoma yuboradi.
2. Ushbu so'rovnomaga asosan Magazin Xaridorga tovar nomi va xizmat haqi, magazin kodi, amalga oshirilgan operatsiyaning vaqti va kuni ko'rsatilgan ERI usuli yordamida imzolangan hisob varag'ini taqdim etadi. Fuqaroviy-huquqiy nuqtai nazardan ushbu hisobvaraq shartnomani tuzish borasidagi taklif deb hisoblanadi.
3. Xaridor o'nga taqdim etilgan mazkur hisob varaqni ERI usulida imzolab, uni Magazinga qaytarib yuboradi, ya'ni aktseptni bajaradi. Shartnoma Xaridor o'nga taqdim etilgan hisobvaraqni imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kirgan bo'lib hisoblanadi. Tizimda Xaridor tomonidan imzolangan hisobvaraq chek bo'lib hisoblanadi.
4. Magazin va Xaridor tomonidan ERI usulida imzolangan chek Magazin tomonidan avtorizatsiya uchun Bankka yo'llanadi.
5. Bank imzolangan chekni ko'zdan kechiradi, ya'ni: tizimda Magazin va Xaridorning ro'yxatdan o'tganligi, Magazin va Xaridorning ERI tekshiriladi, operatsiyaning belgilangan tizim limitlarga muvofiqligi nazorat qilinadi va chekning nusxasi Bankning ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Tekshiruv natijasida kartochka to'lov tizimida tranzaksiyalarni avtorizatsiyalashga ruxsat berish yoki taqiqlash borasida qaror shakllanadi.
6. Avtorizatsiya taqiqlangan holda Bank Magazinga to'lovni o'tkazmasligi to'g'risida qarorini yo'llaydi, Xaridorga esa to'lov amalga oshirilmaganligi asoslanadi.
7. Avtorizatsiyaga ruxsat berilgan taqdirda Bank va Xaridor o'rtasidagi shartnomaga asosan Bank komissiya miqdoriga muvofiq tarzda to'lov summasi hajmini oshiradi. Komissiyalarning shakli va hajmi Bankning amaldagi tariflari bilan belgilanadi, avtorizatsiyaga ruxsat olish so'rovnomasi yopiq turdagi bank tarmoqlari orqali Xaridorning kartochkasi emitenti bo'lmish bank yoki bank- emitent tomonidan vakolatlangan kartochka to'lov tizimining protsessing markaziga yo'llanadi.

8. Ijobiy holda Magazin xizmat ko'rsatadi (ya'ni, tovarni sotadi). Bank Magazin bilan tuzilgan shartnomaga asosan mablag'larni Magazin hisob raqamiga o'tkazadi.

9. Avtorizatsiya taqiqlangan holda Bank Magazinga to'lovni o'tkazmaslik haqida xabar beradi. Xaridor xarid qilish jarayonini to'la-to'kis nazorat qiladi. Amalga oshirilgan kelishuvni tasdiqlovchi hujjat sifatida har bir tomonda yuridik kuchga ega bolgan elektron-raqam usulida imzolangan cheklar qoladi.

Tizimdagi tranzaksiyalar bo'yicha ko'chirma

1. Xaridor CyberPlat tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar haqidagi ko'chirmani rasmiy ravishda so'rab oladi, so'ng o'zining so'rovnomasini ERI usulida imzolaydi.

2. Bank Xaridorning kodi va ERI ni tekshiradi.

3. Tekshiruvning ijobiy natijalari olingan holda Bank Xaridorga ERI yordamida imzolangan va kriptografik tarzda o'zgartirilgan tekstni o'z ichiga olgan so'rovnomanini yo'llaydi.

4. Xaridor, xabarni olgach, Bank imzosi va ko'chirmaning aksincha o'zgartirilganligini tekshiradi.

5. Xaridor ko'chirmani o'z kompyuterining xotirasida saqlab qoladi.

Xaridorning to'lovlari magazindan o'tganligi haqidagi so'rovnoma

1. Xaridor CyberPlat tizimidagi o'z kodini ko'rsatgan holda mazkur Magazinda amalga oshirilgan to'lovlari haqida ma'lumotlarni rasmiy ravishda so'rab oladi.

2. Olingan kod asosida Magazin mazkur Xaridor to'lovlari haqida axborotni taqdim etadi.

Mijoz operatsiyalari bo'yicha cheklovlar

Hisob raqamni to'ldirish

Hozirgi kunda CyberPlat tizimida har qanday bank-emitentning bank kredit kartochkasi bo'yicha Xaridorning «Platina» bankida ochilgan hisob raqami orqali tovar yoki xizmatni xarid qilish ko'zda tutilgan.

Bank hisob raqamidagi mablag'lar yoki joriy to'lov limitning holatini Xaridor «Platina» bankdan rasmiy ravishda olingan yoki bank kredit kartochkasi yordamida amalga oshirgan transaksiyalari haqidagi ko'chirmalar orqali nazorat qilishi mumkin (<http://www.webmoney.ru/rospay/cyberod.asp> – top). CyberPlat tizimining afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi. O'zaro

to'lovlarni o'tkazish tezligi: Xaridor, Magazin va Bank ishtirok etuvchi barcha operatsiyalarning onlayn shaklida o'tkazilishi.

Soddaligi:

- 1) tizimga ulanishning yetarlicha soddaligi;
- 2) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish texnologiyasining muayyan soddaligi;

Mijoz hisob raqamining xavfsizligi va konfidentsialligi quyidagilarga asosan ta'minlanadi:

- 1) o'zaro munosabatda bo'lgan tomonlar Elektron-raqam imzolaridan foydalanadi (ERI);
- 2) mijoz xavfsizligining tegishli darajasi 512-bitli yopiq kalitni qo'llash orqali taminlanadi;
- 3) operatsiyani o'tkazuvchi tomonlarning haqiqiylikini tasdiqlovchi tizimning mukammalligi

Real vaqtda amalga oshirilayotgan to'lovlar bilan bog'liq operatsiyalar va ularni tegishli hujjatlar bilan tasdiqlash ustidan nazorat quyidagilarga asosan ta'minlanadi:

- 1) to'lov operatsiyalarining har bir bosqichi rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan;
- 2) hujjatlar ERI bilan imzolanadi.

Hisob raqamni Internet orqali boshqarishdagi qulaylik CyberPlat tizimida ochilgan hisob raqami orqali to'lovni tashqi to'lov tizimlar orqali har qanday bankning har qanday hisob raqamiga o'tkazish imkoniyatining mavjudligi bilan kafolatlanadi.

CyberPlat tizimining kamchiliklari boshqa qator to'lov tizimlari singari o'z mijoziga tegishli axborot va tranzaktsiyalari xavfsizligini mutlaq tarzda taminlab bera olmasligidir.

Tizim orqali savdo qilish

Xaridor internet orqali magazinni web-serveriga ulanadi, xarid qiladigan mahsulotlarni tanlab, kredit kartochka to'lov turini tanlaydi.

Magazin buyurtmani qayta ishlab, CyberPOS serveriga yuboradi. Barcha ma'lumotlar Magazin va CyberPOS o'rtasida xavfsizligi taminlangan SSL protokolida elektron raqamli imzo orqali almashinadi.

CyberPOS xaridor bilan xavfsizligi ta'minlangan (SSL) protokoli ulanadi va xaridorning kredit kartochka ma'lumotlarini oladi. Kredit kartochka to'g'risidagi ma'lumot xavfsiz holda faqat

CyberPOC ga yuboriladi va magazin bilan savdo qilayotganda magazinga berilmaydi.

Tizim orqali savdo qilish

- CyberPOS sistemada magazinning mavjudligini tekshiradi, tizimda o'rnatilgan cheklovlarga muomalaning mos kelishini tekshiradi. Tekshiruv natijasiga ko'ra kartochka to'lov tizimida o'tkazmalar avtorizatsiyasini amalga oshirish uchun ruxsat yoki rad javobi beriladi.

- Avtorizatsiyaga rad javobi berilganda: CyberPOS Xaridorga rad javobi sabablarini ko'rsatib beradi,

- CyberPOS Magazinga rad qilingan buyurtma raqamini beradi.

- CyberPOS sistemada magazinning mavjudligini tekshiradi, tizimda o'rnatilgan cheklovlarga muomalaning mos kelishini tekshiradi. Tekshiruv natijasiga ko'ra kartochka to'lov tizimida o'tkazmalar avtorizatsiyasini amalga oshirish uchun ruxsat yoki rad javobi beriladi.

- Avtorizatsiyaga rad javobi berilganda:

- CyberPOS Xaridorga rad javobi sabablarini ko'rsatib beradi,

- CyberPOS Magazinga rad qilingan buyurtma raqamini beradi.

- Avtorizatsiyaga ruxsat berilganda:

- CyberPOS uni bankning protsessing markaziga beradi.

- Bank emitentga bankning yopiq tarmog'i orqali avtorizatsiya uchun so'rov yuboriladi yoki kartochkaning to'lov tizimi protsessing markaziga yuboriladi.

- Kartochka to'lov tizimidan ijobiy natija olinganda:

- Bankning protsessing markazi CyberPOS ga avtorizatsiyaning ijobiy natijasini beradi.

- Magazin xizmat ko'rsatadi. (mahsulotni jo'natadi)

- Bank bank va magazin o'rtasida mavjud kelishuv munosabatlariga muvofiq magazin hisobiga pul o'tkazadi.

- Rad avtorizatsiya paytida:

- Bankning protsessing markazi avtorizatsiya serveriga to'lov o'tkazilishiga rad javob beradi.

- CyberPOS Xaridorga rad javobi sabablarini ko'rsatib beradi,

- CyberPOS Magazinga rad qilingan buyurtma raqamini beradi.

- CyberPOS Xaridorga avtorizatsiyaning ijobiy natijasini beradi.

- CyberPOS magazinga buyurtma raqami bilan birga avtorizatsiyaning ijobiy natijasini beradi.

“Ekonom” terminalining texnik xarakteri

MKBS Seriya T-3 terminali

- Monitor 17"(TFT 17" LCD)

- Modem Siemens MC39i

- T-3 terminali 74900 rub.*

- T-3 Biznes terminali 64900 rub.*

- T-3 Ekonom terminali 54900 rub.*

DMD TEXNOLOJI TERMINALI

- O'lchami: 630 x 1390 x 400

- Og'irligi: 93,5 kg

- Operativ xotira: 512 Mb DDR PC3200

- Monitor: 17 dyumli General Touch, 6 mm

- O'lchami: Eni- 620 mm balandligi-1390 mm

- Og'irligi-125 kg ishlash temperaturasi +15 dan +45 gacha;

- Foydalanish quvvati 100-300 Vt

- Elektr iste'moli 220V/50 Gts

- Korpusi 2-3 mm qalinlikdagi po'lat

Alniko terminali

- O'lchami: 630 x 1390 x 400 mm,

- Og'irligi: 93,5 kg.

- Monitor: 17 dyumli General Touch, 6 mm

- Operativ xotira: 256 / 512Mb DDR-2 PC5300, videokarta: ATI

Radeon Sapphire x550 256 mb

ISKRA 1 TERMINALI

- O'lchami: 1125×425 × 370 mm,

- Og'irligi: 65 kg

- Elektr sarfi: 220 V / 50 Gts

- GPRS-modem

Siemens MC35i

ISKRA 2 TERMINALI

- O'lchami: 630 x 1390 x 400

- Og'irligi: 93,5 kg

- Operativ xotira: 512 Mb DDR PC3200

- Monitor: 17 dyumli General Touch, 6 mm

Termoprinterlar

Citizen CBM 1000 (Yaponiya)

Yangi Treyd

- O'lchami: 1495 x 510 x 385

- Og'irligi: 85 kg.
- GPRS-modem: Siemens MC35i
- Monitor: LCD TFT 17
- Citizen CT-S2000 (Yaponiya)
- Citizen PPU 700 (Yaponiya)
- Star Micronix TUP 992 (Yaponiya)
- Fujitsu FTP 629
- Epson EU-T422

3. NAQD ELEKTRON PULLARDAN FOYDALANADIGAN TO'LOV TIZIMLARI

Kundalik hayotda banknot va qog'oz ko'rinishidagi naqd pullar kredit kartochkasi yoki mijoz-bank tizimi turidagi naqd bo'lmagan to'lov vositalaridan ikkita muhim xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, o'rnatilgan tartibga ko'ra naqd bo'lgan to'lovlar anonimdir, ikkinchidan esa, naqd pul egasi ulardan yakka holda foydalanadi. To'lovlarda anonimlik tushunchasi xaridorni identifikatsiya qiluvchi har qanday yozuvlarni hech qayerda qolmasligini bildiradi. Yakka holda foydalanish naqd pullar egasi ularni o'z ehtiyojlariga ko'ra sarflashini hech kim taqiqlay olmasligini bildiradi.

Naqd bo'lgan pullarni mavjud ustunliklari bilan birga uning ba'zi bir kamchiliklari ham kelib chiqadi. Birinchidan, naqd pullarni beixtiyor yo'qotib qo'yish mumkin. Ikkinchidan, naqd pullarga hech kim foyda keltiruvchi ustama foiz to'lamaydi.

Agarda qandaydir elektron to'lov tizimi har bir mijozga to'lovlar anonimligi va to'lov vositalaridan yakka holda foydalanishni ta'minlasa, u holda bu tizim mijoz ixtiyoriga elektron naqd pullarni taqdim etadi deb aytish mumkin. Bunda to'lovlar anonimligi va foydalanish erkinligini ta'minlash to'lov tizimidagi kompaniya-operatorining xohish-irodasi emas, balki tizimni ichki xususiyati bo'lishi lozim. Elektron naqd pul operatsiyalarini amalga oshiruvchi to'lov tizimida mijozlar to'lovlarni o'tkazishdagi o'rnatilgan tartiblaridan kelib chiqib, o'z huquqlarini o'zlari belgilaydilar, shuning uchun ular kompaniya-operatorlarga ishonishlariga majbur emaslar.

Oddiy pullar kabi, agarda foydalanuvchi tomonidan moliyaviy ma'lumotlar va ularni zahira nusxalari yo'qotib qo'yilgan taqdirda

elektron naqd pullarni ham yo‘qotib qo‘yish mumkin. Shu bilan birga, elektron naqd pullarga ham foyda foizlari hisob-kitob qilinmaydi.

Mavjud kredit kartochkalardan foydalanuvchi to‘lov tizimlari ularni naqd pullardan farqlovchi va internetda qo‘llash doirasini chegaralab qo‘yuvchi bir qator kamchiliklarga ega:

1. Mumkin bo‘lgan to‘lovlar summasi bir dollardan bir necha ming dollargacha bo‘lgan etarlicha tor diapazonda bo‘ladi, shuning uchun mikro to‘lovlar uchun (sent ulushidan bar necha dollargacha) boshqa turdagi vositalar talab qilinadi.

2. To‘lovlarni olib borish (avtorlashtirish) uchun talab qilinadigan vaqt ba‘zan juda ham kattalashib ketadi.

3. Kartochka tizimida sotuvchi va xaridor teng huquqli emas. Xususan, kartochkalarning oddiy foydalanuvchilari o‘z kartochka hisob- raqamidagi pullarni olishiga imkon yo‘q. Bu oz mijozlariga yutuqlarini to‘lashi lozim bo‘ladigan virtual xazina, lotoreya va shu kabilarni tashkil qilishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Elektron naqd pullar bunday kamchiliklardan holidir va shuning uchun plastik kartochkalar asosidagi to‘lov tizimlariga nisbatan tabiiy raqobatchilikni vujudga keltirishi mumkin.

WebMoney Transfer - raqamli naqd pullardan foydalanuvchi to‘lov tizimidir. WebMoney tizimi internet tarmog‘idagi har qanday foydalanuvchiga real vaqtda xavfsiz bo‘lgan naqd to‘lovlar va hisob kitoblarni WebMoney (WM) deb nomlanuvchi elektron naqd pullardan foydalanish orqali amalga oshirishni taqdim etadi.

Tizimning mijozlari mahsulot va xizmatlarni sotuvchilar, xaridorlardan iborat. Bu bir tomondan, internet-do‘konlar, ikkinchi tomondan, hisob-kitoblar an‘anaviy usullari, masalan, internetning kredit kartochkalaridan foydalanishga imkoniyati yoq yoki xohlamaydigan har qanday foydalanuvchisi bo‘lishi mumkin.

Tizim doirasida AQSh dollari asosida hisob-kitob qilinadigan WM-shartli pul birligidan kreditlash va to‘lovlarning universal vositasi sifatida foydalaniladi. WM-pul birligi internetdagi hisob kitoblar uchun foydalaniladigan AQSh dollari va boshqa valyutalarga nisbatan to‘liq konvertatsiya qilingan bo‘ladi. WebMoney Keeper mijoz dasturiy ta‘minoti tizimga mijoz sifatida a‘zo bo‘lishga imkon beradi.

WebMoney Keeper dasturi yordamida anonim holda tizimning boshqa mijozlari bilan hisob-kitoblarni WMda bir lahzada amalga

o'shish, WMni o'zining bankdagi hisob-raqamiga o'tkazish, internet tarmog'ida mahsulot va xizmatlarga to'lash, shuningdek, Web-Money Keeper dasturiga qurilgan xabarlar ayirboshlashning himoyalangan tizimi orqali ehtimol qilinayotgan hamkorlar bilan savdo bitimlarini muhokama qilish mumkin.

WebMoney tizimi ishtirokchisi bo'lish uchun quyidagilar yetarlidir:

1. Hamma foydalanuvchilar uchun: WebMoney Keeper dasturini chiqarib olish va installyatsiya qilish.
2. Xaridor uchun: ixtiyoriy bank hisob raqamidagi pul mablag'larini WMra konvertatsiya qilib, o'z navbatida uni «Hamyonlar» tizimidagi maxsus hisob raqamiga o'tkazish.
3. Sotuvchilar uchun: sotilayotgan mahsulot va xizmachlar hisobiga WMlap kelib tushadigan manzilda maxsus «Hamyon» hisob-raqamlarini bepul ochish. Internet-do'konlarni WMda hisob-kitob yuritishlar uchun sozlash.

WebMoney Transfer tizimi doirasida WM pullarni xizmat va mahsulotlarga to'lov sifatida qabul qiladigan ixtiyoriy do'konda sarflash mumkin. Buning uchun unda avvaldan o'zining maxsus hisob-raqamlarini ochish yoki kredit kartochka raqamini uzatish shart emas. WM to'laonli va ekvivalent pul qiymatiga ega bo'lganligidan to'lovlar amalga oshirilishi bilan WebMoney Transfer tizimidagi internet-do'konlar shu zahotidayoq mahsulotlar va xizmatlarni yetkazib berishni taminlaydi.

WM pullar ixtiyoriy lahzada naqd bo'lmagan to'lovlar yo'li bilan har qanday ko'rsatilgan hisob-raqamiga AQSh dollari yoki har qanday valyutaga almashtirilgan holda kelib tushadi.

Xavfsizlikni ta'minlashning WebMoney Transferda qo'llanilgan ba'zi bir usullarini batafsil ko'rib chiqamiz:

1. WebMoney Keeper dasturiga kirish uchun foydalanuvchining unikal 13-qiymatli identifikatsiya raqami, uning shaxsiy paroli, shuningdek, kompyuter xotirasidagi mahfiy kalitlar va hamyonlar bo'lgan fayllarni joylashgan joyini bilish zarur bo'ladi.
2. Tizimdagi barcha axborotlar axborotlarni himoya qilishning kalit uzunligi 1024 bit bo'lgan, RSAr o'xshash algoritmdan foydalanilgan holda kodlashtirilgan ko'rinishda uzatiladi. Har bir seans uchun unikal seans kalitidan foydalaniladi. Shuning uchun seans vaqtida (transaksiyalarni amalga oshirish vaqti) foydalanuvchining

o'zidan boshqa hech kim to'lovni nimaga tayinlanganligi va uning summasini bilish imkoniyatiga ega emas.

To'lov tizimlari orasida internet-banking vazifalarini bajaruvchi, ya'ni, internet tarmog'i orqali bank operatsiyalarini olib borishga imkon beradigan tizimlar alohida guruhni tashkil qiladi. Ular orqali amalga oshirish mumkin bo'lgan operatsiyalar o'z ichiga amaliy jihatdan amalga oshirilgan operatsiyalardan ko'chirma olish bilan bank hisob raqamlarini boshqarishda to'liq xizmatlar to'plamini oladi.

«Uy banki» tizimi xususiy shaxslarni real bankdagi hisob-raqamlarini internet tarmog'i orqali boshqarish uchun mo'ljallangan «Uy banki» o'z foydalanuvchilariga real vaqt tartibida va planetaning ixtiyoriy nuqtasidan tunu-kun tolaqonli bank servis xizmatlarini taqdim etiladi. «Uy banki» real vaqt tartibida internet tarmog'i orqali bir qancha operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Adapter kompyuterga LPT yoki COM portlari orqali ulanadi. Xotira kaliti elementi (Touch memory) foydalanuvchining unikal kalitlarini ifoda qiladi va «Uy banki» tizimida mijozni ro'yxatga olish raqami hisoblanadi. Tizimda har qanday operatsiyani amalga oshirish vaqtida bu jarayonni xotira kaliti elementi va parol bilan tasdiqlash lozim bo'ladi. «Uy banki» dasturiy komponenti Microsoft Internet Explorer 5 uchun modul ko'rinishida bajarilgan bo'lib, qurilma bilan birga taqdim etiladi.

Internet-banking vazifalarini bajaruvchi ikkinchi tizim «Telebank» deb nomlanib, bu tizim xususiy shaxslarga masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatilishiga imkon beradi. Operatsiyalar uzluksiz va internet yoki telefon orqali ixtiyoriy joydan amalga oshiriladi.

Mijoz to'lovni amalga oshirilganligini tasdiqlovchi chiptani, shuningdek, hisob-raqami bo'yicha barcha ko'chirmalarni internet orqali avtomatlashtirilgan tartibda faks yordamida yoki bevosita bankning ofisidan olish mumkin.

Viruslarning asosiy qismini bezorilik bilan ishlaydigan dasturchilar yaratadilar, ular asosan o'zlarini behuda o'ylashlari yoki antivirus dasturlarini sotish uchun pul topishlari uchun. Antivirus - bu viruslarni aniqlash yoki aniqlash va yo'q qilish dasturi. Bunday dasturlar maxsus yoki universaldir. Universal antivirus va ixtisoslashtirilgan antivirus o'rtasidagi farq nima? Ixtisoslashgan odam faqat yozilgan, ishlaydigan viruslar bilan va hali yozilmagan viruslar bilan kurasha oladi.

Ko'p antivirus dasturlari ixtisoslashgan dasturlarga tegishli: AIDSTEST, VDEATH, SERUM-3, ANTI-KOT, SCAN va boshqalar. Ularning har biri bir yoki bir nechta o'ziga xos viruslarni taniydi, qolganlari borligiga hech qanday munosabat bildirmaydi.

Universal antiviruslar viruslarning barcha sinflari bilan kurashish uchun mo'ljallangan. Dizayni bo'yicha universal antiviruslar juda boshqacha bo'lishi mumkin. Rezident antiviruslar va auditor dasturlari keng qo'llaniladi.

Bu ham, boshqa antivirus dasturlarining ham ma'lum imkoniyatlari bor - ijobiy va salbiy (kamchiliklari). Ixtisoslashganlar soddaligi bilan juda tor ixtisoslashgan. Viruslarning xilma-xilligi bilan bir xil antiviruslar talab qilinadi.

Viruslardan himoyalaniish uchun antivirus dasturlarini ishlatishdan tashqari, tashkiliy xavfsizlik choralari ham keng qo'llaniladi. Virusli hujumlar xavfini kamaytirish uchun har bir aniq

holat uchun kamaytirilishi yoki kengaytirilishi mumkin bo'lgan muayyan harakatlarni amalga oshirish mumkin. Mana bu harakatlardan ba'zilari:

1. Korxonaning barcha xodimlarini virusli hujumlar sodir bo'lgan taqdirda xavf va mumkin bo'lgan zarar haqida xabardor qilish.
2. Dasturiy ta'minotni almashish (qabul qilish) uchun boshqa korxonalar bilan rasmiy aloqalarni olib bormang. Xodimlarga axborotni qayta ishlash tizimlariga o'rnatish uchun dasturlarni "tashqaridan" olib kelishni taqiqlash. Faqat rasman tarqatilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish kerak.
3. Xodimlarga kompyuterda maxfiy ma'lumotlarni qayta ishlaydigan kompyuter o'yinlaridan foydalanishni taqiqlash.
4. Uchinchi tomon axborot tarmoqlariga kirish uchun alohida alohida joy ajratib bering.
5. Dasturlar va ma'lumotlar nusxalarining arxivini yarating.
6. Vaqti -vaqti bilan nazorat yig'indisi yoki "toza" dasturlar bilan taqqoslash.
7. Axborot xavfsizligi tizimlarini ayniqsa muhim shaxsiy kompyuterlarga o'rnatish. Maxsus antivirus vositalarini qo'llang.

Axborotni dasturiy himoyalash - bu axborot xavfsizligi funktsiyalarini bajaruvchi dasturiy ta'minot tarkibiga kiruvchi maxsus dasturlar tizimi.

Axborot xavfsizligi vositalari - bu muhandislik, elektr, elektron, optik va boshqa qurilmalar va qurilmalar, qurilmalar va texnik tizimlar, shuningdek, axborotni himoya qilishning turli muammolarini hal qilish uchun ishlatiladigan boshqa moddiy elementlar, shu jumladan, qochqinning oldini olish va himoyalangan ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash.

Umuman olganda, amalga oshirish uslubiga qarab, qasddan qilingan harakatlarning oldini olish nuqtai nazaridan axborot himoyasini ta'minlaydigan vositalarni guruhlariga bo'lish mumkin:

- **Texnik** (apparat. Bu apparat xavfsizligi muammolarini hal qiladigan har xil turdagi (mexanik, elektromexanik, elektron va boshqalar) qurilmalar. Ular jismoniy kirishga to'sqinlik qiladi, yoki agar u kirgan bo'lsa, ma'lumotga kirishni, shu jumladan uni maskalash orqali. Muammoning birinchi qismi qulflar, deraza panjaralari, xavfsizlik signallari va boshqalar bilan hal qilinadi. Ikkinchisi - shovqin generatorlari, quvvat filtrlari, skanerlash radiolari

va potentsial axborot oqish kanallarini "to'sib qo'yadigan" yoki ularni aniqlashga imkon beradigan boshqa ko'plab qurilmalar. Texnik vositalarning afzalliklari ularning ishonchliligi, sub'ektiv omillardan mustaqilligi va modifikatsiyaga yuqori qarshilik bilan bog'liq. Kamchiliklari - egiluvchanlikning yo'qligi, nisbatan katta hajm va vazn, yuqori narx.

- **Dasturiy ta'minot** vositalarga foydalanuvchilarni identifikatsiyalash, kirishni boshqarish, ma'lumotlarni shifrlash, vaqtinchalik fayllar kabi qoldiq (ishchi) ma'lumotlarni o'chirish, himoya tizimini test nazorati va h.k. dasturlari kiradi, dasturiy vositalarning afzalliklari ko'p qirrali, egiluvchanlik, ishonchlilik, o'rnatish qulayligi, o'zgartirish va rivojlantirish qobiliyati. Kamchiliklari - tarmoq funksiyalarining cheklanganligi, fayl serveri va ish stantsiyalarining ba'zi manbalaridan foydalanish, tasodifiy yoki qasddan qilingan o'zgarishlarga yuqori sezuvchanlik, kompyuter turlariga (ularning apparati) bog'liq bo'lishi mumkin.

- **Aralashgan** apparat / dasturiy ta'minot apparat va dasturiy ta'minot bilan bir xil funktsiyalarni alohida bajaradi va oraliq xususiyatlarga ega.

- **Tashkiliy** mablag'lar tashkiliy -texnik (kompyuter bilan jihozlangan xonalarni tayyorlash, unga kirishni cheklash talablarini inobatga olgan holda kabel tizimini yotqizish va boshqalar) va tashkiliy -huquqiy (milliy qonunchilik va ma'lum bir tashkilot rahbariyati tomonidan belgilangan ish qoidalaridan iborat). Tashkiliy vositalarning afzalliklari shundaki, ular sizga har xil muammolarni hal qilish imkonini beradi, amalga oshirish oson, tarmoqdagi kiruvchi harakatlarga tez javob beradi, o'zgartirish va rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Kamchiliklari - sub'ektiv omillarga yuqori darajada bog'liqlik, shu jumladan ma'lum bir bo'limda ishni umumiy tashkil etish.

Tarqatish va mavjudlik darajasiga ko'ra, dasturiy vositalar ajratiladi, boshqa vositalar esa axborotni himoya qilishning qo'shimcha darajasi zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

Axborot xavfsizligi uchun dasturiy ta'minot

- O'rnatilgan axborot xavfsizligi
- Antivirus dasturi (antivirus) - kompyuter viruslarini aniqlash va zararlangan fayllarni davolash, shuningdek profilaktika - fayllar yoki operatsion tizimning zararli kod bilan yuqishini oldini olish dasturi.
- AhnLab Janubiy Koreyadan
- ALWIL dasturi (avast!) - Chexiya (bepul va pulli versiyalari)
- AOL Virusdan himoyalaniş AOL Xavfsizlik va Xavfsizlik Markazi tarkibida
- ArcaVir - Polsha
- Authentium - Buyuk Britaniya
- AVG (GriSoft) - Chexiya Respublikasi (bepul va pulli versiyalar, shu jumladan xavfsizlik devori)
- Avira - Germaniya (bepul klassik versiyasi bor)
- AVZ - Rossiya (bepul); real vaqtda monitor yo'q
- BitDefender - Ruminiya
- BullGuard - Daniya
- ClamAV - GPL litsenziyasi (bepul, ochiq manba); real vaqtda monitor yo'q
- Computer Associates - AQSh
- Dr.Web - Rossiya
- Eset NOD32 - Slovakiya
- Fortinet - AQSh
- Frisk dasturi - Islandiya
- F-PROT - Islandiya
- F-Secure-Finlyandiya (ko'p dvigatelli mahsulot)
- G-DATA-Germaniya (ko'p dvigatelli mahsulot)
- GeCAD - Ruminiya (2003 yilda Microsoft tomonidan sotib olingan)
- IKARUS - Avstriya
- H + BEDV - Germaniya
- Xauri Janubiy Koreyadan
- Microsoft Security Essentials - Microsoft -dan bepul antivirus
- MicroWorld Technologies - Hindiston
- MKS - Polsha

- MoonSecure - GPL litsenziyasi (bepul, ochiq manba), ClamAV kodiga asoslangan, lekin real vaqtda monitorga ega
 - Norvegiyadan Norman
 - NuWave Software - Ukraina (AVG, Frisk, Lavasoft, Norman, Sunbelt dvigatellari yordamida)
 - Outpost-Rossiya (ikkita dasturiy taʼminotga qarshi vosita ishlatiladi: VirusBuster antivirusi va oʻziga xos dizayndagi sobiq Tauscan josuslarga qarshi dastur)
 - Panda dasturiy taʼminoti - Ispaniya
 - Tez shifo antivirusi - Hindiston
 - Xitoydan koʻtarilgan
 - ROSE SWE - Germaniya
 - Safe'nSec - Rossiya
 - Oddiy antivirus - Ukraina
 - Sofos - Buyuk Britaniya
 - Spyware Doctor - antivirus dasturi
 - Stiller tadqiqotlari
 - Sybari dasturi (2005 yil boshida Microsoft tomonidan sotib olingan)
 - Trend Micro - Yaponiya (nominal Tayvan / AQSh)
 - Trojan Hunter - antivirus dasturi
 - Universal antivirus - Ukraina (bepul)
 - VirusBuster - Vengriya
 - ZoneAlarm AntiVirus - AQSh
 - Zillya! - Ukraina (bepul)
-
- Kasperskiy antivirusi - Rossiya
 - VirusBlokAda (VBA32) - Belarusiya
 - Ukraina milliy antivirusi - Ukraina
-

Ma'lumotni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun maxsus dasturiy vositalar, o'rnatilgan vositalarga qaraganda, odatda, yaxshiroq imkoniyat va xususiyatlarga ega. Shifrlash dasturlari va kriptografik tizimlardan tashqari, boshqa ko'plab tashqi axborot xavfsizligi vositalari mavjud. Eng tez -tez tilga olinadigan yechimlardan, axborot oqimini cheklash va nazorat qilish imkonini beradigan quyidagi ikkita tizimni qayd etish lozim.

Xavfsizlik devorlari (shuningdek, xavfsizlik devorlari yoki xavfsizlik devorlari deb ataladi - undan). *Brandmauer*, eng. *xavfsizlik devori*-

"olov devori"). LAN va WAN o'rtasida ular orqali o'tadigan barcha tarmoq / transport qatlamlari trafisini tekshiradigan va filtrlaydigan maxsus oraliq serverlar yaratiladi. Bu korporativ tarmoqlarga tashqaridan ruxsatsiz kirish xavfini keskin kamaytirishi mumkin, lekin bu xavfni to'liq bartaraf eta olmaydi. Usulning xavfsizroq versiyasi - bu maskarad, mahalliy tarmoqdan keladigan barcha trafik xavfsizlik devori serveri nomidan yuborilganda, mahalliy tarmoq deyarli ko'rinmas bo'ladi.

Xavfsizlik devorlari

Bepul	Ashampoo FireWall bepul Comodo Core Force Online zirhli kompyuter asboblari PeerGuardian Sygate zonasi signalizatsiyasi.
Mulkiy	Ashampoo FireWall Pro AVG Internet Security CA shaxsiy xavfsizlik devori Jetico Kasperskiy Microsoft ISA Server Norton Outpost Trend Micro Windows xavfsizlik devori Sunbelt WinRoute
Uskuna	Fortinet Cisco Juniper nazorat punkti
FreeBSD	IPfw IPFilter
Mac OS	NetBarrier X4 (inglizcha)
Linux	Netfilter (Iptables Firestarter Iplist NuFW Shorewall)

Proksi -serverlar (proksi - ishonchnoma, ishonchli shaxs). Mahalliy va global tarmoqlar orasidagi barcha tarmoq / transport qatlamlari trafisi butunlay taqiqlangan - bunday yo'nalish yo'q va mahalliy tarmoqdan global tarmoqqa qo'ng'iroqlar maxsus vositachi serverlar orqali amalga oshiriladi. Shubhasiz, bu holda global tarmoqdan mahalliy tarmoqqa qo'ng'iroqlar printsipl jihatdan imkonsiz bo'lib qoladi. Bu usul yuqori darajadagi hujumlardan - masalan, dastur darajasida (viruslar, Java kodi va JavaScript) etarli darajada himoyalaniшни ta'minlamaydi.

- VPN (virtual xususiy tarmoq) ruxsatsiz odamlar trafikni tinglashi mumkin bo'lgan tarmoqlar orqali nozik ma'lumotlarni uzatish imkonini beradi. Ishlatiladigan texnologiyalar: PPTP, PPPoE, IPSec.

Axborot xavfsizligi uskunalari

Uskuna himoya vositalariga turli xil elektron, elektromekanik, elektro-optik qurilmalar kiradi. Bugungi kunga kelib, turli maqsadlar uchun uskunalarning katta qismi ishlab chiqilgan, ammo quyidagilar eng ko‘p ishlatiladi:

- xavfsizlik ma’lumotlarini saqlash uchun maxsus registrar: parollar, identifikator kodlari, shtamplar yoki maxfiylik darajalari;
- shaxsni aniqlash uchun uning individual xususiyatlarini (ovoz, barmoq izlari) o‘lchash asboblari;
- ma'lumotlar uzatish manzilini vaqti -vaqti bilan tekshirish maqsadida, aloqa liniyasida ma'lumot uzatishni to'xtatish sxemalari.
- ma'lumotlarni shifrlash qurilmalari (kriptografik usullar).

Axborotni himoya qilishning texnik vositalari

Axborot tizimining perimetrini himoya qilish uchun quyidagilar yaratilmoqda: xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi; raqamli video kuzatuv tizimlari; kirishni boshqarish tizimlari (ACS). Axborotni texnik aloqa kanallari orqali uning oqishidan himoya qilish quyidagi vositalar va chora -tadbirlar yordamida ta'minlanadi: ekranlangan kabeldan foydalanish va ekranlangan inshootlarda sim va kabellarni yotqizish; aloqa liniyalariga yuqori chastotali filtrlarni o'rnatish; ekranlangan xonalarni qurish ("kapsulalar"); himoyalangan uskunalardan foydalanish; faol shovqin tizimlarini o'rnatish; nazorat qilinadigan hududlarni yaratish.

Moliyaviy lug‘at

Davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarni himoya qilish uchun mo‘ljallangan texnik, kriptografik, dasturiy va boshqa vositalar, ular qo‘llaniladigan vositalar, shuningdek axborotni himoya qilish samaradorligini nazorat qilish vositalari.

Axborot xavfsizligi vositalari- davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarni himoya qilish uchun mo‘ljallangan texnik, kriptografik, dasturiy ta‘minot va boshqa vositalar, ular qo‘llaniladigan vositalar, shuningdek axborotni himoya qilish samaradorligini nazorat qilish vositalari ...

Axborot xavfsizligi uchun dasturiy ta‘minot - bu KS dasturiy ta‘minotiga faqat himoya funktsiyalarini bajarish uchun kiritilgan maxsus dasturlar.

Axborotni himoya qilishning asosiy dasturiy vositalariga quyidagilar kiradi:

- * KS foydalanuvchilarini aniqlash va autentifikatsiya qilish dasturlari;
- * foydalanuvchilarning COP resurslariga kirishini farqlash dasturlari;
- * ma'lumotlarni shifrlash dasturlari;
- * axborot resurslarini (tizimli va amaliy dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazalari, kompyuter o'qitish vositalari va boshqalar) ruxsatsiz o'zgarishlardan, foydalanish va nusxalashdan himoya qilish dasturlari.

Shuni tushunish kerakki, KUning axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq identifikatsiya - bu KU sub'ektining yagona nomini aniq tan olish. Autentifikatsiya - bu taqdim etilgan ism berilgan mavzuga mos kelishini tasdiqlash (sub'ektning shaxsini tasdiqlash)

Shuningdek, axborot xavfsizligi dasturiga quyidagilar kiradi:

- * qoldiq ma'lumotlarni yo'q qilish dasturlari (RAM bloklarida, vaqtinchalik fayllar va hk);
- kompressor stantsiyasining xavfsizligi bilan bog'liq hodisalarni tekshirish (jurnallarni yuritish) dasturlari, bu hodisalarning qayta tiklanish imkoniyatini va sodir bo'lish faktini isbotlashni ta'minlash;
- * huquqbuzar bilan ishlashni simulyatsiya qilish dasturlari (uni maxfiy ma'lumotlarni olishga chalg'itadi);
- * COP xavfsizligini sinovdan o'tkazish dasturlari va boshqalar.

Axborot xavfsizligi dasturining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- * replikatsiya qulayligi;
 - * moslashuvchanlik (ma'lum bir CS axborot xavfsizligiga tahdidlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, har xil foydalanish shartlariga moslashtirish qobiliyati);
 - * foydalanish qulayligi – ba'zi dasturiy vositalar, masalan, shifrlash, "shaffof" (foydalanuvchiga ko'rinmas) rejimda ishlaydi, boshqalari esa foydalanuvchidan hech qanday yangi (boshqa dasturlarga nisbatan) ko'nikmalarni talab qilmaydi;
 - * axborot xavfsizligiga yangi tahdidlarni hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritish orqali ularni rivojlantirish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlar.
-

LABORATORIYA MASHG'ULOTI MAVZULARI

1-MAVZU: SETUP DASTURI YORDAMIDA

KOMPYUTERLARNI SOZLASH

Ishning maqsadi: BIOS haqida boshlang'ich ma'lumotlar olish. Kompyuterning boshlang'ich sozlamalarini amalga oshirish usullari bilan tanishish. BIOS dasturiy va qurilmaviy sozlashlarini o'rganish.

Kerakli jihozlar: kompyuter, operasion sistema, dastur.

Masalaning qo'yilishi:

1. BIOS haqida ma'lumotlar olish.
2. BIOSni dasturiy o'rganish.
3. BIOSni qurilmaviy o'rganish.

Qisqacha nazariy ma'lumot:

Ofislardagi shaxsiy kompyuter va qurilmalarni elektr manbaiga ulashdan so'ng ularni ishlatishda BIOS dan foydalaniladi. U tizim platada joylashgan alohida mikrosxema bo'lib, faqat o'qish va saqlash rejimlarida ishlaydi, yozish mumkin emas. U energiyaga bog'liq emas, chunki alohida akkumlyator batareykasidan ta'minlanadi. BIOS hajmi kichik bo'lib, unda ishlab chiqarilgan zavodda dasturlar yoziladi va doimiy saqlanishi uchun akkumlyator batareykasidan energiya bilan ta'minlanadi. Dasturning asosiy vazifasi kompyuter tok manbaiga qo'shilgandan so'ng, avtomatik ravishda barcha qurilmalarning ish faoliyatini nazorat qiladi. U quyidagi amallarni bajaradi:

Kompyuterning asosiy qurilmalarini testdan o'tkazish. Asosiy qurilmalarda nosozlik uchramaganda operatsion sistemaning boshlang'ich yuklash modulini operativ xotiraga yuklaydi.

Operatsion sistemaning qolgan modullarini tashqi tezkor xotiraga yuklaydi.

BIOS (doimiy xotira) — Pentuum tipidagi kompyuterlarda mavjud bo'lib, ulardagi ma'lumotlar mikrosxema tayyorlanayotganda yoziladi. Bu ma'lumotlardan keyinchalik kompyuter ishlayotganda faqat o'qish uchun foydalaniladi.

BIOS - bu termin bazali kiritish - chiqarish sistemalarisining asosidir. BIOS dastur va apparat simlari o'rtasidagi bog'lovchi hisoblanadi. Bazali kiritish - chiqarish istemalarining asosi, bu kombinatsiyalash BIOS lar va qiymatlar uchun yuklanadigan drayverlardir. BIOS ning bir qismi tizim platadagi mikrosxemaga

joylashadi va u Firm Ware deb nomlanadi (aynan mana shu mikrosxema foydalanuvchi BIOS ni kompyuterdan apparat qismiga o'tkazadi).

Operatsion sistema o'z o'rnida BIOS orqali apparat ta'minotiga murojaat qiladi. Bu bog'lanish drayver qurilmalar ko'rinishida amalga oshiriladi.

BIOS (Basic Input/Output System) — asosiy kiritish-chiqarish tizimi bo'lib, **motherboard** (материнская плата) da alohida chip sifatida ishlaydi. Bu chipning vazifasi kompyuter va operatsion tizimni bir-biriga bog'lashdan iborat. Har safar kompyuter yoqilganda dastlab BIOS ishlaydi, kompyuter uskunalari parametrlarini tekshiradi va operatsion tizim yuklanuvchi fayliga(dasturiga) o'z ishini beradi (NTLDR, bootmgr).

Kompyuter yongandagi har xil yozuvlar va tovushning chiqishi, ROM(Read Only Memory) xotirada yozilgan BIOSning ishi.

BIOS quyidagi vazifalarni bajaradi:

—kompyuterni faollashtirish, barcha elementlarini boshlang'ich holatga keltirish;

—kompyuter qurilmalarini dastlabki tekshiruvini amalga oshiradi (POST-test);

—kompyuter qurilma qismini dastlabki sozlash ishlarini amalga oshiradi;

—tizim resurslarini taqsimlaydi;

—PCI qurilmalarini ro'yxatdan o'tkazish va sozlash;

—operatsion tizimni dastlabki yuklanishini amalga oshiradi(bootmgr);

—qurilmalarni bir-biri bilan moslashuvini tekshiradi;

—elektr ta'minotini boshqarish, kompyuterni o'chirish, uxlash holatiga o'tkazish.

BIOS ni to'g'ri sozlash, kompyuter ishlashiga ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun dastlab shu dasturchani yaxshi o'rganib olish lozim. Har xil turdagi motherboard lar uchun har xil BIOS turlarini ishlatishadi, shuning uchun bitta yagona qo'llanma qilishning iloji yo'q, lekin asosi baribir bir xil. Protsessorlarning turi rivojlangan sari, BIOS sozlashlari ham qiyinlashib bormoqda. Bu esa, qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirmoqda. BIOS dasturini asosan quyidagi firmalar ishlab chiqishadi:


1. **American Megatrends (AMI);**
2. **Award Software;**
3. **Phoenix Technologies.**

BIOS turiga qarab, uning ko'rinishi ham o'zgarib boradi, uning turidan tashqari bir necha versiyalari ham mavjud, bu versiyalar ham yangilanib borishi lozim.


Award Software tomonidan ishlab chiqilgan **BIOS** dasturlari eng ommalashgan turi. Sal tushunarli bo'lishi uchun BIOSning ba'zi versiyalarini rasmlarda ko'rsatib o'tamiz.



147-rasm. Award BIOS versiyasi 4.51 PG.



148-rasm. AWARD BIOS versiyasi 6,0.




149-rasm. AWARD + PHOENIX BIOS dasturi interfeysi.

Birgalikda ishlagan, zamonaviy platalarda shunaqa BIOS lar uchraydi.

BIOS versiyasi va ishlab chiqqan firmasini Windows operatsion tizim orqali quyidagicha ko‘rish mumkin:

Пуск → Выполнить → msinfo32



150-rasm. Windows OTda (msinfo32) tizim haqida axborotlar

Bundan tashqari, **Everest**, **Sandra**, **siw** kabi utilitalar orqali ham kompyuteringizga o'rnatilgan BIOS haqida ma'lumot olishingiz mumkin bo'ladi.

Foydalanuvchi dastur va apparat qismlarini farqlay olmaydi. Buni yuqori darajadagi komponentlar sistemasi orqali tushuntirish mumkin. To'liq ma'lumotni bizga BIOS tushunchasi beradi. Doimiy xotira kompyuter vositalarini tekshirish, operatsion sistema (OS, misol uchun Windows) ni yuklanishini amalga oshirish va kompyuter qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi ichki (baza) funksiyalarini bajaradi. Bu funksiyalarning asosiy qismini kiritish-chiqarish xizmatidagi dasturlar tashkil yetgani uchun mazkur dasturni BIOS (Basic Input Output System yoki bazali kiritish-chiqarish sistemasi) deyiladi. BIOS da shuningdek kompyuter konfiguratsiyasini sozlovchi SETUP dasturi ham joylashgan bo'ladi. Bu dastur qurilmalarning ba'zi bir xarakteristikalarini o'rnatish (videokontroller, qattik disk va disk yurituvchi qurilma, undan tashqari parollar o'rnatish va boshqalar) ga xizmat qiladi. Bu dastur ishlashini, kompyuterni har safar yuklashda va qayta yuklashlarda ko'rish mumkin.

BIOS dastur va apparat qismlari sistemasi o'rtasida «oraliq qatlamni» hosil qiladi. Ko'pchilik foydalanuvchilar BIOS ostida drayver uskunalarini tushunishadi.

Kiritish – chiqarish sistemasi – bu BIOS ning kombinatsiyasi, shuningdek yuklanadigan drayverlar tuzilishi sistemali platadagi

mikrosxemada saqlanuvchi BIOS ning bir qismi firvare - deb ataladi.

Operatsion sistema modullari o'z navbatida BIOS ning kengaytirilgan modulli hisoblanadi va shu orqali apparat ta'minotiga murojat qiladi. Bu aloqa drayver dastur ko'rinishida bo'lib, har bir operatsion sistema (DOS, Windows 9X, Windows NT, Windows 2000/OS/2, Linux) o'z drayveriga ega bo'ladi. BIOS ga turli qurilmalar o'rnatilganda, standart interfeysni operatsion sistemalarga ta'minlaydi.

BIOS FEATURES SETUP bo'limi.

Virus warning (virus haqida ogohlantirish) – bu parametrni o'rnatish kompyuterdan foydalanuvchining ruxsatisiz qattiq diskning yuklash sektoridagi barcha yozuvlarni taqiqlaydi. U yuklash sektorini zararlovchi boot – viruslar deb ataluvchi viruslardan himoya qilish uchun kiritilgan. Bu parametrni har doim qo'llash tavsiya etiladi, lekin masalan, Windows 95 o'rnatishda

–osilib qoladi. Agar virus warning enable o'rnatilsa bunda ekranda qora kvadrat paydo bo'ladi.

CPU Internal Cache/External Cache (protssorning ichki-tashqi keshi). Protssorning ichki va tashqi keshi ruxsat etiladi/taqiqlanadi. Qaysidir tur kesh –xotirani faqat kompyuter ishining sun'iy zaruriyati bo'lgan holatlardagina, masalan, qaysidir eski kengayish platasini o'rnatishda taqiqlash mumkin.

CPU level 1 Cache/ CPU Level 2 Cache (1 bosqich protsessor keshi/ 2 bosqich protsessor keshi) – 1 bosqich keshi yoki 2 bosqich protsessor keshi Pentium Pro (Pentium 2, Deshutes va h.k.) arxitekturali protsessorlar uchun ruxsat etiladi/ taqiqlanadi. Biror tur kesh xotirani faqat kompyuter ishida sun'iy sekinlatish zaruriyati bo'lgan holatda, masalan, eski kengayish platasini o'rnatishda taqiqlash mumkin. CPU Level 2 cache ECC Check (2 bosqich protsessorining kesh-xotirasi uchun ECC ni ulash kiritish – parametr faqat Pentium II arxitekturasidagi protsessorlarning platalari uchun ishtirok etishi mumkin. Unga, agar o'rnatilgan Pentium II sinf protsessori ECC nazorati mavjud ikkinchi bosqich kesh – xotiraga ega bo'lsa ruxsat etiladi. Ba'zi protsessorlarda xatoga yo'l qo'yilgan va bu rejimni kiritish kompyuterning beqaror ishlashiga olib keladi.

NDD SMART Capability (SMART diagnostikasi imkoniyati) – qattiq diskning holatini SMART standarti talablariga muvofiq diagnostika qilish mumkinligiga ruxsat etish/ taqiqlash imkonini

beradi. BIOS mualliflari, afsuski, BIOSda SMART diagnostikasining harakatlanish mexanizmini ko'rsatmaydilar, shuning uchun qattiq diskdagi axborotlarga qanday yo'l bilan ishlov berilishi unchalik tushunarli emas, shuning uchun qattiq disk parametrlarining chegaralangan mazmuni aniq ishlab chiqaruvchiga bog'liq. Parametrga ruxsat etishda va qattiq diskning normal ishlashi buzilganda BIOS, ekranda kompyuterning xarakteristikasi berilgan jadval paydo bo'lguncha tegishli xabarni beradi. Shuni hisobga olish kerakki, bu parametrga ruxsat etish kompyuterning unumdorligini bir necha foizga kamaytiradi.

Quick Power On Self Test (Kompyuterning ta'minlash ulangandan keyingi jadal testi)- bu parametrga ruxsat etish (yo'l qo'yish) BIOS bilan kompyuterning boshlang'ich test o'tkazish vaqtini sezilarli qisqartirishga olib keladi. Ayniqsa katta hajmlardagi operativ xotirada qisqartirishga ancha sezilarliro'y beradi. Faqat shuni hisobga olish kerakki, xotira masalan, bunday holatda testdan o'tkazilmaydi, faqat uning o'lchami aniqlanadi.

BOOT Sequence (yuklash ketma-ketligi) – bu parametr qurilmalar bo'yicha so'rov o'tkazish ketma-ketligini shakllantiradi, ular yordamida OT ga vazifa yuklanishi mumkin. Bu qurilmalar yoki fizik qattiq disklar va oddiy disk yurituvchilar uchun harflar bilan, yoki qurilma nomi bilan belgilanadi: CD-Rom to'plagichlar uchun CD-ROM; a to'plagichlar uchun 120 Mb li drayv LS yoki 100 Mbli ZIP IDE to'plagichlar uchun ZIP . Zamonaviy talqinlar uchun ifodalar quyidagicha bo'lishi mumkin: A, C; C only; CD-ROM, C; C, A; D, A; LS /ZIP, C. SWAP Floppy Drive (Disk yurituvchilarning o'rnini almashtirish) – Agar ruxsat etilgan bo'lsa A va B disk yurituvchi o'rin almashadi. Bu kompyutyerda ikkita disk yurituvchi mavjud bo'lgandagina ma'noga ega.

BOOT UP NUMLOCK STATUS (Kompyuterning qamrab olishiga ko'ra raqamli klaviaturaning ulanishi) – bu parametrga ruxsat etish indekator NUMLOCKni o'z ichiga oladi va raqamli klaviatura raqamlar va belgilar kodlarini hoisil qiladi, aks holda yo'nalishlar kodi INS, Del va boshqalar yuzaga keladi.

OS/2 Onboard Memory > 64 Mb (OS/2 uchun belgi tanlash, agar xotira 64 Mb dan ortiq bo'lsa) – ikkita shartni bajarishga ruxsat etish talab etiladi- kompyutyerda 64 Mb dan ortiq xotira o'rnatilganda va OS/2 OT ini sifatida foydalanilganda. PCI / VGI Palette Snoop

(PCI da VGI videokartasi palitrasini to'g'rilash) – agar ekranda ranglar noto'g'ri tasvirlansa, bu parametrga ruxsat etiladi. Odatda bu natija MPEG kartalar, 3D tezlatkichlar va b.kabi nostandart qurilmalardan foydalanilganda yuzaga kelishi mumkin.

Chipset FEATURES SETUP bo'limi.

FPM DRAM, EDO DRAM va Synchronous DRAM uchun parametrlarni belgilaydi. AUTO CONFIGURATION (avtomatik konfiguratsiya) – 3 belgiga mazmunga ega:

60 ns – tez ta'sir etuvchi 60 nsli DRAM ga kirish parametrlarini belgilaydi.

70 ns - tez ta'sir etuvchi 70 nsli xotira uchun parametrlarni belgilaydi;

DISABLED (taqiqlangan) – DRAM xotirasiga kirish mumkin bo'lgan barcha parametrlarini belgilash imkonini beradi.

DRAM RAS# PRECHARGE TIME (RAS bo'yicha avvaldan zaryadlash vaqti) – bu funksiya RAS signalini shakllantirish uchun tizimli shinning taktlarini sonini aniqlash imkonini beradi. Bu ifodaning kamaytirilishi tez ta'sir etishni orttiradi, ammo aniq xotira uchun haddan tashqari kamaytirish ma'lumotlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. *Quyidagi ifodalarni qabul qiladi: 3 yoki 4.*

DRAM R/W Leadoff Timing (O'qish- yozish operatsiyalarini bajarishga tayyorlashdagi taktlar soni) – DRAM bilan barcha operatsiyalarni bajarishgacha shinningdagi taktlar sonini belgilaydi. Parametr quyidagi ifodalarni (ma'nolarni) qabul qilishi mumkin:

8/7 – O'qish uchun 8 takt va yozish uchun 7 takt;

7/5 - O'qish uchun 7 takt va yozish uchun 5 takt;

DRAM RAS to CAS delay (RAS va CAS orasidagi to'xtam) – xotiraga kirish vaqtida ustunlar va qatorlarga yurish bir-biridan alohida bajariladi. Bu parametr bir signalning boshqasidan ma'lum masofada bo'lishini aniqlaydi. Parametr quyidagi ifodalarni qabul qilishi mumkin:

3- 3 takt to'xtam;

2- 2 takt to'xtam;

Bu ma'noni (ifodani) kamaytirish tez ta'sir etishni orttiradi.

DRAM READ BURST Timing (xotirani paketli o'qish vaqti) – O'qish va yozishga talab protsessor yordamida 4 ta alohida fazoda yuzaga keltiriladi. 1 fazoda xotiraning ma'lum sohasiga murojaat

etishga xarakat qilinadi, qolganlarida asosan ma'lumotlarni o'qish ro'y beradi. Parametr quyidagi ifodalarni qabul qilishi mumkin:

X 2222- 2 takt ushlab turish;

X 3333- 3 takt ushlab turish;

X 4444- 4 takt ushlab turish.

Taktlarni umumiy miqdorini kamaytirish tez harakatlanishni orttiradi .

SDRAM CONFIGURATION (SDRAM Konfiguratsiyasi) – bu parametr bilan BIOS dasturi SPD blokidagi axborotlarga asoslanib xotiraga kirishni o'tkinchi tavsiflarini aniqlashi zarurmi yoki buni kompyutyerdain foydalanuvchi bajarishi kerakligi aniqlanadi. Quyidagi ifodalarni qabul qilishi mumkin:

By SPD – kirish parametrlari SPD bo'yicha belgilanadi

7ns (143 MHz) –kirish parametrlari 7ns kirish vaqtli xotirasi uchun va 143 MHz shinasi chastotasi kabi BIOS yordamida belgilanadi.

8ns (125 MHz)-kirish parametrlar 8 ns kirish vaqtli xotirasi uchun va 125 MHz shinaning chastotasi kabi BIOS bilan belgilanadi.

Disabled –foydalanuvchi tomonidan o'rnatiladi

SDRAM RAS Precharge TIME (sinxron xotira avvaldan zaryadlash vaqti)-bu parametr xotirani regenerasiyalash sikli boshlanguncha RAS bo'yicha zaryadni tez yoki sekin to'planishini aniqlashga imkon beradi. FAST ifodasini o'rnatish tez harakatni orttiradi, ammo SLOW kompyuter ishining stabilligini orttiradi, shuning uchun FAST ifodasini, xotiraning sifatiga ishonch bo'lgan holatlarda o'rnatish kerak.Quyidagi ifodalarni qabul qilishi mumkin:

FAST –tez

SLOW -sekin

SDRAM (CAS LAT/RAS –to -CAS) (sinxron xotira –CAS /OT RAS ning CASga to'xtatilishi) –bu parametr CAs signali davomiyligi va RAs va CAS signallari orasidagi ushlab turishlarning o'zaro qo'shilishiga imkon beradi. Bu paramertning mazmuni ona platada qo'llangan SDRAMning xarakteristikalariga va protsessorning tez harakatlanishiga bog'liq. Shuning uchun, bu parametrni o'zgartirishga juda extiyotkorlik zarur. Ushbu ifodalarni qabul qilishi mumkin:

SDRAM CAS to RAS DELAY (CAS va RAs orasidagi ushlab turish)- parametr sinxron xotira uchun CAS signali paydo bo'lguncha RAs signali uzatilishidan keyingi ushlab turishning ifodasini aniqlaydi. Bu ifoda (belgi) qancha kam bo'lsa, xotiraga kirish shunchalik tez ro'y beradi. Parametr quyidagi ifodalarni qabul qilishi mumkin:

3 takt ushlab turish ; 2 takt ushlab turish;

SDRAM CAS # LATENCY (SDRAM uchun CAS toxtalishi) – SDRAM uchun CAS sugnalini berilishining ushlab turishi ifodasini belgilaydi. Bunday ifodaning kam bo'lishi tizim unumdorligini oshiradi. 10 ns yoki undan yaxshi tez harakatlanuvchi SDRAM uchun bu ifodani kamroq o'rnatish tavsiya etiladi.

SDRAM BANKS CLOSE POLICY (SDRAM xotira banklarining yopilish qoydasi) – bu parametr 440 LX to'plamli plata uchun shu sababli kiritilganki 2 bankli tuzilishga ega bo'lgan xotira, agar xotira banklariga kirish parametrlarini yashirishga asosan o'rnatilgan bo'lsa, bu platalarda noto'g'ri ishlaydi. 430 TX to'plamida bu talab qilinmagan, chunki turli xotiralarga kirish qoyidasi bir xil edi. BIOS qurilmasini yashirinch qo'zg'artirish bu parametr uchun faqat xotiraning beqaror ishlash holatidagina mumkin ushbu ifodalarni qabul qilishi mumkin:

PAGE Miss – 2 bankli xotira uchun qo'llanadi;

ORBITRATION – 4 bankdagi xotira uchun

DRAM IDLE Timer (xotiraning nafaol (passiv) holati taymeri)- bu parametr bilan xotiraning barcha ochilgan betlari yopilguncha ketgan vaqt belgilanadi. EDO xotiraga qanday ta'sir etsa, SDRAM xotiraga ham xuddi shunday ta'sir ko'rsatadi. 0, 2, 4, 8, 10, 12, 16, 32 kabi ifodalarni qabul qilishi mumkin.

SNOOP AHEAD (Oldindan payqash) – bu parametrga ruxsat etish PCI va xotira o'rtasida ma'lumotlar oqimini almashinish imkonini beradi. Ushbu fodalarni qabul qilishi mumkin:

Enabled – ruxsat etilgan ; Disabled – taqiqlangan;

HOST BUS FAST DATA READY (shinadagi ma'lumotlarning tez tayyorlanishi) – bu parametrga ruxsat etish shinadagi ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida tanlab olish bilan qolganlarini chiqarib tashlash imkonini beradi. Aks holda ma'lumotlar shinada

bitta qo'shimcha takti ushlab qoladi. Ushbu ifodalarni qabul qilishi mumkin:

Enabled – ruxsat etilgan ;

Disabled – taqiqlangan

REFRESH RAS # ASSERTION (tiklashda RAS ning vazifasi) – bu parametr bilan tiklash sikli uchun taktlar miqdori (ya'ni RAS davomiyligi) belgilanadi. Qabul qilingan ifodalar xotiraning sifati va mikrosxemalar yig'indisi bilan aniqlanadi. Kamroq ifodalar unumdorlikni oshiradi.

MA WAIT STATE (xotira o'qilguncha kutish taktlari) – bu parametr xotirani o'qish boshlanguncha qo'shimcha kutish taktini o'rnatish yoki chiqarib tashlash imkonini beradi . EDO tipidagi xotira uchun yashirin bitta takt har doim bor va **slow** ifodasini o'rnatish yana bitta kutish taktini qo'shadi. SDRAM uchun yashirin kutish takti yo'q va **slow**ni o'rnatish bitta takti qo'shadi. Ushbu ifodalarni qabul qilishi mumkin:

Slow – bitta takt qo'shiladi

FAST – qo'shimcha kutish takti yo'q

SDRAM Speculative read (Sdram o'zib ketuvchi o'qish) – bu parametrga ruxsat etish manzil kodi ochilishidan biroz oldinroq, o'qish signalini berishga imkon yaratadi. Bu usul o'qish operatsiyasiga sarflanadigan umumiy vaqtni kamaytiradi. Boshqacha aytganda, protsessor o'qish signalini zarur ma'lumotlar mavjud bo'lgan manzil bilan bir vaqtda paydo bo'lishini tashkil etadi va agar **SDRAM Speculative read** ruxsat etilgan bo'lsa, nazoratchi manzil kodi ochilishidan biroz oldinroq o'qish signalini berishga imkon yaratadi. Bu usul o'qish operatsiyasiga sarflanadigan umumiy vaqtni kamaytiradi. Boshqacha aytganda protsessor o'qish signalini zarur ma'lumotlar mavjud bo'lgan manzil bilan bir vaqtda paydo bo'lishini tashkil etadi . O'qish signali DRAM nazoratchi yordamida qabul qilinadi va agar SDRAM SPICULATIVE READ parametriga ruxsat etilsa, nazoratchi manzil kodini ochilishi tugaguncha o'qish signalini beradi. Quyidagi ifodalarni qabul qilishi mumkin:

Enabled – ruxsat etilgan;

Disabled – taqiqlangan;

SPREAD SPECTRUM MODULATED (O'zgartirilgan modulatsiyalangan) spektor spredi

–bu parametrga ruxsat etish kompyuterdain elektromagnit nurlanishni taktli generator signali uzatmalarining ifodasini kamaytirish hisobiga pasaytirish imkonini beradi. Ifodalarni kamaytirish 6 % ga etishi mumkin . Shuni ta'kidlash lozimki, bu holat shakllariga sezgi qurilmalar deyiladi, masalan, FAST WIDE ScSI interfeysli qattiq disklar ishiga salbiy ta'sir etishi mumkin, shuning uchun bu parametrga faqat kompyuterlarning elektromagnit mosligini sinashda ruxsat etish tavsiya qilinadi. Ushbu ifodalarni qabul qilishi mumkin:

Enabled – ruxsat etilgan;

Disabled – taqiqlangan

POWER MANAGEMENT SETUP bo'limi:

Power Management (Elektr sarflanishni boshqarish) kompyuterda ishlanmayotgan bo'lsa, uning elektr sarflanishini kamaytirish uchun, yoki BIOS ga ruxsat etish yoki taqiqlash. Ushbu ifodalarni qabul qilishi mumkin:

USER Define (foydalanuvchi tomonidan aniqlanadi)- bu parametрни o'rnatishda siz kam elektr sarflash rejimiga o'tish vaqtini mustaqil belgilashingiz mumkin;

MIN Saving (minimal energiya saqlanishi) – bu parametрни tanlashda kompyuter 40 minutdan 2 soatgacha vaqt orqali (ona plataning aniq BIOS iga bog'liq) kam energiya sarflash rejimiga o'tadi.

MAX Saving (maksimal energiya) - kompyuter, foydalanuvchi unda ishlashni tugatgandan so'ng 10 – 10 sekunddan keyin kam energiya sarflash rejimiga o'tadi.

Disable (Energiya sarflashni taqiqlash) – energiya saqlash rejimi taqiqlaydi.

ACPI funtion (ACPI ning harakatlanishi) – ACPI standartining BIOS saqlashiga ruxsat etadi yoki taqiqlaydi. Shuni eslatib o'tish kerakki, 1998 yil oxirida holatiga ko'ra faqat window 98 bu standartni saqlagan. Ushbu ifodalarni qabul qilishi mumkin:

Enabled – ruxsat etiladi;

Disabled – taqiqlanadi.

Video Off Option (Monitor qanday rejimga ulanadi) – kompyuter –Uyquga ketishil ning qaysi bosqichida monitorni kam elektr iste‘mol qilish rejimiga o‘tkazishni belgilash imkonini beradi.

Ushbu ifodalarni qabul qilishi mumkin:

SUSP, STBY-> Off (Suspend 4 standby rejimiga ulanish) – monitor suspend yoki standby rejimi boshlanishida kam elektr sarflash rejimiga o‘tadi.

All modes -> off (barcha rejimlarda ulanish) – monitor istalgan rejimda kam energiya sarflash rejimiga o‘tkaziladi.

Always ON (har doim ulangan) – monitor hech qachon kam energiya sarflash rejimiga o‘tkazilmaydi.

Suspend->off (Suspend rejimiga ulanish) – monitor suspend rejimi boshlanganda energiya sarflash rejimiga o‘tadi.


PM Events – bu seksiyada kompyuter –uyg‘onishi kerak bo‘gan murojaatlardan ushlab turishlar, agar bu ushlab turishlardan foydalanuvchi qurilmalarga murojaat bo‘lsa, ko‘rsatiladi.

BIOS ning CMOS dan farqi: BIOS dan tashqari CMOS apparat vositalarini boshqarish bo‘limi (ichida joylashgan) mavjud bo‘lib, tizim platalariga CMOS xotira dastur ta‘minoti yozilgan. BIOS yoki ROM BIOS nomli mikrosxema mavjud. Bu mikrosxemaga sistemani boshlang‘ich yuklash va qurilma drayverlari mavjud bo‘ladi. Bundan tashqari test protsedurasi va tizim konfiguratsiyasi bo‘ladi. Bu parametrlarni saqlovchi va batariyadan zaryadlovchi CMOS xotira ba‘zi hollarda NV RAM deb ataladi. Shunday qilib, BIOS bir yoki bir nechta mikrosxemalarga dastur yuklovchilarini saqlaydi. Bu dasturlar kompyuter ishga tayyor bo‘lgandan toki ishni tugatgunga qadar bajariladi. Bular ko‘p hollarda BIOS PS tipidagi kompyuterlarda ham asosiy funksiyani bajaradi. BIOS, qat’iy aytganda, operatsion tizimning emas, balki shaxsiy kompyuterning komponenti hisoblanadi, negaki shaxsiy kompyuterda ishlatiladigan operatsion tizim o‘zgartirilganda ham BIOS o‘zgarmaydi (DEQQ da joylashganligi uchun). BIOS quyidagi vazifalarni bajaradi:

- kompyuterni initsiallashtirish, ya‘ni mashina tok manbaiga ulaganda, uning barcha elementlarini boshlang‘ich holatga keltirish;
- testdan o‘tkazish, ya‘ni kompyuterda yaxlitlikni, apparatura va dasturli resurslarning ishga layoqatlilikini tekshirish (protssessor,

xotira, drayverlar va boshqalar);

- operatsion tizimni oʻrnatish, yaʼni tizimli diskdan OT yuklovchisini oʻqish;
- xizmat koʻrsatish jarayonlarini va tashqi qurilmalar bilan amallarni bajaruvchi quyi darajali dasturli va apparatli uzilishlarni qayta ishlash;
- shaxsiy kompyuterning standart kiritish-chiqarish qurilmalarini boshqarish. Shaxsiy kompyuterning tashqi qurilmalarini boshqarish drayverlar deb ataluvchi maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi.



151-rasm. BIOS ning umumiy koʻrinishi.

Yuqorida, taʼkidlanganidek BIOS apparat taʼminoti va operatsion sistema orqasida interfeysni taʼminlaydi.

BIOS mikrosxemada joylashgan boʻlib, diskga koʻchiriladi. Sistemali BIOS drayverlarning asosiy qismlarini (klaviatura, diskovod, qattiq disk, parallel portlar va h.k.) kompyuterning boshlangʻich ishi uchun saqlaydi. Yangi qurilmalar oʻrnatilgan vaqtda, ularning ish faoliyati BIOSga kiritilmagan boʻladi. Bunday qurilmalar kompyuter ish vaqtida sezilmaydi, shuning uchun kerakli drayverlar diskdan oʻrnatiladi. Bu ovoz adapteri, skaner, printer singari qurilmalariga taʼluqli. Lekin baʼzi uskunalar kompyuter ishi uchun zarur.

Masalan: Maʼlumotni ekranda paydo boʻlishi uchun video adapterni ishlatish kerak. Hozirda koʻp turdagi videoadapterlar mavjud. Ularning hammasini sistemali BIOSga kiritib boʻlmaydi. Bunday vaqtda kerakli drayverlar BIOS mikrosxemasiga maxsus disklar yordamida oʻrnatiladi va operatsion sistema yuklanish davomida uni yuklaydi.

Bunday ish tartibi yangi modellardagi qurilmalarda BIOS ni yangilashdan saqlaydi. Shaxsiy BIOS qoidaga koʻra quyidagi platalarda oʻrnatiladi:

Video adapter – doim shaxsiy BIOS mikrosxemasiga ega.

SCSI -adapter - bu BIOS barcha SCSI qo'llaydi. Diskdan qo'shimcha drayverlarni to'plovchi CD-ROM, skaner ZIP lar uchun yozib olish kerak.

Tarmoq adapteri – qurilmalarning boshlang'ich ishi va disksiz markazlarini normal funksiyasi.

IDE disklar yoki disk yurituvchilar - sistema ishida yordamchi funksiyani bajaradi.

Barcha tizim platalarda mikrosxema ko'rinishida, BIOS yoki ROM BIOS deb ataluvchi dastur ta'minoti kiritilgan. Mazkur tur xotirani ko'pincha ROM (Read Only Memory, ya'ni faqat o'qishga mo'ljallangan xotira) yoki DXQ (doimiy xotira qurilmasi) deb yuritiladi.

Bu mikrosxemada boshlang'ich yuklash dasturlari va drayverlar jamlangan. Unda shuningdek POST jarayoni jamlangan, bundan tashqari konfiguratsiya ma'lumotlari kiritiladi. Barcha parametrlar CMOS – xotirada yozilgan bo'lib, batareya yordamida zaryadlanadi. Bu CMOS – xotirani ba'zida NVRAM (Non Volatile RAM) deb atashadi.

Shunday qilib BIOS da bir nechta mikrosxemalarda saqlanadigan dastur to'plami mavjud. Bu dasturlar kompyuter ish vaqtida operatsion sistema yuklanmasdan oldin bajariladi. BIOS odatda kompyuterda RS –ga oid 4 ta vazifani bajaradi:

Post – o'z-o'zini testdan o'tkazish: protsessor, xotira, videoadapter, disk kontrolleri, diskovod, klaviaturani ishiga tayyorlaydi.

BIOS parametrlari dasturini o'rnatish (Setup BIOS) – bu dastur kerakli klavish bosilganda ishga tushadi. Eski kompyuterlarda bu dastur uchun disk kerak.

Sistemali boshlang'ich yuklovchisi - diskli qurilmalarda bosh yuklovchi sektorni izlaydi.

BIOS – drayverlar to'plami. Dos yoki Windows da himoya uchun faqat BIOS drayverlari ishlatiladi.

Barcha zaruriy qurilmalarni o'rnatilgandan so'ng operatsion tizimda ulardan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Masalan, multimedia texnologiyasi.

Multimedia foydalanuvchiga fantastik dunyoni (virtual haqiqiy) yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki u

yerda avj olayotgan xodisalarda faol ishtirok etadi; shu bilan birga muloqot foydalanuvchi uchun odatlangan tilda - birinchi navbatda tovushli va videoobrazlar tilida bo‘lib o‘tadi.

Topshiriqlar:

1. BIOSning joylashgan o‘rnini aniqlang.
2. BIOSning vazifasini o‘rganib chiqing.
3. Sistemali BIOS tarkibini o‘zlashtiring.
4. SHEMga yangi qurilmalarni ulang va o‘rnatishda BIOS rolini tahlil qiling.
5. Multimedia qurilmalarini o‘rnatish tartibini o‘zlashtiring.
6. DMA va IRQ kanallarining bo‘shini va mos slotlarni tanlang.
7. Tovush kartasini o‘rnating va karnaylarni ishga tushiring.
8. Yangi tipdagi printerni o‘rnating.
9. Qo‘shimcha video adapter o‘rnating.
10. Modem o‘rnating.
11. Tramoq platasini o‘rnating va uni ishga sozlang.
12. Qo‘shimcha IDE va USB interfeysli vinchestrlarni o‘rnating va foydalanig.
13. Sovutish tizimini nazoratdan o‘tkazing.

Ishni bajarish tartibi:

1. Ishning uslubiy qismini o‘rganib chiqing.
2. Topshiriq talabiga ko‘ra tajriba ishini bajaring.

2-MAVZU: QOBIQ DASTURLAR VA ARXIVATORLAR

Ishdan maqsad: Total Commander dasturda ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish. WinRAR arxivlash dasturi orqali fayllarni "siqish" va "ochish".

Kerakli jihozlar: kompyuter, Total Commander va arxivlash dasturlari.


Masalaning qo‘yilishi:

1. Total Commander dasturi imkoniyatlari bilan tanishihs va unda ishlash jarayonlarini o‘rganish.
2. Fayllarni arxivlash

Qisqacha nazariy qism:

Windows OTda fayl va papkalar bilan ishlashni yengillashtirish uchun Norton Commander dasturining keyingi variantlari bo‘lgan Total Commander dasturi yaratildi. Bu dastur Windowsning qobiq

dasturi hisoblanadi. Dastur oynasining ko‘rinishi quyidagicha.



152-rasm. Total Commander dasturi interfeysi.

Oyna 6 qismdan iborat bo'lib, foydalanuvchining xohishiga binoan tayyorlab olinadi. Sarlavha. Total Commanderning variant va foydalanuvchisining nomi ko‘rsatiladi;

Menyu satri. Satrda [файл] [выделение] [команды] [сеть] [вид] [конфигурация] [запуск] bo‘limlari bor;


Asboblari paneli. Foydalanuvchining ishini osonlashtirish uchun qo‘yilgan; Total Commanderning oynalari. Chap va o‘ng oynalar bor; Buyruqlar qatori. MS DOS yoki Windowsning buyruqlarini berish mumkin;

Funksional tugmachalar. Total Commanderda ishlashni yengillashtirish uchun foydalanuvchiga yordam tariqasida o'rnatilgan. Total Commanderda ishlash juda qulay bo'lib, faqat kerakli ishni amalga oshirish uchun shu amalni bajartiruvchi tugmalar majmuini bilish talab etiladi.

Ishni bajarish ketma – ketligi:

1. *Total Commanderda yordam olish.* Total Commanderda yordam olish uchun F1 (Help) tugmasini bosing va hosil bo‘lgan oynani o‘rganing.

2. Параметры menyusida joylashgan menyu osti menyuslari vazifasini mustaqil o'rganing.




153-rasm. Total Commander parametrlar menyusi.

3. Birinchi oynadagi Содержание vkladkasidan Содержание справkasini tanlang. Ikkinchi oynadan quyidagi vazifalarni bajaring.


1) Что такое Total Commander yordamida dastur haqida ma'lumot oling. 2) Total Commander 8.01 versiyasini o'rganib chiqing. 3) menyulardabajariladigan vazifalar bilan tanishning.

4. Указатель bandida ishlash jarayonini o'rganing va qaynoq tugmalarning vazifalarini rasmda ko'rsatilgani kabi o'rganib chiqing.



154-rasm. Total Commander dasturi yordam (help) qismi.

5. Поиск bandidan foydalanishni mustaqil bajaring. Ekranga izlanayotgan matnlarni kiriting:




155-rasm. Total Commanderda qidiruv funksiyasi.

6. Total Commander ekranida faylni ixtiyoriy tanlang va F3 tugmasi orqali uning tarkibini ko‘rib chiqing.

7. Total Commander faylni ixtiyoriy tanlang, F4 tugmasi yordamida tahrirlash ishlarini bajaring va saqlang. Shift+f4 tugmalari yordamida ham muloqot ekrani orqali bu jarayonni bajarish mumkin.

8. F5 tugmasi yordamida fayllardan nusxa oling.

Fayl yoki fayllar guruhini nusxalash uchun (fayllar guruhi [Insert] tugmachasi orqali oldindan ajratiladi) F5 tugmachasini bosing. Ekranning o‘rta qismida fayl yoki fayllarning ko‘rsatilgan manzilga nusxalashni tasdiqlash haqidagi so‘rov oynasi paydo bo‘ladi.




156-rasm. Total Commanderda fayllardan nusxa olish oynasi.

Qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilmasa [OK] bosiladi va ob’ekt boshqa darchada joylashgan katalokka nusxalanadi.

1. Faylni qayta nomlang.

Faylni qayta nomlash uchun ixtiyoriy faylni tanlang va F6 tugmasini bosing. Yangi ekran chiqadi:




157-rasm. Total Commanderda fayllarning joyi va nomini o‘zgartirish.

Kompyuter so‘rovida faylning Yangi nomini kiriting. [OK] tugmasini bosing.


2. Yangi papka yarating.

Ko‘rsatkich to‘rgan joriy ekranda yangi papka yaratish uchun F7 (Make directory) tugmasini bosing, hosil bo‘lgan «Создать новый каталог (папку):» nomli oynachaga yangi katalog (papka) nomini kiriting va [OK] tugmasini bosing.



158-rasm. Total Commanderda yangi papka yaratish.

3. Fayl yoki fayllar guruhini o‘chirish amalini bajaring.



159-rasm. Total Commanderda fayllarni o‘chirish.


Fayl yoki fayllar guruhini ajrating ([Insert] tugmasi yordamida), F8(Delete) tugmasini bosing.

Tanlangan faylni o‘chirishni tasdiqlashni so‘rash ekrani chiqadi. –**Да** ni tanlab tasdiqlaysiz,

–**Нет** ni tanlab o‘chirishni bekor qilasiz, –**Отмена** bilan jarayonni bekor qilasiz.

1. Ekranda katalog daraxtini ko‘rib chiqing. Buning uchun [Alt]+[F10] tugmachalarini bir vaqtda bosing. Kataloglarni o‘qish jarayoni bajariladi. Tanlangan katalog (papkaga) o‘tish amalini bajaring.


2. O'ng yoki chap darchaga disklar ro'yxatini chiqaring. Mos holda [Alt]+[F1] yoki [Alt]+[F2] tugmachalarini bosib yoki darchada tanlashni amalga oshiring.



160-rasm. Total Commanderda disklar ro'yxatini ko'rish.

3. Diskdan faylni tez qidirib topish jarayonini bajaring. [Alt]+[F7] tugmachalari


birgalikda bosib. Hosil bo'lgan muloqot oynachasining –Искать файл:|| yo'lagiga izlanayotgan fayl nomini, –Место поиска|| yo'lagiga esa fayl bo'lishi mumkin bo'lgan disk va diskga tegishli qism katalogning nomini kiriting. –Начать поиск|| tugmasini bosib.



161-rasm. Total Commanderda qidirish funksiyasi oynasi.


–Диски tugmasi bilan kompyuterda mavjud disklar ro'yxatini ko'rib chiqing.

4. Disk o'lchami holatini tekshiring va bo'sh joyni aniqlang. Bu ishni bajarish uchun [Ctrl]+[L] tugmalari birgalikda bosib. Ekranda nafaqat disk holati, marker turgan katalog yoki fayl o'lchami haqidagi ma'lumot birgalikda hosil bo'ladi.




162-rasm. Total Commanderda disk holati haqida ma'lumot.

5. Fayl yoki katalogni arxivlang va arxivni oching. Total Commanderda bir necha arxivatorlar bilan ishlash imkoniyati mavjud. Xususan zip, arj, rar va boshqa arxivatorlar yordamida fayllarni arxivlash mumkin. Fayl yoki papkalarni arxivlash uchun, ularni tanlang va [Alt]+[F5] tugmachalarini birgalikda bosing. Quyidagi muloqot ekrani chiqadi. Undan tanlash ishlarini amalga oshiring: arxivlar uchun joy tanlash; arxivatorlardan tanlash; arxivlashda fayl yoki papka joylashgan yo'lni saqlash va hokazolar.




163-rasm. Total Commanderda fayllarni arxivlash oynasi.

6. **Настройка...** tugmasini bosing va quyidagi ekranda arxivator dasturlar to'g'risida ma'lumotlar bilan ishleng.



164-rasm. Total Commanderda sozlamalar oynasi.

7. Arxivlangan fayl yoki fayllar guruhni ochish uchun [Alt]+[F9] tugmalar birikmasidan foydalaning.
8. Total Commander dasturida ekran ko'rinishlarini o'zgartirish ishlarini bajaring. Buning uchun **Основная панель** bandini ishga tushirib quyidagi ekranni hosil qiling.



165-rasm. Total Commanderda sozlamalar oynasi.

Экранikki qismdan tashkil topgan. Chap qismdagi menyular tanlansa o'ng qismda ungategishli jarayonlar ro'yxati chiqadi. Ular bilan bir qator ishlarni amalga oshirish mumkin.

Total Commander dasturidan chiqish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. **Файлы** menyusidagi **-Выход** bandini tanlash bilan;

2. Dastur oynasining sarlavha satridagi  belgisiga murojaat qilish orqali;

3. [Alt]+[F4] tugmalar kombinatsiyasi orqali.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar: Total Commander dasturida ishlatiladigan funksional t va qaynoq tugmalarni o'rganish va ulardan foydalanish.

Topshiriqlar:

1. Fayllarning nomlash qoidalarini aniqlang.
2. Qobiq dasturlar haqida ma'lumot bering.
3. Total Commander dasturini ishga tushiring.
4. Total Commanderda funksional tugmalar vazifalarini ko'rsating.
5. Total Commander dastruida fayllarni qidirib topishni bajaring.
6. Total Commander dastruida fayllarni arxivlashni bajaring.
7. Total Commander dastruida o'chirilgan fayllarni tiklang.
8. Total Commander dastruida fayllarni nusxalashni bajaring.
9. Total Commander dastruida menyu buyruqlari bilan ishleng.
10. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

Ishni bajarish tartibi:

1. Ishning uslubiy qismini o'rganib chiqing.
2. Topshiriq talabiga ko'ra tajriba ishini bajaring.

Fayllarni arxivlash.

Qisqacha nazariy qism:

Arxivlangan fayl - bu faylning ixchamlangan, siqilgan holati. Amalda fayllar bilan ishlashda, ya'ni fayllarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda, nusxa olishda, saqlab qo'yishda, elektron pochta orqali axborot yuborishda bunday fayllar bilan ishlash zarurati tug'iladi.

Avvalo arxivlash bilan bog'lik bo'lgan asosiy tushunchalarni kiritamiz, keyin arxivlash uchun ko'p qo'llaniladigan asosiy arxivatorlar (arxivlovchi dasturlar) bilan tanishamiz.

Fayllarni arxivlash - fayllarni ma'lum bir qoida asosida siqilgan, ixchamlangan holatda diskda saqlash demakdir. Arxivlash qattiq disk ishdan chiqishi yoki faylning tasodifan o'chirilishi sodir bo'lgan hollarda joriy faylni qayta tiklash uchun yordam beruvchi vosita sifatida ham qo'llaniladi. Arxivlash BACKUP paket dasturi orqali

ham amalga oshiriladi. Bu dastur haqidagi to'la ma'lumotlarni spravka bo'limidagi «fayllarni arxivlash» kalit so'zli komanda orqali olish mumkin.

Umuman arxivlash - bu uzoq muddat saqlanuvchi fayllar, kam qo'llaniladigan, eski hujjatlar, har xil materiallar, adabiy va ilmiy maqolalar, rasm va boshqalarni saqlash uchun qo'llaniladi. Arxiv bir qancha qismlardan iborat bo'lishi va unda har bir fayl alohida ko'rinishda saqlanishi mumkin. Bunday arxiv fayllari ko'p tomli deb ataladi. Shunday arxivlardan katta hajmli ma'lumotlarni qismlarga bo'lib disketalarga sig'adigan, qulay ko'rinishga keltirish uchun foydalanish mumkin. Bunda har bir qism fayl ham arxiv fayli deb ataladi.

Arxiv hosil qilish jarayoni arxivlash (arxivatsiya) deyiladi. Siqilgan faylni eski holiga qaytarish arxivlarni ochish (razarxivatsiya) deyiladi. Arxivlashni fayllar guruhi, to'liq fayllar strukturasi bo'yicha yoki papkalar bo'yicha ham bajarish mumkin. Arxivlanuvchi fayllarda papkalar ko'p bo'lsa, ularni oldin bitta papkaga yig'ib olish ishni osonlashtiradi. Elektron pochta va Internet muhitida arxivlangan holdagi ma'lumotlarni almashish bir qator qulayliklar yaratadi.

Arxivlash jarayonida ayrim fayllar juda yaxshi ixchamlanishi, ba'zi hollarda arxivlash natijasida boshlangich fayl 10-20 baravar siqilishi ham mumkin. Masalan, dastur fayllariga nisbatan tekst va rasm fayllari ancha yaxshi ixchamlanadi.

Hozirgi kunda har xil arxivatorlar bir-biridan siqish darajasi, tezligi, foydalanishda qulayliklari, imkoniyat darajasi bo'yicha farq qiladi. Foydalanuvchi har xil turdagi arxiv fayllarini kengaytmasi bo'yicha farqlaydi. Siqish turi shu arxivning formati deyiladi.

Arxiv fayllar ham oddiy fayllar kabi nomlanadi va maxsus kengaytirmaga ega bo'ladi. Masalan, PKZIP/PKUNZIP dasturlarining fayllari .ZIP, .ARJ dasturining fayllari .ARJ kengaytirmaga ega bo'ladi. Ko'p tomli fayllar uchun esa arxivning davomi A01, A02 va dokazo kengaytirmalar oladi.

ZIP-formatli arxiv imkoniyatliroq hisoblanadi. Bu turdagi arxivlar PKZIP arxivatori bilan yaratiladi. Arxivni ochish uchun

PKUNZIP dan foydalaniladi (PKWARE firmasi tomonidan yaratilgan). ZIP - formatli arxiv boshqa formatli arxivlardan arxivlash jarayonining tez amalga oshirilishi va yuqori darajada siqish imkonini berishi bilan ajralib turadi.

Hozirgi vaqtda ko‘p qo‘llaniladigan arxivatorlardan yana biri ARJ hisoblanadi (R.Yangom tomonidan yaratilgan). Bu arxivator arxivlash va arxivdan chiqarish uchun xizmat qiladi.

Xuddi shuningdek, ZIP va ARJlarga o‘xshash formatlaydigan LHA (X.Yoshizaki) arxivatori ham mavjud.

Yana ko‘p qo‘llanadigan arxivatorlardan RAR (YE.Roshal) hisoblanadi. Bu arxivator Norton Commander muhitida, foydalanuvchi interfeysi yordamida amalga oshiriladi. Ammo bu arxivatordan elektron pochta foydalanish noqulayliklar tug‘diradi

Arxivlangan fayl arxivda qaysi fayllar borligini bildiruvchi sarlavhaga ega bo‘ladi. Arxiv sarlavhasida unda saqlanuvchi har bir fayl uchun quyidagi ma’lumotlar saqlanadi:

fayl nomi;

fayl saqlanuvchi (joylashgan) katalog (papka) haqida ma’lumot; faylning oxirgi marta qayta ishlangan sanasi va vaqti;

faylning diskdagi va arxivdagi o‘lchami;


arxivning to‘liqligini tekshirishda ishlatiladigan har bir faylning siklik tekshirish kodi.

Ishni bajarish ketma – ketligi:

1. Arxivlanadigan fayl yoki papkani sichqonsaning chap tugmasini bir marta chertish bilan belgilang;
2. Sichqonchanning o‘ng tugmasini cherting va oyna hosil bo‘ladi.

Undan ketma – ketlikni tanlang:






3. Oynada tanlash ishlarini bajaring:

a) **Обзор...** tugmasi orqali siqilgan fayl yoki papkaning saqlanish joyini ko'rsating;

b) **Имя архива:** qatoriga, agar boshqa noma bilan saqlamoqchi bo'lsangiz, nomini kiriting;



c) **Формат архива** bandidan arxivlash usulini tanlang;

d) **Метод сжатия:** siqish usulini tanlang;

e) **Параметры архивации** — arxivlash parametrlarini sozlang.

5) **Установить пароль...** tugmasi yordamida yaratilayotgan siqilgan fayl yoki papkanni himoyalash uchun parol o'rnatish.

4. OK tugmasini bosing:


5. Hosil bo'lgan arxivlangan fayl yoki papkani tekshirib ko'ring.

Fayl yoki papkalarni arxivlashni Total Commander dasturida



tugmalari orqali ham bajarish mumkin. Bu yerda birinchi ikonka siqish amalini bajarsa, ikkinchi ikonka siqilgan ma'lumotlarni ochish amalini bajaradi. Birinchi ikonkani ishga tushirsak quyidagi oyna chiqadi. Oldingi siqish oynasiga nisbatan boshqacharoq

ko‘rinishda bo‘ladi.



Архиваторлар ro‘yxatida boshqa архивловчи formatlaram joy olgan.

Topshiriqlar:

1. Nazariy mashg‘ulot bilan tanishning
2. Архивatsiya dannix dasturi yordamida ma’lumotlarni архивlang
3. Hosil qilingan архивni flesh- xotiraga ko‘chiring
4. O‘zingiz hosil qilgan papka va hujjatlarni o‘chiring
5. Архив faylidan tizimni qayta tiklang
6. O‘chirilgan ma’lumotlarni paydo bo‘lganligini tekshiring
7. Papka, papka ichida hujjat yarating
8. Papka, hujjatdan foydalanish uchun cheklov qo‘ying
9. Tizimga boshqa foydalanuvchi nomi ostida kiring
10. Papka va hujjatdan foydalanish mumkinligini tekshirib ko‘ring
11. WinZip va WinRar dasturlaridan foydalanib архив fayllarini hosil qiling
12. Архив faylini ko‘chma xotira qurilmasiga ko‘chiring
13. Архив faylidan tizimni qayta tiklang
14. Tizimni tiklash imkoniyatini o‘chiring
15. Ob‘yektlar uchun cheklov qo‘ying
16. Ob‘yektlar uchun qo‘yilgan cheklovni olib tashlang

Ishni bajarish tartibi:

1. Ishning uslubiy qismini o‘rganib chiqing.
2. Topshiriq talabiga ko‘ra tajriba ishini bajaring.

3-MAVZU: AXBOROTLARNI HIMOYALOVCHI DASTURIY VOSITALAR BILAN ISHLASH

Ishdan maqsad: Talabalarga axborotlarni himoyalovchi dasturiy vositalar bilan ishlash bo'yicha amaliy ishlashni o'rgatish.

Kerakli jihozlar: kompyuter, antivirus dasturlari.

Masalaning qo'yilishi:

1. DrWeb32 antivirus dasturini o'rnatish hamda unda ishlash jarayonlarini o'rganish.

Qisqacha nazariy ma'lumotlar: Kompyuter virusi - bu maxsus yozilgan dastur bo'lib, u boshqa dasturlarga qo'shilishi (ya'ni uni zararlashi) mumkin, shuningdek kompyuterda noma'qul harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Ichida virus bo'lgan dastur «zararlangan» deyiladi. Bunday dastur ishni boshlaganda boshqaruvni avvalo virus amalga oshiradi. Virus boshqa dasturlarni topadi va zararlaysdi, shuningdek qandaydir buzg'unchi harakatlarni bajaradi (masalan, diskdagi fayllarni va shu fayllar joylashgan jadvalni ishdan chiqaradi (buzadi) operativ xotirani bo'lar-bo'lmas «axlat» bilan to'ldiradi va h.k.). Virus o'zini yashirish maqsadida dasturni zararlantirish harakatlari har doim ham bajarilavermaydi. Ular faqat muayyan sharoitda amalga oshadi. Virus kerakli harakatlarni bajarib bo'lgandan so'ng, u boshqaruvni o'sha dasturga beradi (virus shu dasturning ichida yotadi) va u oldingidek ishlayveradi. Shu bilan bir qatorda virus bilan zararlangan dastur xuddi viruslanmagan dastur kabi faoliyat ko'rsatadi.

Antiviruslarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- **detektor** va **doktor**-viruslar bilan zararlangan fayllar va zararlantiruvchi virus turini aniqlaydigan dasturlar (Aids, doktor Web, Virus Scan, NU VS). Bu turdagi antiviruslar fayllarda viruslarning bayt kombinatsiyalari mavjudligini tekshirib, mos bo'lgan axborotni ekranga chiqarib beradi. Ba'zi detektor dasturlar viruslarning yangi turlariga moslasha oladi, buning uchun shu viruslarga mos bo'lgan baytlar kombinatsiyasini belgilab berish kerak. Doktorning vazifasi zararlangan fayllar va disk sohalarini tekshirib, ularni dastlabki holatiga qaytarishdir. Tiklanmagan fayllar, odatda, ishlatib bo'lmaydigan holga tushadi yoki yo'q qilib yuboriladi.

- **vaksina** dasturlar yoki **иммунизатор** lar disk yoki dasturlarni shunday o'zgartiradiki, bu narsa dasturlarning ishida namoyon bo'lmaydi, lekin vaksinatsiya ishlatilgan virus dastur va disklarni zararlagan deb hisoblanmaydi.

Topshiriqlar:

1. Virus asosan necha fazaga ega?

-Virus asosan 4 ta fazaga ega: uxlash turg'unlik fazasi, ko'payish fazasi, ishga kirish fazasi va vayron qilish fazasi. Virus ixtirochisi asta-sekinlik bilan foydalanuvchining ishonchini qozonish maqsadida, uxlash fazasini ishlatishi mumkin, chunki bunda virus ko'paymaydi va ma'lumotlarni buzmaydi. Ko'payish fazasida dasturning ishga tushishi bilan u namoyon bo'la boshlaydi. Ishga kirish fazasi virus dasturdagi belgilangan vaqt, oy, yil yoki nusxa ko'chirishning belgilangan sonlaridan keyin ro'y beradigan voqelik bilan bog'liqdir. Va nihoyat, vayron qilish fazasida ommaviy zararlash amalga oshiriladi.

2. KOMPYUTER VIRUSI QANDAY NAMOYON BO'LADI?

- Kompyuter zararlanganda, bir qancha g'aroyib hodisalar yuz beradi:

- ❖ *ba'zi bir dasturlar ishlamaydi yoki yomon ishlay boshlaydi;*
- ❖ *ekranga boshqa xabarlar yoki belgilar chiqa boshlaydi;*
- ❖ *kompyuter ishlashi sekinlashadi;*
- ❖ *ba'zi bir fayllar buziladi yoki ularning hajmi ortiqcha har xil yozuvlarni qo'shish hisobiga o'zgaradi, kattalashadi;*
- ❖ *tezkor xotiraning bo'sh joyi qisqaradi;*
- ❖ *tizimli disketadan dasturlarni yuklash qiyinlashadi yoki umuman yuklanmaydi va h.k.*

Shuni ta'kidlash kerakki, dasturlar va hujjatlar matnlari, berilganlar bazasining axborot fayllari, jadvallar va boshqa shunga o'xshash fayllar zararlanmaydi. Ular faqat buzilishi mumkin.

3. Fayllar virus bilan qanday hollarda zararlanishi mumkin?

-Virus bilan quyidagi turdagi fayllar zararlanishi mumkin:

*Bajariluvchi fayllar: COM va EXE ko'rinishidagi fayllar. Fayllarni zararlaydigan viruslar **fayl viruslari** deyiladi. Bajariluvchi fayllaridagi viruslar shu fayl tegishli bo'lgan dastur ishlaganda o'z faoliyatini boshlaydi;*

Amaliyot tizim yuklovchisi va qattiq diskning asosiy yuklovchisi yozuvlaridan iborat fayllar. Bu sohalarni zararlaydigan viruslar **yuklovchi** yoki **but (boot) viruslari** deyiladi. Bunday viruslar kompyuter yuklanishi bilan ishlay boshlaydi va u rezidentlik holatiga o'tadi, ya'ni doim kompyuter xotirasida saqlanadi. Tarqalish mexanizmi - kompyuterga qo'yiladigan disketalarning yuklovchi yozuvlarini zararlanishi. Bularda joylashgan viruslar shu qurilmalar, qurilmalar drayverlari, ya'ni har xil qurilmalar ishini ta'minlovchi dasturlarga murojaat qila boshlaganda ishga tushadi.

4. DISKDAGI FAYLLI TIZIMINI O'ZGARTIRADIGAN VIRUSLAR QANDAY?

- Odatda bunday viruslar DIR deb ataladi. Bu viruslar diskning biror-bir sohasida fayllarning oxiri sifatida yashirinadilar. Ular ko'rsatgichlar boshini yozuv oxiriga olib o'tib qo'yadi va NDD (Norton Disk Doctor) bilan tekshirganda diskning buzilganligi ma'lum bo'ladi.

5. KO'RINMAS VA O'ZI DIFFERENSIALLANUVCHI VIRUSLAR QANDAY?

- Ko'p viruslar o'zini sezdirmaslik uchun tizimda DOS ga murojaat qila boshlaganda fayllarni xuddi oldingi holatidek ishlashini ta'minlaydilar. Ko'rinmas viruslar shunday tarzda harakat qiladi.

O'zi differensiallanuvchi viruslar esa, o'zini formasini takomillashtiradi. Ko'p viruslar boshqalar uning ishlash mexanizmini sezib qolmasliklari uchun o'zining katta qismini kodlangan holda saqlaydi. Bu albatta bunday viruslarni topishda qiyinchiliklar tug'diradi.

6. BOOT –VIRUSLAR QANDAY BO'LADI?

-Ba'zida disketadan hech narsa ko'chirmasdan ham, undan qandaydir dasturni yuklamay turib virus bilan zararlanish mumkin. Masalan, STONE yoki MARS kabi viruslar mavjudki, ular kompyuterni yoqishingiz bilan yoki qayta yuklanganingizda, ichida disketa qolib ketgan bo'lsa, zarar yetkazishi aniq. Bunday viruslar BOOT - viruslar deyiladi. BOOT Sector-yuklanuvchi soha degan so'zdan kelib chiqqan. Kompyuter yoqilishi bilan disketa orqali yuklanishga harakat qiladi, agar kompyuterda yuklanish disketasi bo'lmasa, buning uddasidan chiqqa olmaydi. Lekin disketa qanday bo'lishidan qat'iy nazar, BOOT viruslar kompyuterni bemalol zararlaydi, shuning uchun ehtiyotkorlik talab qilinadi.

7.VIRUSLARDAN HIMOYALANISHNING QANDAY VOSITALARI MAVJUD?

- Eng yaxshi himoya turi - viruslarni qay tarzda ta'sir etishini bilishdir. Viruslar oddiy dasturlar bo'lib, biror g'aroyib kuchga ega emaslar.

Kompyuter viruslar bilan zararlanishi uchun undagi biror-bir zararlangan dasturning ishlashi talab qilinadi. Shuning uchun kompyuterning birlamchi zararlanishi quyidagi hollarda ro'y beradi:

- kompyuterdagi virus bilan zararlangan dasturlar yuklanishi (COM, BAT yoki EXE fayllar) yoki moduli zararlangan dasturning ishlatilishi;

- kompyuterga virusli disketning yuklanishi;

- kompyuterga zararlangan AT yoki qurilmalarning zararlangan drayverlarining o'rnatilishi.

Viruslardan quyidagi usullar bilan himoyalaniş mumkin:

- disketa o'qishi albatta virus borligiga tekshirish;

- axborot nusxalarini ko'chirish, shuningdek disklar va axborotni saqlash uchun ishlatiladigan umumiy qoidalardan foydalanish, diskarni jismoniy zararlanishdan, dasturlarni esa buzilishdan saqlash;

- axborotdan noqonuniy foydalanishning oldini olish uchun dasturlardan foydalanishni cheklash, xususan, dastur va ma'lumotlarning viruslar ta'sirida o'zgarishidan, noto'g'ri ishlayotgan dasturlar va foydalanuvchilarning noto'g'ri harakatlaridan himoya qilish;

- viruslar bilan zararlanish ehtimolini kamaytiruvchi chora-tadbirlar;


viruslar bilan kurashuvchi maxsus dasturlardan foydalanish.

8. Antivirus dasturlaridan DOCTOR WEB ANTIVIRUS DASTURI HAQIDA.

- Keng tarqalgan antivirus dasturlardan biri Doctor Web (Dr. Web) hisoblanadi. Quyida biz uni qanday ishlatish mumkinligini ko'rsatamiz. Albatta Doctor Web har doim yangilanishda bo'ladi, chunki yangi virus dasturlar paydo bo'ladi. Doctor Web da ishni boshlash uchun u joylashgan katalogdan Dr. Web.exe dasturi kompyuterga yuklanadi. Natijada ekranda quyidagi holat paydo bo'ladi.

1. **Dr. Web** antivirus dasturining tavsiyanomasi qanday paydo bo'ladi?

- Bunda ekranning eng yuqori qismida **Dr. Web** antivirus dasturining tavsiyanomasi paydo bo'ladi. Uning **Dr. Web** bandida quyidagi ekran paydo bo'ladi. .




166-rasm. Dr.Web antivirusi interfeysi

Uning yordamida vaqtincha **Dr.Web** dan chiqib turish (**Временный выход**), dasturdan chiqish (**Выход**) va dastur haqida (**О программе**) buyruqlarini bajarish mumkin.

2. DrWeb32 antivirus dasturini ishga tushirish.

- **DrWeb32** antivirus dasturini ishga tushirganda (Windows ning ish stolidan, ПУСК tavsiyanomasining ПРОГРАММЫ bo'limidan, MS Office tavsiyanomasidan, ПУСК tavsiyanomasining ВЫПОЛНИТЬ bo'limidan, ...) monitor ekranida quyidagi **Dr.Web for Win32** dastur darchasi ochiladi (2-rasm):



167-rasm. DrWeb32 antivirusi interfeysi

4-MAVZU: VIRTUAL LABORATORIYALAR BILAN ISHLASH

Ishdan maqsad: Virtual laboratoriyalar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish. Crocodile ICT dasturini o'rnatish va unda virtual laboratoriya yaratish.

Kerakli jihozlar: kompyuter, Crocodile ICT dasturi.


Masalaning qo'yilishi:

3. Crocodile ICT dasturi bilan tanishish va unda ishlash jarayonlarini o'rganish.


Qisqacha nazariy ma'lumotlar: O'quv virtual laboratoriya – bu yakunlangan dasturli mahsulot bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati avtomatlashtirilgan hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan katta dasturli tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy konsepsiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Metodologik jihatdan virtual laboratoriyalarni sun'iy intellekt tizimlarida qabul qilingan jarayon, deklarativ va gibrid tizimlari turlariga asoslangan bilim berish, tasavvur modellaridan kelib chiqib, guruhlash mumkin. Virtual o'quv laboratoriyadagi amaliy jarayon asosini amaliy dasturlar o'quv paketi yoki ularning sanoat analoglari tashkil etadi.

Crocodile ICT dasturini o'rnatish va mashg'ulotlarni tashkil etish.


Crocodile ICT dasturini o'rnatish jarayoni: Dastlab Crocodile ICT dasturi instalyatsion paketini ishga tushiramiz. Quyidagi oyna hosil bo'ladi. O'rnatish jarayonini davom ettiramiz.



168-rasm. Crocodile ICT dasturini o'rnatish jarayoni.



169-rasm. Crocodile ICT dasturini oʻrnatish jarayoni.




170-rasm. Crocodile ICT dasturini oʻrnatish jarayoni.



171-rasm. Crocodile ICT dasturini o'rnatish jarayoni.

Ustanovka jarayoni tugallandi. Endi Crocodile ICT dasturini ishga tushirish mumkin. Crocodile Ict dasturi ishchi oynasi quyidagicha:



172-rasm. Crocodile ICT dasturi interfeysi.

Yangi model yaratish uchun New model tugmasini tanlaymiz. 1-virtual tajriba. Misol funksiya bajarilish va sikl orqali ko'rsatilgan bu erda qiz yoki o'g'il bolaning raqs orqali keltiriladi raqslarni turli ko'rishigga keltirish qiymatlarni turli berish bilan bir xil. Start

boshlandi qiz bir marta raqs tushadi va siklga o'tiladi bunda bajarilish 4 marta takrorlanadi. Buning uchun berilgan qiymatlar quyida keltirilgan



172-rasm. Crocodile ICT dasturida algoritmlarga doir mashqlar.

Bu dastur, kasbi kim bo'lishidan qat'iy nazar foydalanuvchini izlanuvchanlikka, ijodiy fikr yuritishga, ish natijalarini tahlil qilishga o'rgatadi. Dastur imkoniyatlari juda keng bo'lib, undan amaliy va tajriba mashg'ulotlarda (ya'ni masalalar yechishda) ayniqsa, virtual tajriba ishlarini bajarishda keng foydalanish mumkin.

Topshiriqlar:

1. Nazariy mashg'ulot bilan tanishing
2. Crocodile Ict dasturi o'rnatish
3. Hosil qilingan dasturni ishga tushuring
4. Nazariy mashg'ulotda o'rgangan yangi modelni yarating
5. O'zingiz yangi model yarating
6. Modellarni birlashtiring

Testlar

1. Axborot resurslari bu:

- a) Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki va ma'lumotlar bazasi.
- b) Hujjatlashtirilgan axborot.
- c) Audiovizual va boshqa xabarlar.
- d) Maxsus axborot.
- e) Ishlov berilgan axborot.

2. Operatsion tizim – bu:

- a) Kompyuter asosiy qurilmalarining yig'indisi
- b) Kompyuterning barcha qurilmalarini o'zaro ishlashini va ularni ishlatishga foydalanuvchilarga ruxsat beruvchi dasturlar to'plami
- c) Hujjatlar bilan amallar bajaruvchi dasturlar to'plami
- d) Kompyuter viruslarini yo'qotuvchi dastur
- e) Ma'lumotlarni defragmentlash dasturi

3. Kompyuter qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi dasturlar qanday nomlanadi?

- a) Yuklovchi
- b) Drayver
- c) Translyator
- d) Kompilyator
- e) Arxivator

4. Arxivlovchi-dastur bu:

- a) Fayllarni nusxasini saqlab qoluvchi dastur
- b) Fayllarni siquvchi dastur
- c) Interpretator
- d) Ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi tizim
- e) Fayllarni taxlagich

5. Tarmoq platasi (adapteri) nima uchun ishlatiladi?

- a) Kompyuterni modemga ulash
- b) Kompyuterni internetga ulash
- c) Kompyuterni elektr manbaiga ulash
- d) Kompyuterni lokal tarmoqqa ulash
- e) Kompyuterni global tarmoqqa ulash

6. Kompyuter xotirasi uchun xarakterli bo'lgan parametrlarni ko'rsating:

- a) Takt chastotasi
- b) Hajm

- c) Uzatish tezligi
- d) Ishlov berish tezligi
- e) Boshqarish

7. Tizimga kirish uchun har bir foydalanuvchidan qanday ma'lumotlar kiritish talab qilinadi?

- a. Login va parol
- b. Faqat parol
- c. Faqat login
- d. Ismi sharifi
- e. Tugilgan sanasi

8. Tizimga kirishda foydalanuvchining logini va paroli noto'g'ri kiritilsa qanday jarayon sodir boladi?

- a) Loginni kiritish qaytadan so'raladi
- b) Parolni kiritish qaytadan so'raladi
- c) Tizim qayta yuklanadi
- d) Login va parolni qaytadan kiritish so'raladi
- e) Tizimga kirgandan song login va parolni yana qayta kiritish so'raladi

9. Tizimga kirishda foydalanuvchining logini va paroli to'g'ri kiritilsa qanday jarayon sodir boladi?

- a. Tizim qayta yuklanadi
- b. Tizim yuklanadi va ekranda ish stoli tasviri paydo boladi
- c. Tizimga kirgandan so'ng login va parolni yana qayta kiritish so'raladi
- d. Foydalanuvchining ismi va sharifini kiritish talab qilinadi
- e. Tizim vaqt va sanasini o'rnatish talab qilinadi

10. Kompyuter kutish rejimiga o'tganda qanday jarayon sodir bo'ladi?

- a) Kompyuterning xotirasiga dasturlarning joriy holati yozib olinadi, ventilyatorlar o'chiriladi va kompyuter elektr manbani tejash rejimiga o'tadi
- b) Kompyuterning xotirasidagi barcha ma'lumotlar o'chiriladi va kompyuter elektr manbaini tejash rejimiga o'tadi
- c) Faqatgina kompyuterning monitori (ekran) va ventilyatorlari o'chiriladi
- d) Kompyuter qayta yuklanadi va foydalanuvchi aralashuviga qadar tizim yuklanishi kutib turadi
- e) Barcha javoblar to'g'ri

11. O‘zining mos belgisiga va nomiga ega, biror dastur yoki papkaga bo‘lgan murojaatni amalga oshiruvchi obekt qanday nomlanadi?

- a) Fayl
- b) Papka
- c) Yorliq
- d) Dastur
- e) Disk

12. Diskda o‘z nomiga ega bo‘lgan va o‘zida turli fayl obyektlarini va yorliqlarni jamlagan obekt qanday nomlanadi?

- a) Dastur
- b) Fayl
- c) Yorliq
- d) Papka
- e) Disk

13. Bir guruh fayllar va papkalarni ketma-ket belgilash uchun klaviaturaning qaysi tugmasidan foydalaniladi?

- a. Alt
- b. Ctrl
- c. Enter
- d. Esc
- e. Shift

14. Fayllar va papkalarni ixtiyoriy tartibda belgilash uchun klaviaturaning qaysi tugmasidan foydalaniladi?

- a. Alt
- b. Ctrl
- c. Enter
- d. Esc
- e. Shift

15. Qaysi tugmalar birikmasi yordamida almashish buferiga obyektlarning nusxasi olinadi?

- a. Ctrl+C
- b. Ctrl+V
- c. Ctrl+X
- d. Alt+C
- e. Alt+V

16. Qaysi tugmalar birikmasi yordamida obyektlarning nusxasi almashish buferidan tanlangan papkaga qo‘yiladi?

- a. Ctrl+C
- b. Ctrl+V
- c. Ctrl+X
- d. Alt+C
- e. Alt+V

17. Klaviaturaning qaysi tugmasi yordamida obyektlarni o‘chirish mumkin?

- a. Backspace
- b. F8
- c. Delete
- d. End
- e. Enter

18. O‘chirilgan fayllar qayerga yuboriladi?

- a) Boshqaruv paneliga
- b) Savatga
- c) Ishchi stolga
- d) “Moy kompyuter” obektiga
- e) Asosiy menyuga

19. Qaysi obyekt foydalanuvchining operatsion tizim bilan muloqotini ta’minlab beruvchi asosiy interfeys hisoblanadi?

- a. Boshqaruv paneli
- b. Topshiriqlar paneli
- c. Ish stoli
- d. “Мой компьютер” obyekt
- e. Bosh menyu

20. Qanday amal yordamida biror fayl yoki papkani savatga (korzinaga) jo‘natmasdan butunlay o‘chirish mumkin?

- a. Delete
- b. Backspace
- c. Shift+Delete
- d. Ctrl+Delete
- e. Alt+Delete

21. Odatda savatdan (korzinadan) obyektlarni tiklash jarayonida ular qayerga tiklanadi?

- a. «Moi dokumenty» papkasiga
- b. «Moy kompyuter» papkasiga
- c. O‘chirilgan vaqtdagi asl joyiga
- d. Foydalanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan joyga

e. Ixtiyoriy joyga


22. Tizim bosh menyusining «Найти» bo‘limi yordamida qanday obyektlarni qidirish mumkin?

- a) Fayllar va papkalarni, kompyuterlar va kishilarni
- b) Matnli ma’lumotlarni
- c) Grafik ma’lumotlarni
- d) Multimedia ma’lumotlarni
- e) Dasturlar va yorliqlarni

23. Bosh menyuning qaysi bo‘limi orqali tizim ma’lumotnomasiga murojaat qilinadi?

- a) “Программы” bo‘limi
- b) “Выполнит” bo‘limi
- c) “Справка и поддержка” bo‘limi
- d) “Настройка” bo‘limi
- e) “Документы” bo‘limi

24. Rasmda ko‘rsatilganidek bosh menyu bo‘limlari yoki yorliqlari (yarlyk) kontekst menyusidan “Udalit” amali bajarilsa qanday jarayon sodir bo‘ladi?




- a) Diskdagi fayllar va papkalar o‘chiriladi
- b) Diskdagi o‘rnatilgan dasturlar va hujjatlar o‘chiriladi
- c) Menyudagi tanlangan dastur yorligi o‘chiriladi

d) Hech qanday jarayon sodir bo‘lmaydi

e) Barcha javoblar to‘g‘ri

25. Rasmda keltirilgan amalning vazifasini ko‘rsating:



a) Almashish buferiga belgilangan obektning nusxasini olish

b) Almashish buferiga belgilangan obyektни kesib olish

c) Belgilangan obyektning nusxasini qo‘yish

d) Belgilangan obyektning nusxasini diskka jo‘natish

e) Belgilangan obyektни ko‘chirish

26. Microsoft Word dasturiga yuklangan hujjatni yopish tartibi to‘g‘ri keltirilgan javobni ko‘rsating:

a) «Файл\Закрыт» menyu amalini bajarish

b) «Файл\Выход» menyu amalini bajarish

c) «Закрыт» tugmasini bosish

d) «Файл\Завершит» menyu amalini bajarish

e) «Alt+F4» tugmalar birikmasini bosish

27. Microsoft Word dasturi ma’lumotnomasini (Spravka) chaqirish qaysi tugma orqali amalga oshiriladi?

a) F1

b) F2

c) F5

d) F8

e) F10

28. Microsoft Word dasturiga yuklangan joriy hujjatda «Ctrl+Home» tugmalar birikmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?

a) Hujjatning boshiga o‘tish

b) Hujjatning oxiriga o‘tish

c) Hujjatning keyingi sahifasiga o‘tish

d) Hujjatning oldingi sahifasiga o‘tish

e) Uy sahifasini yuklash

29. Microsoft Word dasturiga yuklangan joriy hujjatda «Ctrl+End» tugmalar birikmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?

- a) Hujjatning boshiga o‘tish
- b) Hujjatning oxiriga o‘tish
- c) Hujjatning sahifasining oxiriga o‘tish
- d) Hujjatning sahifasining boshiga o‘tish
- e) Hujjatning keyingi sahifasiga o‘tish

30. Microsoft Word dasturiga yuklangan joriy hujjatda «Ctrl+PageUP» tugmalar birikmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?

- a) Hujjatning sahifasining oxiriga o‘tish
- b) Hujjatning sahifasining boshiga o‘tish
- c) Hujjatning keyingi sahifasiga o‘tish
- d) Hujjatning oldingi sahifasiga o‘tish
- e) Hujjatning boshiga o‘tish

31. Microsoft Word dasturiga yuklangan joriy hujjatda «Ctrl+PageDown» tugmalar birikmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?

- a) Hujjatning oxiriga o‘tish
- b) Hujjatning sahifasining oxiriga o‘tish
- c) Hujjatning sahifasining boshiga o‘tish
- d) Hujjatning navbatdagi sahifasiga o‘tish
- e) Hujjatning oldingi sahifasiga o‘tish

32. Microsoft Word dasturida sichqoncha yordamida so‘zni tezkor belgilash qanday amalga oshiriladi?

- a) So‘zga sichqoncha chap tugmasi bilan bir marta bosish bilan
- b) So‘zga sichqoncha o‘ng tugmasini bosish va «Выделить» amalini bajarish bilan
- c) So‘zga sichqoncha chap tugmasi bilan ketma-ket uch marta bosish bilan
- d) So‘zga sichqoncha chap tugmasi bilan ketma-ket ikki marta bosish bilan
- e) So‘zga sichqoncha ong tugmasi bilan ketma-ket ikki marta bosish bilan

33. Microsoft Word dasturida sichqoncha yordamida abzasni tezkor belgilash qanday amalga oshiriladi?

- a) Kursorni kerakli abzasga o‘rnatish va “Формат\Абзац” menyu amalini bajarish bilan
- b) Abzasga sichqoncha o‘ng tugmasini bosish va «Выделить» amalini bajarish bilan

- c) Kursorni kerakli abzasga oʻrnatish va “Правка\Выделит все” menyu amalini bajarish bilan
- d) Soʻzga sichqoncha chap tugmasi bilan ketma-ket ikki marta bosish bilan
- e) Soʻzga sichqoncha chap tugmasi bilan ketma-ket uch marta bosish bilan

34. Microsoft Word dasturida sichqoncha yordamida gapni (nuqtagacha boʻlgan matn) tezkor belgilash qanday amalga oshiriladi?

- a) Kursorni kerakli gapga oʻrnatish va “Правка\Выделит vse” menyu amalini bajarish bilan
- b) Kursorni kerakli gapga ornash va “Ctrl+A” tugmalar birikmasini bosish bilan
- c) Kursorni kerakli gapga oʻrnatish va kontekst menyusidan “Выделит” amalini bajarish bilan
- d) Gapga sichqoncha chap tugmasi bilan ketma-ket uch marta bosish bilan
- e) CTRL tugmasini. bosgan holda ixtiyoriy gapni sichqoncha tugmasi bilan bosish orqali

35. Microsoft Word dasturida sichqoncha yordamida matnning ixtiyoriy qismlarini ixtiyoriy tartibda belgilash uchun qaysi tugmadan foydalaniladi?

- a) Shift
- b) Tab
- c) Alt
- d) Ctrl
- e) Insert

36. Microsoft Word dasturida klaviaturaning strelkali tugmalari yordamida matnlarni belgilash uchun qoʻshimcha ravishda qaysi tugmadan foydalaniladi?

- a) Tab
- b) Alt
- c) Shift
- d) Ctrl
- e) Insert

37. Chop etilmaydigan belgilar ekranda nimani tasvirlaydi?

- a) Xizmat belgilarini
- b) Sahifa parametrlarini

- c) Qoldirib ketilgan belgilarni
- d) Maxsus belgilarni
- e) To'g'ri javob mavjud emas

38. Quyidagi belgilarning qaysi biri chop etilmaydi?

- a) !
- b) ?
- c) .
- d) ©
- e) ¶

39. Microsoft Word dasturida CTRL tugmasini bosib sichqoncha gildiragi aylantirilsa nima sodir boladi?

- a) Hujjat varaqlari almashadi
- b) Hujjat masshtabi o'zgaradi
- c) Kursorning joylashish joyi o'zgaradi
- d) Matn olchami o'zgaradi
- e) Grafik obyekt o'lchami o'zgaradi


40. Microsoft Word dasturida kursordan chapdagi belgilarni o'chirish uchun qaysi tugmadan foydalaniladi?

- a) Delete
- b) Insert
- c) F8
- d) Backspace
- e) Enter

41. Microsoft Word dasturida kursordan o'ngdagi belgilarni ochirish uchun qaysi tugmadan foydalaniladi?


- a) Delete
- b) Insert
- c) Backspace
- d) F8
- e) Enter

42. Dastur interfeysining rasmda belgilangan qismi qanday ataladi?




- a) Buyruqlar satri (Строка команд)
- b) Uskunalar paneli (Панель инструментов)
- c) Menyu satri (Строка меню)
- d) Holatlar satri (Строка состояния)
- e) Topshiriqlar paneli (Панель задач)

43. Dastur interfeysining rasmda belgilangan qismi qanday ataladi?




- a) Buyruqlar paneli (Панель команд)
- b) Topshiriqlar tasmasi (Лента задач)
- c) “Форматирование” uskunalar paneli (Панель инструментов “Форматирование”)
- d) “Управление” uskunalar paneli (Панель инструментов “Управление”)
- e) Tugmalar paneli (Панель кнопок)

44. Rasmda keltirilgan ro‘yxatli element yordamida matnlar ustida qanday o‘zgartirishni amalga oshirish mumkin?




- a) Matn shrifti o‘lchamini o‘rnatish
- b) Times New Roman jumlasini matnga qo‘shish
- c) Matn tilini o‘rnatish
- d) Matn shriftini o‘rnatish
- e) Matn kodini (kodiroyka) o‘zgartirish

45. Rasmda keltirilgan royxatli element yordamida matnlar ustida qanday o‘zgartirishni amalga oshirish mumkin?




- a) Matnga 14 sonini kiritish
- b) Matnga 14 mm abzas masofasini o'rnatish
- c) Matn shriftini o'rnatish
- d) Matn shrifti o'lchamini o'rnatish
- e) Abzaslararo 14 mm masofa o'rnatish

46. Microsoft Word dasturida rasmda ko'rsatilgan maydonga o'rnatilgan qiymatlar nimani anglatadi?




- a) Satrlar aro intervalni
- b) Abzaslar aro intervalni
- c) So'zlar aro intervalni
- d) Harflar aro intervalni
- e) Sahifalar aro intervalni

47. Microsoft Word dasturida, rasmda keltirilgan holatda hujjat qanday bosmaga chiqariladi?




- a) Hujjatning birinchi sahifasi chop etiladi
- b) Hujjatning barcha sahifalari chop etiladi
- c) Hujjatning barcha sahifalari 3 nusxada chop etiladi
- d) Hujjatning joriy sahifasi chop etiladi
- e) Hujjatning barcha sahifalari 1 nusxada chop etiladi

48. Microsoft Word dasturida, rasmda keltirilgan holatda hujjatning qaysi sahifalari chop etiladi?




- a) 1,5,8 va 10 sahifalar
- b) 1 dan 5 gacha, 8 va 10 sahifalar
- c) 1,5,8 va 10 dan keyingi barcha sahifalar
- d) 1 dan 5 gacha, 8 va 10 dan keyingi barcha sahifalar
- e) 1 dan 8 gacha va 10 dan keyingi barcha sahifalar

49. Microsoft Word dasturidagi qaysi tugma yordamida belgilangan matnlarga qalin yozuvli (Полужирный) shakl berish mumkin?




- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4
- e) 5

50. Microsoft Word dasturidagi qaysi tugma yordamida belgilangan matnlarga qo'lyozma yozuvli (Курсив) shakl berish mumkin?



- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4
- e) 5

51. Microsoft Word dasturidagi qaysi tugma yordamida belgilangan matnlarga ostiga chizilgan (Подчеркнутый) shakl berish mumkin?




- a) 1
- b) 2
- c) 3

d) 4

e) 5

52. Microsoft Word dasturidagi qaysi tugma yordamida belgilangan matnlarga rang berish mumkin?



a) 1

b) 2

c) 3

d) 4

e) 5

53. Microsoft Excel elektron jadvalida A1:V3 yacheykalar guruhi tanlangan. Bu diapazonga nechta yacheyka kiradi?

a) 2

b) 6

c) 8

d) 9

e) 12

54. Microsoft Excel dasturi jadvalida formulalarni yozish qaysi belgidan boshlanadi?

a) +

b) =

c) -

d) ?

e) \$

55. Microsoft Excel dasturida quyida keltirilgan ma'lumotlar turining qaysi biri mavjud emas?

a) Matnli


b) Sonli

c) Pul birligi

d) Vaqt va sana


e) Grafik

56. Microsoft Excel dasturi interfeysining rasmda belgilangan maydoni qanday nomlanadi?




- a) Buyruqlar satri (Строка команд)
- b) Uskunalar paneli (Панель инструментов)
- c) Formulalar satri (Строка формул)
- d) Holatlar satri (Строка состояния)
- e) Katakalar diapazoni (Диапазон ячеек)

57. Rasmda keltirilgan Microsoft Excel dasturining ish kitoblarining barcha sahifalarini belgilash qanday amalga oshiriladi?




- a) «Правка\Выделит все» menyu amalini bajarish
- b) Sahifa nomiga sichqoncha o'ng tugmasini bosish va kontekst menyusidan «Выделит все листы» menyu amalini bajarish
- c) Sahifa nomiga sichqoncha tugmasini uch marta ketma-ket bosish
- d) «Файл\Выделит все» menyu amalini bajarish
- e) Sahifa nomiga sichqoncha chap tugmasini bosish va sahifalar boylab siljitish

58. Rasmda belgilangan Microsoft Excel dasturining kataklarni formatlash oynasining “Ориентация” bo‘limi nima uchun kerak?




- a) Katak qiymatlarini vertikal tekislash
- b) Katak qiymatlarini gorizontal tekislash
- c) Katak qiymatlarini gorizontal joylashtirish
- d) Katak tarkibini belgilangan burchak ostida aks ettirish
- e) Katakka “Надпись” yozuvini kiritish

59. Microsoft Excel dasturida rasmda keltirilgan dialog oynasining “Найти все” tugmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?




- a) Jadvaldagi barcha “Информация” so‘zi belgilanadi
- b) Jadvaldagi barcha “Информация” so‘zi mavjud bolgan kataklarning royxati yaratiladi
- c) Jadvaldan navbatdagi “Информация” so‘zi qidirib topiladi
- d) Ketma-ket barcha “Информация” so‘zlari qidirib topiladi
- e) Ketma-ket barcha “Информация” so‘zi mavjud bolgan kataklarga otiladi

60. Microsoft Excel dasturida rasmda keltirilgan dialog oynasining “Заменить все” tugmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?




- a) Jadvaldagi barcha “Информация” soʻzlari “Сообщение” soʻziga almashtiriladi
- b) Jadvaldagi barcha “Информация” soʻzi belgilanadi
- c) Jadvaldagi “Информация” soʻzi mavjud boʻlgan barcha kataklarga “Сообщение” soʻzi kiritiladi
- d) Jadvaldagi barcha “Информация” va “Сообщение” soʻzlari qidirib topiladi
- e) Navbatdagi “Информация” soʻzi «Сообщение» soʻziga almashtiriladi

61. Microsoft Excel dasturida, rasmda tasvirlangan holatda kataklar qay tarzda toʻldiriladi?




- a) Barcha kataklar 10 soni bilan toʻldiriladi
- b) Dastlabki kataklar 1 va 2 sonlari qolgan kataklar esa 10 soni bilan toʻldiriladi
- c) Barcha kataklar 1 soni bilan toʻldiriladi
- d) Barcha kataklar 2 soni bilan toʻldiriladi
- e) Kataklar oʻz tartib raqamiga mos 1 dan 10 gacha boʻlgan sonlar bilan toldiriladi

62. Microsoft Excel dasturida, rasmda tasvirlangan holatda kataklar qay tarzda toʻldiriladi?



- a) Dastlabki kataklar 1 va 2 sonlari qolgan kataklar esa 1 soni bilan to'ldiriladi
- b) Barcha kataklar 1 soni bilan to'ldiriladi
- c) Barcha kataklar 2 soni bilan to'ldiriladi
- d) Kataklar o'z tartib raqamiga mos 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar bilan to'ldiriladi
- e) To'g'ri javob mavjud emas

63. Microsoft Excel dasturida, rasmda ko'rsatilgandek sichqoncha chap tugmasini bosib uni 5 katak pastga siljitilsa katak qiymati bilan bo'g'liq qanday o'zgarish sodir boladi?



- a) Katak qiymati besh katak pastga siljiriladi
- b) Katak qiymati besh marta ko'payadi
- c) Katak qiymatining nusxasi beshta katakka ko'chiriladi
- d) Beshta katak belgilanadi
- e) Xech narsa sodir bo'lmaydi

64. Microsoft Excel dasturida, rasmda ko'rsatilgandek Ctrl tugmasini qo'yib yubormagan holda sichqoncha chap tugmasini bosib uni 5 katak pastga siljitilsa katak qiymati bilan bo'g'liq qanday o'zgarish sodir boladi?

	A
1	1500
2	
3	

- a) Katak qiymati besh katak pastga siljiriladi
- b) Katak qiymati besh marta ko‘payadi
- c) Katak qiymatining nusxasi beshta katakka ko‘chiriladi
- d) Katak qiymati 5-chi katakka nusxalanadi
- e) Xech narsa sodir bo‘lmaydi

65. Rasmda keltirilgan Microsoft Excel dasturi yacheykasining identifikatorini (adres) ko‘rsating:

B3			
	A	B	C
1			
2			
3			
4			
5			
6			

- a) B
- b) B3
- c) 3
- d) 3B
- e) A1:B3

66. Rasmda keltirilgan Microsoft Excel dasturi yacheykalari diapazonining identifikatorini (adres) ko‘rsating:

B3		fx		
A	B	C	D	E
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				

- a) B2:B7
- b) D2:D7
- c) B7:D2
- d) B3:D7
- e) B2:B7;D2:D7

67. Microsoft Excel dasturida, rasmda keltirilgan yacheykalar qiymatlari yig‘indisini topish formulasini ko‘rsating:

	A	B	C	D
1	20	15	?	
2				

- a) =summa(15:10)
- b) =A1+V1
- c) S1=A1+V1
- d) =summa(A1:S1)
- e) =summa(A15:V10)


68. Microsoft Excel dasturida, rasmda keltirilgan diapazondagi yacheykalar qiymatlari summasini topish formulasini ko'rsating:

	A	B
1	1	
2	2	
3	3	
4	4	
5	5	
6	6	
7	7	
8	8	
9	9	
10		

- a) =CYMMA(A1:A9)
- b) =CYMM(A1:A9)
- c) =CP3HAЧ(A1:A9)
- d) =CЧET(A1:A9)
- e) =MAKC(A1:A9)

69. Rasmda ko'rsatilgan yacheykalar qiymatlarining summasini, Microsoft Excel dasturining topshiriqlar tasmaidagi qaysi tugma yordamida hisoblash mumkin?


	A	B
1	1	
2	2	
3	3	
4	4	
5	5	
6	6	
7	7	
8	8	
9	9	
10		



- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4
- e) 5


70. Rasmda ko'rsatilgan yacheykalar qiymatlarining formatini, Microsoft Excel dasturining topshiriqlar tasmasidagi qaysi tugma yordamida o'rnatish mumkin?

	A	B
1	€ 1,00	
2	€ 2,00	
3	€ 3,00	
4	€ 4,00	
5	€ 5,00	
6	€ 6,00	
7	€ 7,00	
8	€ 8,00	
9	€ 9,00	
10		



- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4
- e) 5

71. Rasmda ko'rsatilgan yacheykalar qiymatlarining formatini, Microsoft Excel dasturining topshiriqlar tasmasidagi qaysi tugma yordamida o'rnatish mumkin?



- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4
- e) 5

72. Microsoft Excel dasturida, rasmda keltirilgan holatda Enter tugmasi bosilsa B3 katagida qanday qiymat hosil bo‘ladi?

C	D	E

- a) 22
- b) 12
- c) 5
- d) 17
- e) 16

73. Microsoft PowerPoint dasturi yordamida yaratiladigan hujjatlar qanday nomlanadi?

- a) “Презентация”
- b) “Книга”
- c) “Документ”
- d) “Лист”

e) “Слайд”

74. Microsoft PowerPoint dasturida yangi hujjat yaratilganda, odatda dastur tomonidan unga qanday nom beriladi?

a) “Книга 1”

b) “Документ 1”

c) “Листы 1”

d) “Презентация 1”

e) “Слайды 1”

75. Keltirilgan amallarning qaysi biri taqdimotlarni saqlash uchun mo‘ljallanmagan?

a) “Файл\Сохранит” menyu amali

b) “Файл\Сохранит как” menyu amali

c) “Ctrl+S” tugmalar birikmasi

d) “Ctrl+ F12” tugmalar birikmasi

e) “Shift+F12” tugmalar birikmasi

76. Taqdimotga (prezentatsiya) yangi slayd qo‘shish uchun qanday amalni bajarish kerak?

a) «Правка\Вставка слайд» menyu amalini

b) «Правка\Вставит» menyu amalini

c) «Вставка\Новый слайд» menyu amalini

d) «Главная\Создат слайд» menyu amalini

e) «Файл\Создат» menyu amalini

77. Taqdimot namoyishi vaqtida klaviaturadagi Page Down tugmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?

a) Navbatdagi slaydga o‘tiladi

b) Oldingi slaydga o‘tiladi

c) Slaydlar namoyishi to‘xtatiladi

d) Birinchi slaydga o‘tiladi

e) Oxirgi slaydga o‘tiladi

78. Taqdimot namoyishi vaqtida klaviaturadagi Page Up tugmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?

a) Slaydlar namoyishi to‘xtatiladi

b) Navbatdagi slaydga o‘tiladi

c) Birinchi slaydga o‘tiladi

d) Oldingi slaydga o‘tiladi

e) Oxirgi slaydga o‘tiladi

79. Taqdimot namoyishi vaqtida klaviaturadagi Esc tugmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi

- a) Navbatdagi slaydga o'tiladi
- b) Oldingi slaydga o'tiladi
- c) Birinchi slaydga o'tiladi
- d) Oxirgi slaydga o'tiladi
- e) Slaydlar namoyishi to'xtatiladi

80. Microsoft PowerPoint – bu:


- a) Matn muxarriri
- b) Jadval muxarriri
- c) Grafik muxarrir
- d) Taqdimot muxarriri
- e) Barcha javoblar to'g'ri

81. Rasmda ko'rsatilganidek, Microsoft Power Point dasturida quyidagi “Надпись” obyektining yashil rangli markeri sichqoncha yordamida biror tomonga surilsa nima sodir bo'ladi?



- a) Obyekt chapga suriladi
- b) Obyekt o'ngga suriladi
- c) Obyektning shakli chapga og'ishadi
- d) Obyektning shakli o'ngga og'ishadi
- e) Obyekt ma'lum burchakka buriladi

82. Microsoft Power Point dasturida quyidagi “Nadpis” obyektining rasmda ko'rsatilganidek burchak markerlari sichqoncha yordamida siljitsa nima sodir bo'ladi?



- a) Obyektning balandligi o'zgaradi
- b) Obyektning kengligi o'zgaradi
- c) Obyekt mos yo'nalishga buriladi
- d) Obyektning balandligi va kengligi birgalikda o'zgaradi
- e) Obyektning shakli burchak bo'yicha og'ishadi

83. Microsoft Power Point dasturida quyidagi “Nadpis” obyektining rasmda ko'rsatilganidek tomon markerlari sichqoncha yordamida siljitsa nima sodir bo'ladi?



- a) Mos tomon bo'yicha obyektning balandligi yoki kengligi o'zgaradi
- b) Obyekt mos yo'nalishga buriladi
- c) Obyektning balandligi va kengligi birgalikda o'zgaradi
- d) Obyektning shakli mos yo'nalishga og'ishadi
- e) Barcha javoblar to'g'ri

84. Slaydga «Заголовок и объект» maketini qo'llash unga turli ma'lumotlarni qo'shish imkonini beradi. Rasmdagi qaysi belgi yordamida slaydga rasm joylashtirish mumkin (dastur kutubxonasi kolleksiyasidan emas)?



- a) 2
- b) 3
- c) 4
- d) 5
- e) 6

85. Slaydga «Заголовок и объект» maketini qo'llash unga turli ma'lumotlarni qo'shish imkonini beradi. Rasmdagi qaysi belgi yordamida slaydga jadval qo'shish mumkin?



- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4

e) 5

86. Slaydga «Заголовок и объект» maketini qo'llash unga turli ma'lumotlarni qo'shish imkonini beradi. Rasmdagi qaysi belgi yordamida slaydga diagramma qoshish mumkin?



a) 1

b) 2

c) 3

d) 4

e) 5

87. Slaydga «Заголовок и объект» maketini qo'llash unga turli ma'lumotlarni qo'shish imkonini beradi. Rasmdagi qaysi belgi yordamida slaydga Clip Art, yani dastur kutubxonasi kolleksiyasidagi rasmlarni qo'yish mumkin?



a) 1

b) 2

c) 3

d) 4

e) 5

88. Slaydga «Заголовок и объект» maketini qo'llash unga turli ma'lumotlarni qo'shish imkonini beradi. Rasmdagi qaysi belgi yordamida slaydga videoklip qo'shish mumkin?



a) 2

b) 3

c) 4

- d) 5
- e) 6


89. Ko'pgina axborotlarni o'zida jamlagan Internet sahifalari yig'indisi qanday nomlanadi?

- a) Veb portal
- b) Gipermatn
- c) Veb sayt
- d) Veb hujjat
- e) HTML

90. Provayder serveriga foydalanuvchilarning web-saytlari yoki boshqa axborotlarini joylashtirishga yordam beradigan xizmat qanday ataladi?


- a) Proksi
- b) Xosting
- c) WWW
- d) Domen
- e) Web sayt

91. Rasmda ko'rsatilgan oynaga qanday ma'lumotlar kiritilishi lozim (Internet Explorer dasturi interfeysi)?




- a) Web resurslarning internet manzili
- b) Internet tarmogidan qidiriladigan ma'lumot
- c) Elektron pochta manzili
- d) Web resurslar joylashgan kompyuterning nomi
- e) Internet orqali uzatiladigan ma'lumot

92. Rasmda ko‘rsatilgan Internet Explorer dastur interfeysi uskunalar panelidagi “chap tomonga yo‘naltiruvchi” tugmaning vazifasi:




- a) Браузеру загруженный файл загрузить
- b) Открыть файл в браузере
- c) Перейти к заданной странице
- d) Вернуться к предыдущей странице
- e) Перейти к другой странице

93. Internet Explorer dasturi uy sahifasini o‘rnatish oynasida «Текущая» va undan so‘ng “OK” tugmasi bosilsa nima sodir bo‘ladi?




- a) Brouzerga yuklangan oldingi web sahifa uy sahifasi sifatida oʻrnatiladi
- b) Brouzerga yuklanadigan keyingi web sahifa uy sahifasi sifatida oʻrnatiladi
- c) Brouzerga yuklangan joriy web sahifa uy sahifasi sifatida oʻrnatiladi
- d) “Adres” maydoniga kiritilgan manzildagi web sahifa uy sahifasi sifatida oʻrnatiladi
- e) Uy sahifasi sifatida bosh sahifa oʻrnatiladi

94. Internet Explorer dasturi uy sahifasini oʻrnatish oynasida «Пустая» va undan soʻng “OK” tugmasi bosilsa nima sodir boʻladi?



- a) Brouzerga oldingi yuklangan veb sahifa uy sahifasi sifatida oʻrnatiladi
- b) Brouzerga keyingi yuklanadigan veb sahifa uy sahifasi sifatida oʻrnatiladi
- c) Brouzerga joriy yuklangan veb sahifa uy sahifasi sifatida oʻrnatiladi
- d) “Adres” maydoniga kiritilgan manzildagi veb sahifa uy sahifasi sifatida oʻrnatiladi
- e) Uy sahifasi sifatida bosh sahifa oʻrnatiladi

95. Belgilangan gipermurojaatga bosilsa nima sodir bo‘ladi?



- a) Joriy oynada Google matbuot guruhiga xabar yuborish uchun elektron oyna ochiladi.
- b) Yangi oynada press-ru@google.com web sahifasi ochiladi.
- c) Pochta klienti dasturi ishga tushib, press-ru@google.com pochta manziliga yangi xabar yuborish uchun forma yaratiladi.
- d) Bu manzil yangi saxifaga murojaat emasligi sababli hech narsa sodir bo‘lmaydi.
- e) Joriy oynada kontaktlarning ba’tafsil axborotlari sahifasi ochiladi.

96. Kompyuter viruslari va zarar yetkazuvchi dasturlarni topish hamda zarar yetkazilgan fayllarni tiklovchi, fayl va dasturlarni profilaktika qiluvchi dastur qanday nomlanadi?

- a) To‘siqllovchi
- b) Antivirus
- c) Tarmoqlararo ekran
- d) Nazoratchi
- e) Tahlillovchi

97. Foydalanuvchining login va parollari, mahfiy ma’lumotlaridan foydalanish maqsadidagi internet-firibgarlik qanday nomlanadi?

- a) Xaker hujumi
- b) Virus tarqatish
- c) Ma’lumotlarni yo‘qotish
- d) Fishing
- e) Axborotlarni ko‘rinishini o‘zgartirish

98. Axborotlar yoki ularni qayta ishlash vositalarining to‘g‘riligi, ochiqligi, yaxlitligi va maxfiyligini qollab-quvvatlashga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan aspektlar qanday nomlanadi?

- a) Xavfsizlik siyosati
- b) Aloqa kanallarini himoyalash
- c) Axborot xavfsizligi
- d) Tizim xavfsizligini boshqarish
- e) Ruxsatlarni nazorat qilish vositalari

99. Foydalanuvchi ish joyida bo‘lmagan paytda uning kompyuterini himoyalash mumkin bo‘lgan usulni ko‘rsating:

- a) Ekran zastavkasi yordamida
- b) Internetni uzib qo‘yish
- c) Tarmoq administratori yordamida
- d) Kompyuterni ochirib qo‘yish
- e) To‘g‘ri javob yo‘q

100. WinRAR dasturi yordamida fayl yoki papkalarni arxivlash jarayonida ularga parol qo‘yish mumkinmi?

- a) Yo‘q
- b) Ha
- c) WinRAR dasturida bunday amal mavjud emas
- d) Obyektlarni arxivlash vaqtida ularga parol o‘rnatish mumkin emas
- e) To‘g‘ri javob yo‘q.

Glossariy

Axborot - Taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxs, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar. Dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi obyektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar) hamda tushunchalar yoki buyruqlar.

- Ma'lum bir matnda aniq ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ichiga oluvchi dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi obyektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar).

Axborot xavfsizligi - Himoyalalanayotgan axborotni uchta xususiyatini: maxfiylik, butunlik, tayyorliklarni saqlash maqsadida kirilayotgan axborotga chegaralarni ta'minlash.

Axborot tizimi - Axborotni toplash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda ulardan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Axborot texnologiyasi - Obyekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti) ning holati to'g'risida yangi sifattdagi axborot olish uchun ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullarining majmuidan foydalanuvchi jarayon.

ActiveX - Veb-sahifalar yaratuvchilarga o'zaro faol muhitni yaratish imkonini beruvchi texnika vositalari va amallar to'plami, ko'p sonli asboblarni yaxlit qilib birlashtirish vositasi.

Agent - Mijoz-server modelidagi axborotni tayyorlash va uni mijoz va server qismi orasida almashishni bajaruvchi tizim qismi.

Amaliy xavfsizlik - Ma'lumotlarni kiritish, ishlov berish va chiqarish amallarini bajarishda turlashdan, yoq qilishdan va oshkor qilishdan muhofazalash.

Analog signal - To'xtovsiz o'zgaruvchi elektr kuchlanish yoki elektr toki shaklidagi axborot tashuvchisi. Vaqt davomida o'zgaruvchan analog signal amplitudasi u tashuvchi axborotning miqdoriga mos bo'lib, odatda o'lchangan fizikaviy kattalikni bildiradi, masalan, harorat, tezlik va h.k. Analog signal tashuvchi axborotga kompyuterda ishlov berish uchun analog-raqamli o'zgartgich zarur.

Antenna - Radiochastota signallarini uzatish va yoki qabul qilib olish uchun mo'ljallangan qurilma. Antennalar alohida chastota

uchun ishlab chiqilib, odatda dizayni, tuzilishi va joylashishi bo'yicha katta farq qiladi. Masalan, mobil telefonlarda antenna ichiga o'rnatilgan (apparat qobig'i ichida yashirilgan) yoki tashqi (qobiq chegaralaridan tashqari chiquvchi) bo'lishi mumkin.

Arxiv - Arxivator yordamida ochish mumkin bo'lgan, tarkibida bir yoki ko'p (odatda kompressiyalangan) fayllar va axborot bo'lgan fayl. Arxivlar odatda dasturiy mahsulotlar yoki rezerv nusxalarni tarqatish uchun yaratiladi. Tar, gzip formatidagi arxivlar UNIX; zip, rar, arj formatidagi arxivlar esa Windows amaliy tizimlarida ishlatiladi.

Arxiv ishi - Arxiv hujjatlarini saqlash, ro'yxatga olish va ulardan foydalanishni tashkil qilish faoliyati.

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasi - Ma'lumotlarni uzatish, to'plash, saqlash va qayta ishlash uchun hisoblash texnikasi va aloqa tizimlari usullari va vositalari qo'llaniladigan axborot texnologiyasi.

Tizim - Inson faoliyati jarayonini avtomatlashtirishga qaratilgan dasturiy va apparatli vositalar tizimi. Avtomatik tizimdan farqli o'laroq, avtomatlashtirilgan tizim har doim inson ishtirokida faoliyat ko'rsatadi va inson uning asosiy bo'g'inidir.

Axborot ehtiyojlari - Nomoddiy ehtiyojlar turi. Aniq vazifani bajarish yoki muayyan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan axborotga ehtiyoj.

Axborot eskirishi - Axborotning vaqt o'tishi bilan o'zining amaliy qiymatini yo'qotish xususiyati. U ushbu axborot aks ettiruvchi fan sohasi ahvolining o'zgarishiga bog'liq.

Axborot izlash - Axborot massivida oldindan belgilangan izlash sharti (so'rovi) talabini qondiruvchi yozuvlar borligini aniqlash jarayoni va agar ular mavjud bo'lsa bunday yozuvlar joylashishini aniqlash jarayoni.

Axborot vositachisi - Boshqa shaxs nomidan elektron hujjatlarni jo'natuvchi, oluvchi yoki saqlovchi, yoki ushbu hujjatlarga nisbatan boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi shaxs.

Axborot vositachisi - Boshqa shaxs nomidan elektron hujjatlarni jo'natuvchi, oluvchi yoki saqlovchi, yoki ushbu hujjatlarga nisbatan boshqa xizmatlar korsatuvchi shaxs.

Almashtirish - Shifrlash usuli bo'yicha boshlang'ich matn belgilari foydalanilayotgan yoki boshqa bir alifbo belgilariga almashtiriladi.

Audio-video adapter - Kompyuter yordamida musiqa ijro etilishini va turli video roliklarni ko'rishni ta'minlovchi qurilma.

Amaliy dasturiy ta'minot (Application program package) - Aniq bir sohasi bo'yicha ma'lum bir masalalar sinfini yechishga mo'ljallangan dasturlar majmuasidir.

Banner - Veb-sahifadagi reklama xarakteridagi tasvir yoki matn bloki. U reklama beruvchining Veb-saytiga yoki mahsulot yohud xizmat turi atroflicha bayon qilingan sahifalarga giper murojaatdan iborat. Bannerlar tashrifchilarni jalb etish uchun, imidjni shakllantirish yoki shu resursni siljitish uchun turli Internet-resurslarda joylashtiriladi.

Bayt - Sakkiz bitga teng bolgan axborot miqdorining asosiy olchov birligi. Keng ishlatiladigan qisqartirishlar: Kb = Kilobayt = 210 bayt, Mb = Megabayt = 220 bayt, Gigabayt (Gb) = 230 bayt, Terabayt (Tb) = 240 bayt, Petabyte (Pb), Exabyte (Eb), Zettabyte (Zb), Yottabyte (Yb).

Bit - Axborot tizimlarida axborotni ifodalashning eng kichik birligi. Axborot miqdorining eng kichik olchov birligi hisoblanadi. Axborot 0 va 1 sonlarining ketma-ketligi bilan ifodalanadi. Atama «binary digit» (ikkilik raqam) iborasining qisqartmasi bo'lib hisoblanadi va Princeton universiteti professori Hogn W. Tukey tomonidan kiritilgan.

Bod - Ma'lumotlarni uzatish tezligining o'lchov birligi. U bir sekundda uzatilgan ramzlar soni bilan aniqlanadi. Axborotni ikkilik kodida uzatadigan kanallar uchun 1 bod 1 bit/sekundga teng. Hozirgi zamonda bu tushuncha ishlatilmaydi.

Bosh muharrir - Tahririyatni (qanday atalishidan qat'iy nazar) boshqaradigan va ommaviy axborot vositasini ishlab chiqarish va nashr qilish bo'yicha yakuniy qarorni qabul qiladigan shaxs.

Buyruq satri - DOS yoki Unix dagi o'rin. Unda foydalanuvchi mashinadan nima xohlayotganini xabar qilish uchun buyruqlarni kiritadi.

Buyruqlar prosessori (COMMAND.com) - MS DOSning alohida moduli. Bu modul boshqa qulayrog‘iga almashtirilishi mumkin. Vazifalari:

1. Klaviaturadan yoki bat fayldan buyruq qabul qilish va uni amalga oshirish;
2. Autoexec.bat fayl buyruqlarini MS DOS yuklanganda amalga oshirish;
3. MS DOS amaliy dasturlarini tezkor xotiraga yuklash va amalga oshirilishini ta‘minlash.

Bat - fayl (Batch-fayl) - Tartibli yoki murakkab tartibli MS DOS buyruqlari yoki buyruqlar guruhlarini tashkil etuvchi maxsus matnli fayl.

Belgicha (Значок) - Obyektni aniqlovchi tasviri. Uning yordamida ob‘yektlar bilan ishlanadi (obyektlarga murojaat qilinadi).

Boshlovchi - (Inglizcha - windows explorer, ruscha – проводник deb aytiladi). Boshlovchi menning kompyuterim yorlig‘i negizi asosida ishlaydi, hamda disk, papka va fayllar mundarijasini, ierarxik ko‘rinishini ko‘rib chiqish uchun ishlatiladi. Shuningdek, papka va fayllardan nusxa olish, ko‘chirish, disklarni ham.

Boshqaruv shinalari - Boshqaruv signallarini uzatish uchun ishlatiladi.

Buyruqli interfeyslar - Foydalanuvchining buyruqlarini klaviatura, «sichqoncha» yoki boshqa qurilmalar yordamida kiritishga xizmat qiluvchi vositalardir.

Compact Disk (CD) - Qattiq disklarnig keyingi avlodi bo‘lib, ma‘lumotlarni tashish, saqlash uchun foydalaniladi va keng tarqalgan. Ularning hajmlari 350 Mbayt va 700 Mbaytlilari mavjud. Ularning ikki turi: CD-R va CD-RW turlari bor. CD-R (Compact Disc - Read) - o‘qish uchun ishlatiladigan kompakt disk. Unga faqat bir marta ma‘lumot yoziladi va yuklanadigan drayverlar haqida ma‘lumotni o‘zida mujassamlagan maxsus matnli fayl.

COMMAND.com - Fayli yuklangandan keyin MS DOS ushbu faylni avtomatik tarzda amalga oshiradi.

CPU registrarlari - Axborot saqlash uchun mo‘ljallangan CPU ning maxsus ichki qurilmalari.

CAN (Campus-Area Network) - Kampus tarmoq, bir-biri bilan telefon yoki modemlar bilan ulanish, ammo yetarlicha birbirlaridan uzoqda joylashgan kompyuter lokal tarmoq.

Dastur (G) - Funksional o'ziga xoslik, dasturiy o'ziga xoslik, algoritm chizmalari, algoritmik tillardan birining ko'rinishida yoki mashina algoritmi ko'rinishida yozilgan obyektlarni boshqarishning berilgan vazifalarini amalga oshirish va ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha ayrim loyiha qaroridir.

Dasturiy ta'minot - Hisoblash texnikasi vositasida ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va foydalanish dasturiy vositalari yig'indisidir.

Dasturiy ta'minot - Kompyuter tizimining ajralmas tarkibiy qismidir. DT texnik vositalarning mantiqiy davomidir. Muayyan kompyuterlarning qo'llanish sohasi uning uchun yaratilgan DT bilan aniqlanadi.

Dasturiy ta'minot umri - Kompyuter dasturiy ta'minotini loyihalashtirish boshlangan daqiqadan to uning ishlatilishi to'xtashigacha o'tgan vaqt.

Dasturiy ta'minotni elektron tarqatish - Kommunikatsiya tarmoqlari orqali dasturiy ta'minot tarqatish texnologiyasi. Bu maqsadlarda ESD maxsus tizimlari yaratiladi, ular foydalanuvchilarga dasturlarni o'chib-ko'chirib olish va ularning haqini to'lash imkonini beradi. Bunday tizimlar Internet tarmog'i hamda modemli ulanish orqali faoliyat korsatadilar. ESD tizimlari, foydalanuvchilarga dasturiy ta'minotdan ma'lum vaqt davriga sinab foydalanish uchun yozib olish imkonini ham beradi.

Dasturlashtirish tizimi - Jami dasturlashtirish tili va dasturlarni yaratish tizimi. U berilgan tilda dasturlarni avtomatlashtirilgan tarzda yaratish va bajarish hamda tegishli hujjatlar tayyorlashni ta'minlaydi. Odatda dasturlashtirish tizimi tilning etalon xilini emas, balki uning dialektik malum osonlashtirish yoki kengaytirishlarga ega rusumini o'z ichiga oladi. Ba'zi dasturlashtirish tizimlari dasturlarni bir necha tilda yaratishni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shaxsiy kompyuterlar uchun eng mashhur dasturlashtirish tizimlari:

Microsoft kompaniyasining Basic, Java, C++ tillarini qo'llab-quvvatlovchi Visual Studiogi; Inprise (Borland International) kompaniyasining Delphi tili va boshqalar.

Delphi tili - Borland International, Inc kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalarni tezkor ishlab chiqish tizimi. Delphi tili esa Pascalga asoslanganligi bilan farqlanadi.

Disk - Bitta yoki ikkita tomonidan ma'lumotlarni o'qish yoki yozishni amalga oshirish uchun aylanuvchi yassi dumaloq plastinadan iborat ma'lumotlar tashuvchisi.

Diskret - Ramzlar kabi alohida elementlardan iborat bolgan ma'lumotlar yoki aniq ko'rsatilgan qiymatlarning chekli soniga ega bo'lgan fizik miqdorlarga, shuningdek, jarayonlar va ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchi funksional moslamalarga tegishli tarif.

DOS operatsion tizimi - DOS (disk operating system) atamasi ixtiyoriy operatsion tizimga tegishli bo'lishi mumkin, ammo u, ko'pincha, Microsoft kompaniyasining MS-DOS (Microsoft disk operating system) operatsion tizimiga nisbatan ishlatiladi.

Disk yurituvchilari - Egiluvchan va kompakt diskardagi ma'lumotlarni o'qish va yozish ishlarni bajaradigan qurilma.

Display - Display yoki monitor o'z ekranida kompyuterdagi ma'lumotlarni aks ettirishga mo'ljallangan qurilmadir. Display matn yoki grafik rejimida ishlashi mumkin. Matn rejimida ishlaganida ekran ma'lum sondagi pozitsiyalarga bo'linadi. Grafik rejimda ishlaganida esa ekranga chiqarilayotgan ma'lumotning o'lchov birligi bo'lib, alohida nuqta (piksel) hisoblanadi va u ekranda istalgan tasvirni chiqarish imkonini beradi.

Disket - (uning sinonimlari - floppi-disk, egiluvchan magnit disk) uzoq vaqt ma'lumotlarni saqlashga mo'ljallangan qo'shimcha xotira qurilmasidir. Unga yozilgan ma'lumotlar operativ xotiradagi ma'lumotlardan farqli o'laroq kompyuter o'chirilganida ham saqlanib qoladi. Disket ferromagnit qatlam qoplangan dumaloq shakldagi plastinkadan iborat bo'lib, himoya qobig'iga joylangan bo'ladi. Qobiqda esa magnit uchun tirqish qoldirilgan.

Elektron pochta (elektronik mail) - Kompyuter tarmog'i orqali manzilli xatlarni va hujjatlarni yo'llash, almashtirish (yuborish)

va qabul qilish); Internet muhitining amalga oshiriluvchi xizmatlaridan biri. U jadvallar ustida turli amallarni (guruhlash, tartibga solish, nusxa olish va h.k.) bajarishga imkon beruvchi vositalardir. Bunday vositalarga Super Calc, Quadro Pro, Lotus, Microsoft Exsel kabi dasturlari misol bo‘la oladi.

EHM - Raqamli axborotlar qurilmasidir. Raqamli axborot deyilishiga sabab EHMda har qanday axborot raqamlar yordamida tasvirlanadi. Raqamlar kombinasiyasidan sonlar hosil bo‘ladi. Raqamlar chekli sonlar esa cheksizdir.

Elektron kotiblar - (*PDA-Personal Digital Assistant*, ularni ba‘zan *Hand Help* - qo‘l yordamchisi deb atashadi) cho‘ntak kompyuteri shakliga ega (og‘irligi 0,5 kgdan ortiq emas), biroq Palm Top ga nisbatan keng funksional imkoniyatlarga ega (xususan: nomlar, manzilgohlar va telefon raqamlarini saqlovchi elektron ma‘lumotnomalar, kun tartibi va uchrashuvlar, joriy ishlar ro‘yxatlari, xarajatlar yozuvlari va boshqalar haqidagi axborotni tashkil qilishga yo‘naltirilgan

Foydalanuvchining tili - Foydalanuvchining klaviatura orqali ekranga yozish imkonini beradigan elektron qalamlar; djoystik; "sichqoncha"; ovoz bilan beriladigan buyruqlar va hokazolarning imkoniyatlaridan foydalanish yo‘li bilan tizimga nisbatan bajaradigan harakatlaridir.

Freym - Grafik va nashriy ishlanmalarda - matn yoki tasvir joylashtiriladigan to‘g‘ri burchakli maydoncha.

1. Aloqada – uzatilayotgan axborot paketi.

2. Video va animatsiyada-tasvirlar ketma-ketligidagi tasvirlardan biri.

Format - Axborot obyektining tuzilmasi. Format, ma‘lumotlarni turli obyektlarda, yani, jadvallarda, MB da, printerlarda, ma‘lumotlar bloklarida joylashish va ifodalanish usullarini belgilaydi. Manzillar, kodlar, buyruqlar, sahifalar, qatorlar va h.k. larning formatlarini ajratadilar. Kompyuter bilan bog‘liq barcha tushunchalar o‘zining formatiga egadir.

Faks-modem - Ichiga, aloqa o‘rnatish, modulyatsiya va tasvirlarni uzatish bo‘yicha faks bayonnomalari o‘rnatilgan modem. Bunday modem odatiy modemlar (ma‘lumotlarni uzatish bayonnomalari vositasida) kabi, faks-mashinalar (tasvirni

uzatish bayonnomalari orqali) bilan ham ishlay oladi. Odatda, barcha zamonaviy modemlar fakslarni birday yaxshi uzata oladilar. Lekin odatiy fakslardan qolishmasada qabul qilish vazifasini ularning hammasi ham eplay olavermaydi.

Flash texnologiyasi - Brauzerdan mustaqil va aloqa kanalining ixtiyoriy kengligi quvvatlaydigan vektorli grafika va animatsiya texnologiyasi. Flash animatsiyasini namoyish qilish uchun brauzer kerakli plugin bilan jihozlangan bo'lishi zarur. Macromedia Inc. Kompaniyasi 1997 yilda ishlab chiqaruvchi kompaniyani sotib olmaguncha, Flash texnologiyasi Future Splash sifatida ma'lum edi.

Flesh - Macromedia Flash – tarmoqda, o'zaro faol vektorli grafikani va animatsiyani yaratish imkonini beradigan dastur. Web-dizaynerlar Flash ni turli tugmachalarni, aylantirish chizg'ichlarini, menyuni, animatsiyalashgan logoturlarni va boshqa elementlarni, shu jumladan tovushni yaratish uchun ishlatiladi. Flash fayllari ixcham va tez yuklanadi (oqim (streaming) texnologiyasi ishlatiladi).

FAT viruslari - FAT jadvalini ishdan chiqaruvchi, ya'ni fayllarning diskda joylashuvini ko'rsatuvchi jadvalni o'zgartiruvchi yoki yo'qotuvchi viruslar.

Gipermedia - Mavzuning mantiqiga qarab, matn, audio va video lavhalardan tashkil topgan tuzilish.

Giperssilka (kalit so'z) - Internetning boshqa manziliga yo'naltiruvchi gipertekstdagi aktivlashgan yo'llanma.

Gipertekst - Ma'lumotlarning HTML, XML formatdagi korinishi.

Glossariy - Biror tekstdagi notanish, tushinilishi qiyin so'zlar lug'ati

Global tarmoq - Bir necha mamlakatlarda joylashgan va territorial tarmoqlarni birlashtirib yaratilgan tarmoq. U ko'p sonli foydalanuvchilarga tarmoq xizmatlarini va resurslarini taqdim qilish maqsadida yaratiladi. O'zining kata o'lchamlari tufayli har bir global tarmoq o'z foydalanuvchilariga minglab ma'lumotlar bazalarini, qit'alararo elektron pochta, amalda ixtiyoriy mutaxassislik bo'yicha ta'lim olishni taqdim etadi. Bunday tarmoqqa misol Internetdir. Shu bilan birga, kompaniyaning turli mamlakatlarda joylashgan filiallarini birlashtiruvchi global korporativ tarmoqlar ham farqlanadi.

GAN - (Global-Agea Network) – global (halqaro, qit'alararo) tarmoq.

Gibrid viruslar - Rezident faylli viruslarning hamda ko‘rinmas viruslarning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan viruslar.

Grafik muharrirlar - Kompyuterda turli chizmalardan, tasvirlardan va sur‘atlardan tashkil topgan grafik ma’lumotlarni tayyorlashga va ularni tahrir qilishga imkon beruvchi vositalardir. Bularga Paintbrush, Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, Corel Draw, Corel Photopaint, Boieng Graf, Fantavision kabi dasturlar misol bo‘la oladi.

Internet - Kompyuterlarning butunjahon(global) tarmoq sistemasi, o‘zaro bog‘lanishi uchun standart TCP/IP protokol (qaror)lari ishlatiladi. TCP(Transfer Control Protocol – Yetkazib berish protokolining boshqaruvi) protokoli, tarmoqqa ulangan ikkita kompyuter qanday usulda bir biri bilan aloqa o‘rnatishini tasvirlab beradi. IP(Internet Protocol) protokoli, tarmoqqa ulangan kompyuter ma’lumotlarni tarmoq orqali uzatib berishi va qanday qilib ma’lumotlarni paketlarga bo‘lib berishi hamda bu paketlar manzilga yetkazilishi uchun qay holda manzilni aniqlashni tasvirlab beradi.

Internet texnologiyalar - Axborot telekommunikatsion va shunga o‘xshash texnologiyalar, internet tarmog‘i faoliyati asosida yuz beradigan yoki internet yordamida servis xizmatlar.

IP–manzil - Kompyuterning lokal tarmog‘idagi yoki internetdagi ajoyib (noyob) manzili (194.56.78.2 tipiga o‘xshash).

Intellectual tizimlar - Ilgari bevosita shaklda tizimga kiritilmagan, balki tizimdagi mavjud axborot massivlarini mantiqiy tahlil qilish, umumlashtirish, ma’lumotlarni qayta ishlash asosida ishlab chiqiladigan axborotni bera oladi.

Internet provayder - Internet tarmog‘i xizmatlaridan foydalanishni ta’minlab beruvchi yuridik shaxs.

Internet konferensiya - Internet tarmogi xizmatlari orqali turli anjumanlarni tashkil etish.

Internet manzil (URL) - Internet tarmog‘ida joylashtirilgan axborot resurslarining murojaat manzillari.

Integratsiyalashgan paketlar - Umumiy vazifadagi ADP turli dasturiy komponentlarini o‘zida birlashtiruvchi ADP ga aytiladi.

C) tizimi tipik vakil bo'лади. Uning birinchi versiyasi 1968 yilda paydo bo'ldi. Hozirgacha ko'pgina ma'lumotlar bazasi uni quvvatlaydi.

Ignali printerlar - Keng tarqalgan printerlar turi bo'lib, hozirgi kunda deyarli ishlatilmaydi. Respublikamizda ularni faqat temir yo'l, avia va bank kassalarida uchratish mumkin.

Ichki modem - Qurilma ichki platasining raz'yomiga qo'yiladigan adapter ko'rinishga ega, masalan, kompyuter tizimi platasi ISA interfeysining slotiga va telefonli aloqa liniyasiga ulash uchun RJ-11 tipidagi yevroraryomga ham ega.

Internet Explorer - Web brauzer yorlig'i, ya'ni Internet tarmog'i bilan ishlovchi dastur. Internetdan foydalanish, saytlar bilan ishlash imkonini beradi.

Identifikator - Dastur obyektining nomi. Identifikatorlar lotin harflari, ostki chiziq belgisi va sonlar ketma - ketligidan iborat bo'лади. Identifikator lotin harfidan yoki ostki chiziq belgisidan boshlanishi lozim. Masalan, a, b, _t, _A. Identifikatorlarning uzunligi standart bo'yicha chegaralanmagan. Katta va kichik harflar farqlanadi, shuning uchun oxirgi ikki identifikator bir biridan farq qiladi. Borland kompilyatorlaridan foydalanilganda nomning birinchi 32 harfi, ba'zi kompilyatorlarda 8 ta harfi inobatga olinadi. Bu holda NUMBER_OF_TEST va NUMBER_OF_ROOM identifikatorlari bir biridan farq qilmaydi. Identifikatorlar tilining maxsus (xizmatchi) so'zlari bilan mos bo'lmasligi lozim. Identifikatorlarni past chiziq bilan e'lon qilish maslahat berilmaydi.

Kompyuter dasturi - Kompyuter instruksiylarining ketma-ketligi.

Dasturlarning ikki asosiy xili mavjud:

1. Tizim dasturlari;

2. Amaliy dasturlar.

Kodlashtirish - Axborotni bir tizimdan boshqa tizimga malum bir belgilar yordamida belgilangan tartib bo'yicha otkazish jarayoniga aytiladi.

Kriptografiya - Maxfiy xabar mazmunini shifrlash, ya'ni ma'lumotlarni maxsus algoritm bo'yicha o'zgartirib, shifrlangan matnni yaratish yo'li bilan axborotga ruxsat etilmagan kirishga to'siq qo'yish usuliga aytiladi.

Kalit - Kriptografiya o'zgartirishlar algoritmining ba'zi-bir parametrlarining maxfiy holati bo'lib, barcha algoritmlardan yagona variantini tanlaydi. Kalitlarga nisbatan ishlatiladigan asosiy korsatkich bo'lib kriptomustahkamlik hisoblanadi.

Kabelli modem - Kabelli televizion tarmoq orqali Internetga chiqishni ta'minlaydigan modem. Koaksial kabelning o'tkazish kengligi telefon liniyasinikiga nisbatan sezilarli keng, shu sababli Internet – provayderlari bunday kanal orqali yuqori tezlik (10 Mbit/sekgacha) bilan Internetdan erkin foydalanishni ta'minlashlari mumkin.

Kamera - Yorug'likka sezgir moddalarda predmetlarning tasvirini olishga moljallangan qurilma. Eslab qolinadigan signalning turiga qarab kameralar analogli va raqamli turlarga bo'linadi.

Keshlash - Ingliz tilidagi cache - «maxfiy zahira» so'zidan olingan. Kesh -kompyuter siz Internetdan olgan barcha hujjatlarni yozib qo'yadigan jild. Agar hujjatni takroran so'rasangiz, sizga keshning ichidagini ko'rsatishadi. Proksi-server ham Internetdan olingan hujjatlarni maxsus jildga yozib qo'yadi. Agar siz, yoki Internetning boshqa foydalanuvchisi shu hujjatga murojaat qilsa, proksi-server uni o'zining keshidan yetkazib beradi. Siz buni sezmaysiz ham. Bu holda, siz uzoqdagi WWW-serverga shu hujjat uchun yana murojaat qilganingizga nisbatan, tezlik bir daraja yuqoriroq bo'ladi.

Kilobayt - 1024 baytga teng bo'lgan, axborot miqdorining o'lchov birligi. Bayt – axborot miqdorini o'lchashning asosiy birligi. Masalan, rus alifbosining bitta ramzi kompyuter xotirasida bir baytni egallaydi.

Kodlash kalit - Kriptografiyada kodlarni o'zgartirishda, ularning o'zaro mosligini tekshirish uchun ishlatiladigan kalit. Bu kalitning vazifasi, begona obyektlar tomonidan dasturlarni va ma'lumotlarni ishlatishdan muhofazalash.

Kodlash - Axborotlarni aniq bir qoida asosida bir ko'rinishdan ikkinchi bir ko'rinishga o'tkazish.

Ko'chma kompyuterlar - Shaxsiy kompyuterlarning tez rivojlanayotgan kenja sinfidir.

Kompyuter-bloknotlar - (Note Book va Sub Note Book, shuningdek, ularni Omni Book - «har yerda hozir» deb ham atashadi) – stolda foydalaniladigan Shaxsiy kompyuterlarning

barcha vazifalarini bajaradi. Ular uncha katta bo'lmagan kitob hajmidagi mo'jaz chemodancha (ba'zan olinadigan qopqoqli holda) ko'rinishida tayyorlanadi.

Kesh xotira - Kompyuter tomonidan dasturlar ishlash jarayonida ko'p ishlatilgan ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniladi. Bu xotira tezkor va doimiy xotira o'rtasida joylashadi.

Kontroller (adapterlar) - Ular har xil tashqi qurilmalar ishini ta'minlaydi. Ishlash holatlari bilan farqlanadi (video plata, tovush plata, tarmok platasi va ...).

Klaviatura - Foydalanuvchi tomonidan ma'lumotlarni kompyuterga kiritishga mo'ljallangan qurilmadir. Tugmachalar soni va joylashishi turli xil kompyuterlarda har xil bo'lishi mumkin, lekin ularning vazifasi o'zgarmaydi.

Ma'lumotlar ombori - Har qanday axborot texnologiyasining majburiy elementi ma'lumotlar omboridir (MO). Avtomatlashtirilgan tashkilotda MO firmaning ishlab chiqarish tizimi haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zida saqlaydi.

Ma'lumotlar banki - Ma'lumotlar bazasi, MBBT, shuningdek, MB da amalga oshirilgan texnik vositalar majmui.

Masofali organish - Kelishilgan vaqtda oqituvchi va studentlarning birgalikda aniq bir maqsadli bilim berish va olish amali.

Masofali ta'lim - Masofali ta'limni amalga oshiruvchi pedagogik sistema.

Multimedia - Kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishda ega bo'lgan (matn, grafik, rasm, tovush, animasiya, video va boshqalar) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo'lgan (magnit va optik disklar, audio va video-lentalar va boshqalar) axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir.

Multimedia - (multimedia - ko'p muhitlilik) vositalari bu apparat va dasturlar to'plamini bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan juda turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Multimediya vositalari - Insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimediya o'quv ma'lumotlari - Matn, audio, video va animatsion elementlarni o'zida saqlaydigan o'quv ma'lumotlar.

Matnli protsessor - Matnli hujjatlarni yaratish va ishlov berish uchun mo'ljallangan amaliy dasturiy mahsulot turidir.

MAN (Metropolitan Area Network) - Shahar yoki mintaqaviy tarmoq, ya'ni shahar, viloyat va shu kabilar doirasidagi tarmoq.

Multimediya vositalari - Insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bolishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Muxarrirlar - Matnlar, grafik ma'lumotlar va illyustratsiyalarni yaratish va o'zgartirishlar uchun mo'ljallangan ADPdir.

Mini kompyuter - Katta kompyuterlardan bir pog'ona past kompyuterlar.

Mikroprosessor - Kompyuterni boshqarish va barcha hisob ishlari, buyruqlarni bajarilishini ta'minlaydi. Mikroprosessor turli amallarni tez bajarish qobiliyatiga ega. Uning tezligi sekundiga 100 million amalga va undan ortiq bo'lishi mumkin. Uning tezligi Megagerslarda hisoblanadi va prosessor nomidan keyin yoziladi. Masalan, Pentium 700.

Monitor (dispiley, ekran) - Foydalunuvchiga matnli va grafikli ma'lumotlarni chiqarish uchun xizmat qiladi. Kompyuter bilan bo'ladigan bevosita muloqotni ekranda ko'rish uchun monitor xizmat qiladi. Monitor ikki: monoxrom va rangli turlari mavjud bo'lib, ular video adapter qurilmasi boshqaruvida ikki xil rejimda matn yoki grafika holatlaridan birida ishlaydilar.

Modulyatsiya - Signalning biror parametrini aloqa kanalida (modulyatsiya qilinadigan signalni) uzatilayotgan ma'lumotlarning joriy qiymatlariga mos ravishda (modulyatsiya qiladigan signalni) o'zgartirishdir.

Notebook - Bloknot kompyuter - Hajmi ixcham va elektr energiyasi ichiga o'rnatilgan batareya (akumlyator) orqali ta'minlaydigan Shaxsiy kompyuterlar.

Norton Commander - DOS uchun eng mashxur dastur hisoblanadi. Ko'p foydalanuvchilar bu dastur yordamida kopiya qilishadi, fayl va kataloglar bilan ishlaydilar. Hamma operatsion sistemalar uchun bu eng sodda va qulay vosita hisoblanadi.

Norton Commander Peter Norton Computing firma tomonidan yaratilgan (1992 yildan boshlab ushbu firma Symantec firmaga qo'shildi). Ushbu programma 512 Kb tezkor xotirani bant qiladi va 4.5 Mb qattik diskda (HDD yoki vinchesterda).

Operatsiya - Bir ish joyida bajariladigan muayyan harakatlar majmui.

Operativ modellar - Boshqarishda operativ qarorlar qabul qilishni qo'llab quvvatlash uchun foydalaniladi.

Operativ xotira - WINDOWS 2000 ning ishlashi uchun kamida 32 Megabayt va ko'pi bilan 128 Gegabayt xotira talab qilinadi. Agar Sizga WINDOWS 2000 Server ni ishlatish zarur bo'lsa, u holda xotira xajmini kamida 256 mega baytga

Portal - Insonlar boshqa bir insonlar bilan o'zaro munosabatini, hamda o'zlariga qiziqarli bo'lgan axborot resurlaridan foydalanish uchun interfeysda gavdalanib o'rnatilgan WWW-tizimi.

Portal (ta'limga oid) - Ta'lim maydonining internet tarmog'idagi portali, ta'lim va ma'rifatchi faoliyati, axborotni yetkazish va professionallar uchun aloqa vositasi, mualliflik huquqini Internet tarmog'ida himoyalash maqsadida takomillashtiruvchi vosita deya hisoblanadi. Har xil turdagi xizmatlarni yetkazib berish (Chat, ommaviy yig'in, pochta jo'natishlar va h.k).

Parametrlar - Loyihalash tizimiga ochiq-oydin ko'rinishda berilgan tavsif, shart-sharoit yoki ayrim cheklanishlardir.

Purkagichli printerlar - Purkagichli printerlar bosuvchi kallakda ignalar orniga ingichka naychalar-soplolarg (konus naychalarga) ega, u orqali qog'ozga bo'yoq rangning (siyohning) mayda tomchilar purkaladi. Bu zarbsiz bosuvchi qurilmadir. Bosuvchi kallakning matritsasi odatda 12 tadan 64 tagacha soploga ega.

Qattiq disk - (doimiy xotira - Hard Disk Drive) – dastur va ma'lumotlarni doimo saqlaydi. U ba'zan "vinchester" deb nomlanadi. Vinchester nomi birinchi qattiq disk nomidan kelib chiqqan (1973- yilda IBM firmasi tomonidan yaratilgan qattiq disk nomi "30/30" bo'lgan va bu mashhur Winchester multig'ining kalibrga o'xshar edi). Ular hajm va ishlash tezligi bilan farqlanadi. Qattiq diskdagi dastur va ma'lumotlar esa o'chirilmaydi.

Qurilma drayverlari - Tashqi qurilmalarni boshqaradigan maxsus rezident dasturlar. Drayverlar CONFIG.sys faylida ko'rsatilgan tartibda operativ xotiraga yuklanadi.

Qattiq disk xotirasi - Bu turdagi xotira WINDOWS 2000 ning ishlashi uchun kamida 2 Gegabayt bo'lishi va undan tashqari bir gigabayt bo'sh xotira bo'lishi talab qilinadi.

Quti (Korzina, Recycled Bin) - Ushbu quti vaqtincha yo'qotilishi mo'ljallanayotgan fayllar saqlanadigan joy bo'lib, yanglish yo'qotilgan fayllarni qaytadan tiklash uchun imkoniyat tug'diradi.

Server - Boshqa kompyuter va dasturlarga xizmat ko'rsatadigan kompyuter vositasi yoki dasturdir. Ya'ni boshqa kompyuterlarga o'zining fayllaridan foydalanishga ruxsat beruvchi kompyuter server hisoblanadi. Bitta kompyuterda bir necha server ishlashi mumkin.

Slayd - Ma'lum bir olchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi. Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko'rgazmani kompyuter ekranida, videomonitorida, katta ekranda namoyish qilish mumkin.

Stil - O'z nomiga ega bo'lgan formatlash kattaliklarining topلامي.

Sistema bloki - Asosiy xotira, protsessor va elektron sxemadan tashkil topgan. Asosiy xotira esa tezkor xotira qurilmasi (TXQ) hamda doimiy xotira qurilmasi (DXQ)dan tashkil topgan. TXQda (boshqacha nomi RAM — Random Access Memory) kompyuterga kiritilgan va ish jarayonida hosil bo'lgan barcha axborotlar saqlanadi. Kompyuter manbaadan uzilgach TXQdagi ma'lumotlar ochib ketadi. DXQda esa axborotlar o'zgarmasdan doimiy saqlanadi.

Tizim - Bir vaqtning o'zida ham yagona, yaxlit deb qaraladigan har qanday obyekt, ham qo'yilgan maqsadlarga erishish manfaatlarida birlashtirilgan turli elementlar majmui.

Tezkor xotira - Protsessor uchun zarur bo'lgan dasturlar va ma'lumotlarni saqlaydi. Kompyuter o'chirilishi bilan tezkor xotiradagi ma'lumotlar o'chiriladi.

Tarmoq adapteri - Kompyuterni lokal tarmoqqa ulash imkonini beradi. Bunda foydalanuvchi tarmoqdagi boshqa kompyuter ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tarmoq adapterlari ko'p xil turlari bo'lib, axborotni uzatish va qabul qilish tezligi bilan farqlanadi.

Tashqi modem - Odatda katta bo'lmagan quticha ko'rinishdagi mustaqil konstruksiya bo'lib, u manba - bloki, apparaturaga (kompyuterni ketma-ket portiga RS-232) va telefon kanaliga (RJ-11 raz'yoni) ulash uchun raz'yonlar va indikatorli panel bilan jihozlangan. Indikatorlar modemning ish rejimlari to'g'risida ma'lumot beradi.

URL - Internet tarmog'iga joylashtirilgan, o'zining noyob manziliga ega bo'lgan, ixtiyoriy hujjat manzili. (www.openet.ru).

USB Flash drive (flesh disk) - Hozirda foydalanuvchilar tomonidan juda ko'p foydalanilayotgan qattiq disk turi. Undan ixtiyoriy ma'lumotni saqlash, qayta ishlash, tarqatish maqsadida foydalanish mumkin. Ularning hajmi 32 Mbaytdan 32 Gbaytgacha bo'lganlari bor. Flesh disk kichkina ko'rinishga ega, olib yurish uchun qulay, ko'p ma'lumot saqlaydi. Bular uchun maxsus disk yurituvchilar kerak emas.



Videokonferensiya - NetMeeting, CU-SeeMe, iVisit va shunga oxshash bolgan dasturlardan foydalangan holda video aloqa orqali foydalanuvchilarning ishlash jarayoni.

Virtual auditoriya - Bir biridan juda uzoqda bo'lgan o'rgatuvchilar va o'qituvchilar, bir biriga bog'langan setevoy kompyuter va telekommunikatsiya yordamida oqish jarayonini amalga oshirish.

Vinchester - Qattiq disklardan biri SHKning doimiy xotirasi.

WWW - World Wide Web ("Butunjahon o'rgimchak to'ri" yoki shunchaki Web o'rgimchak to'ri) so'zining qisqartirilgani; ko'p betli prinsipga asosan qurilgan, bir biri bilan yo'llanmalar (gipersilkalar) orqali boglangan, Internet tarmog'idagi eng ommabop ilova.

Web-vitrina - Tovarlarni mijozga ko'rib chiqish uchun taqdim etish.

Web sahifalar - Asosan o'zida ma'lumotlarni jamlovchi konteyner hisoblanib, ularning ikki turi mavjud:

1. Statik - o'zgarmas web sahifalar

2. Dinamik - murojaatga nisbatan shakllantiriladigan web sahifalar

Web sayt – Biror bir sohaga, faoliyatga, voqea va hodisaga bag‘ishlangan ma’lumotlarni o‘zida jamlagan Internet sahifalar majmui.

Web uzal(tugun) yoki saytlar - Bitta muallif yoki WWWga tegishli bir guruh o‘zaro “giperboglanishlar” bilan aloqador bolgan Web sahifalar majmuasi.

Windows XP - Windows operatsion tizimlarining eng yaxshi xususiyatlarini o‘zida jamlagan tizimdir. Grafik hamda multimedia ma’lumotlari bilan ishlash suratini oshiruvchi eng zamonaviy vositalarga ega. 2002 yilda ishlab chiqarilgan.

Yangi axborot texnologiya vositalari - Mikroprotsessor texnikasi, zamonaviy vositalar va axborot almashinuvining telekomunikatsion tizimi audio-video va h.k larni saqlash, jamlash asosida ishlaydigan dasturiy-apparat vositalari va qurilmalari.

Yagona interfeys - WINDOWS foydalanuvchining muloqoti yagona, ya’ni turli programmalar bilan ishlash qoidalari umumiy. Shuning uchun yangi programma bilan ishlaganingizda bu qoidalaridan foydalanishingiz mumkin.

Shaxsiy kompyuter - Stolda joylashadigan va bir joydan ikkinchi joyga tez o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘lgan EHMsidir.

SHERIF - Qattik disklardagi operatsion tizim, dasturlar va ma’lumotlar fayllarini 100% kafolat bilan himoyalovchi rezident dastur.

Shifrlangan viruslar - Har bir tasir qilish takroriy keyin o‘zining kodlanishini ham, joylashishini ham o‘zgartirib turuvchi viruslar.

Cho‘ntak kompyuterlar - (Palm Top, bu «kaftdagi» degan ma’noni bildiradi) – 300 gramm og‘irlikka ega. Tipik o‘lchamlari yig‘ilgan holatda 150, 80, 25 mmdir. Ular to‘laqonli shaxsiy kompyuterlar bo‘lib, mikroprotsessor, operativ va doimiy xotira, odatda monoxrom suyuq kristalli displey, ixcham klaviatura, ko‘chmas shaxsiy kompyuterlarga axborot almashuv maqsadlarida ulanish uchun port bo‘limlariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. «Axborotlashtirish haqida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. -T.: 1993. 7- may.
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini axborotlashtirish kontsepsiyasi. Loyiha. O'zbekiston «O'qituvchi» 2004 yil.
3. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish chora - tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200- sonli qarori.
4. "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish. "Internet" ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23. 05. 2001 yildagi qarori.
5. S.S. G'ulomov, R.X. Alimov, X.S. Lutfullaev va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik //Mualliflar jamoasi: - Toshkent.: «Sharq». 2000 yil.
6. A. Erkayev. Ma'naviyat – millat nishoni. -T.: Ma'naviyat, 1997 yil. 27 bet.
7. B.Q. Xolmatov Kompozitsiya. –T.: Iqtisod-moliya, 2007 yil. 172 bet.
8. B.Q. Xolmatov Naqqoshlik. –T.: Iqtisod-moliya, 2007 yil. 84 bet.
9. Е.В. Лебедева, П.М. Черемних Искусство художника-оформителя. –М.: 1981 yil, 162 стр.
10. R.X. Djo'raev, N.I. Taylaqov, G.A. Rasulova. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun elektron o'quv qo'llanmalar yaratishga oid ilmiy-metodik talablar. «Uzluksiz ta'lim» ilmiy –metodik jurnali. 2 son 2005 yil. 14-27 betlar.
11. I. Jumanov, N.S. Mingboev. "Axborot texnologiyalari". 2-qism. Samarqand -2005 yil.
12. X.A. To'raqulov, B.N. Fayzimatov, S. Ubaydullaev, O.X. To'raqulov, J.A. Hamidov «Texnika fanlarini o'qitishga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy -pedagogik asoslari» o'quv qo'llanma. -Farg'ona. «Texnika». 2003 yil.
13. N.I. Taylaqov Z. Mallaev "Kasbiy ta'lim uchun axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv adabiyotlarini yaratish. "Kasbiy

ta'lim muammolari" Respublika ilmiy -amaliy konferensiya materiallari. Samarqand 2009 yil. 49-50 betlar.

14. N.Sh. Shodiev «Yangi pedagogik texnologiyalar» Samarqand -2005. 67 bet.

15. F. Koburn, P. Makkormik. Corel DRAW 9 – SPB 2000 yil.

16. A. Tays “Photoshop” – 5,5 SPB, 2000 yil.

17. S.I. Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash . - T.: 1996 yil.

18. A. Fyedoryenkov, A. Kimayev Auto CAD 2002 . - M.: 2001 yil.

19. E.T. Romanicheva i dr. Auto Cad vers. 12, 13, 14. - M.: 1997 yil.

20. E.I. Ro‘ziyev Grafik dizayn. –T.: 1993 yil.

21. E.I. Ro‘ziyev «Grafika» Intyegrativ kursining variativ dasturlari. –T.: 1997 yil.

22. E.I. Ro‘ziyev “Texnik grafika va dizayn asoslari”. –T.: 1995 yil.

23. Y.X. Xolmatov, N.I. Taylaqov, U.A. Nazarov “Informatika va hisoblash texnikasi”. –T.: 2001 yil.

24. T. Rixsibotov: “Kompyuter grafikasi”. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 yil. 22-26 betlar.

25. Д. Миронов «Corel Draw 10». Учебный курс. Санкт-Peterburg. 2002 yil.

26. A. Sattorov «Informatika va axborot texnologiyalari». - Toshkent. «O‘qituvchi» nashriyoti. 2003 yil.

27. A.R.Jo‘rayev, Z.E.Chorshanbiyev, F.X.Hazratov, Y.Y.Jamilov, U.I.Bahranova. “Ta’limda axborot texnologiyalari”. O‘quv qo‘llanma. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2022 y. 210-bet.

Internet resurslari

1. www.Paradoxplus.Ru
2. www.Fjord.Jino-Net.Ru
3. www.microsoft.com
4. www.cpress.ru/home/index.htm
5. www.Win95mag.Com
6. www.yahoo.com
7. www.Infoseek.Com
8. www.n.b.g.t.intal.uz

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Nazariy mashg‘ulot mavzulari	
1-mavzu.	Ta’limda axborot texnologiyalari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari 5
2-mavzu.	Operatsion tizimlar va ularning turlari 22
3-mavzu.	Elektron jadval muharrirlari. ms excel dasturi 31
4-mavzu.	Multimedianing asosiy tushunchalari. Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari 82
5-mavzu.	Dreamweaver dasturida web-sahifa yaratish..... 95
6-mavzu.	Axborotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalar..... 131
7-mavzu.	Elektron tijorat tizimlari va elektron raqamli imzo..... 141
Amaliy mashg‘ulot mavzulari	
1-mavzu.	Kompyuter va mobil qurilmalar operatsion tizimlari... 162
2-mavzu.	Xizmat ko‘rsatuvchi dasturlar va utilitlar 167
3-mavzu.	Ole texnologiyasi bilan ishlash 172
4-mavzu.	Axborotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalari..... 181
Laboratoriya mashg‘uloti mavzulari	
1-mavzu.	Setup dasturi yordamida kompyuterlarni sozlash..... 196
2-mavzu.	Qobiq dasturlar va arxivatorlar..... 211
3-mavzu.	Axborotlarni himoyalovchi dasturiy vositalar bilan ishlash..... 224
4-mavzu.	Virtual laboratoriyalar bilan ishlash..... 229
Test savollari	233
Glossariy.....	264
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	281

**A.R.Jo‘rayev, A.M.Shoyimov, I.Sh.Sadullayev,
N.Sh.Shadiyeva, S.U.Shodiyeva, G.N.Davronova**

TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlarining Pedagogika ta'lim sohasining barcha bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Muharrir:	E. Eshov
Tex.muharrir:	D.Abduraxmonova
Musahhih:	M. Shodiyeva
Badiiy rahbar:	M. Sattorov

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.

Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 12.12.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. "Times New Roman" garniturasida 1/16.

Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi.

Bosma tabog'i 18. Adadi 20. Buyurtma № 126



“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Buxoro shahar Namozgoh ko‘chasi 24 uy

Tel.: + 998 98 778 47 27